

МОЛИЯ

ИЛМИЙ ЖУРНАЛ

6/2024

Муассис: Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Таҳририят ижодий жамоаси:

Бош муҳаррир: А.Каримов
Муҳаррир: М.Хусанова
Техник муҳаррир: Н.Абдуллаев

Журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси
хузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан
2008 йил 24 мартда 0519-рақам билан рўйхатга олинган.

2008 йилдан нашр қилинади, бир йилда 6 марта чиқади.

Ўзбекистон ҳудудида тарқатилади.

«Молия» илмий журнали Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2013 йил 13 декабрдаги 201/3-сонли қарорига биноан иқтисод
фанлари бўйича фан доктори илмий даражасига талабгорларнинг диссертация
ишлари юзасидан илмий мақолалари эълон қилиниши зарур бўлган илмий жур-
наллари рўйхатига киритилган.

Веб-сайт: www.tfi.uz/Issues/Jmoliya
e-mail: moliya@tfi.uz
Обуна индекси – 1204

Таҳририят манзили: 100084,
Тошкент ш., А.Темур кўчаси, 60^а-уй
Тел.: (+998 71) 234-66-89

ТАҲРИР КЕНГАШИ РАИСИ:

Т.З.ТЕШАБАЕВ – Тошкент давлат иқтисодиёт университети ректори,
иқтисод фанлари доктори, профессор.

ТАҲРИР КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИ:

А.А.КАРИМОВ – Бош муҳаррир, иқтисод фанлари доктори, профессор.

М.Б.НУРМУРАТОВ – Ўзбекистон Республикаси Марказий банк раиси.

Н.Х.ҲАЙДАРОВ – иқтисод фанлари доктори, профессор.

А.Х.ИСЛАМКУЛОВ – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Т.С.МАЛИКОВ – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Э.Ғ.НАБИЕВ – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Б.Э.ТОШМУРОДОВА – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Ш.З.АБДУЛЛАЕВА – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Б.Қ.ҲАМДАМОВ – иқтисод фанлари доктори, профессор.

А.З.АВЛОҚУЛОВ – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Ж.И.КАРИМҚУЛОВ – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Ш.А.АЛЛАЯРОВ – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Ф.Т.МУХАМЕДОВ – иқтисод фанлари доктори, профессор.

Д.Р.РУСТАМОВ – иқтисод фанлари доктори, профессор.

И.К.ОЧИЛОВ – иқтисод фанлари доктори, доцент.

Х.М.ШЕННАЕВ – иқтисод фанлари доктори, доцент.

Э.Ў.ЭРГАШОВ – иқтисод фанлари доктори, доцент.

Т.М.БАЙМУРАТОВ – иқтисод фанлари номзоди, профессор.

Ё.С.ИЛҲАМОВА – иқтисод фанлари номзоди, профессор.

И.Ғ.КЕНЖАЕВ – иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори, PhD.

Х.Д.ХЎЖАҚУЛОВ – иқтисод фанлари номзоди, доцент.

Х.ҚОБУЛОВ – иқтисод фанлари номзоди, профессор.

З.А.САГДУЛЛАЕВА – иқтисод фанлари номзоди, доцент.

Д.А.МИРЗАЕВ – техника фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент.

Е.Б.МАЛЕЙ – кандидат экономических наук, доцент Полоцкого Государственного университета, Беларусь.

ELCIN AYKAC ALP – Туркия, Истанбул Тижорат университети профессори.

ТАЕ-HYOUNG MUN – Жанубий Корея, Моквун университети профессори.

Н.К. МУРАВИЦКАЯ – профессор Департамента аудита и корпоративной отчетности Финансового университета при Правительстве Российской Федерации.

ASIF MANBUB KARIM – Малайзиянинг менежмент ва тадбиркорлик университети профессори.

MOLIYA VA BUDJET

T.Z.Teshabayev, Sh.A.Allayarov, A.S.Mallaboev. “Yashil” sanoatga o‘tishning dolzarbligi va muammolari5

T.S.Malikov. Moliyaviy texnologiyalar. Nima ular? - 113

E.D.Alimardonov. Yevropa ittifoqida yevrobozorning shakllanishi va moliyaviy integratsiya jarayonlariga ta’siri17

M.A.Ergashev. Korxonalarning moliyaviy barqarorligini o‘ziga xos xususiyatlari27

Н.Б.Ходжарахманова. Проблемы и перспективы казначейского исполнения бюджета на уровне районных казначейств на примере32

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT

С.С.Гулямов, С.С.Ачилов. Использование технологий искусственного интеллекта в бухгалтерском учете и налогообложении38

A.F.Mustafoyev. Ta’lim xizmatlari tannarxini hisoblashning uslubiy jihatlari va ular hisobini takomillashtirish.....52

G.X.Normatova. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarining strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish61

B.K.Bobobekov. Tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil etishda xorijiy tajriba68

BANK ISHI

O.S.Komolov. Global pandemiya sharoitida tijorat banklarining moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishdagi faoliyatining muhim jihatlari81

B.S.Ruziyev. Tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish yo‘llari93

O.O.Xudayarov. Banklarning masofaviy xizmatlarga ta’sir etuvchi omillar100

I.T.Salamov. Banklarni transformatsiya qilishda hududiy tarmoqlarini rivojlantirish ahamiyati108

RAQAMLI IQTISODIYOT

Z.U.Muhammadiyev. Raqamli va yashil iqtisodiyot sharoitida kapital investitsiyalarga doir pul mablag‘lari harakatini moliyaviy hisobotda ochiqlash masalalari114

SUGʻURTA ISHI

Sh.U.Qiyosov. Oʻzbekistonda hayot sugʻurtasi bozorini rivojlantirish istiqbollari 121

Г.А.Носирова. Совершенствование страхования рисков в управлении проектами в Республике Узбекистан 129

SOLIQ VA SOLIQQA TORTISH

S.E.Shirinov. Soliq tizimida davlat budjetning solikli daromadlarini shakllanish jarayoni 135

IQTISODIYOT TARMOQLARI

Г.А.Хамдамова. Современные энергоэффективные технологии как инструмент повышения конкурентоспособности компании 142

X.Dj.Xujakulov, A.S.Jamaldinova, A.I.Roʻziev. Oʻzbekiston respublikasida demografik vaziyatning holati va oʻziga xos xususiyatlari 149

MENEJMENT

K.M.Shodmonqulov. Kichik sanoat zonalari faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqib risklarni boshqarish tamoyillarining ahamiyati 157

MARKETING ISHI

Sh.Sh.Ziyayeva. Tikuv-trikotaj korxonalarining brend jozibadorligini oshirishda marketing strategiyalari 162

UO‘K:335.(335.1)

Teshabayev To‘lqin Zakirovich,
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti Rektori, i.f.d., professor.

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich,
*Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti “Savdo ishi”
kafedrası mudiri, i.f.d., professor*

Mallaboev Anvarjon Sotvoldiyevich,
*Andijon mashinasozlik instituti,
“Iqtisodiyot” kafedrası tayanch doktoranti (PhD), katta o‘qituvchi
e-mail: mallaboyev.anvarjon@gmail.com,*

“YASHIL” SANOATGA O‘TISHNING DOLZARBLIGI VA MUAMMOLARI

Тешабаев Тулкин Закирович,
*ректор Ташкентского государственного экономического университета, доктор
экономических наук, профессор*

Аллаяров Шамсиддин Амануллаевич,
*заведующий кафедрой «Торговое дело» Ташкентского государственного
экономического университета, д.э.н., профессор*

Маллабоев Анваржон Сотволдиевич,
*Андижанский машиностроительный институт, докторант (PhD) кафедры
«Экономика», старший преподаватель e-mail: mallaboyev.anvarjon@gmail.com,*

**АКТУАЛЬНОСТЬ И ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕХОДА К «ЗЕЛеноЙ»
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

Teshabaev Tulkin Zakirovich,
Rector of Tashkent State University of Economics, DSc, Professor.

Allayarov Shamsiddin Amanullaevich,
*Head of the Department of “Trade business” of Tashkent
State University of Economics, DSc, Professor.*

Mallaboyev Anvarjon Sotvoldievich,
*Andijan Machine Building Institute, doctoral
Student (PhD), department “Economics”, senior lecturer
e-mail: mallaboyev.anvarjon@gmail.com,*

RELEVANCE AND PROBLEMS OF TRANSITION TO “GREEN” INDUSTRY

Annotatsiya: Maqolada “yashil” sanoat konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari, “yashil” sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va muammolari to‘g‘risida mulohazalar yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, “yashil” sanoat, barqaror rivojlanish maqsadlari, “yashil” transformatsiya, ekotizimlar degradatsiyasi, karbonsizlashuv, uglerod neytralligi.

Аннотация: В статье рассматриваются научно-теоретические основы понятия “зеленая” промышленность, актуальность и проблемы развития “зеленой” промышленности.

Ключевые слова: “зеленая” экономика, “зеленая” промышленность, цели устойчивого развития, “зеленая” трансформация, деградация экосистем, декарбонизация, углеродная нейтральность.

Abstract: The article discusses the scientific and theoretical foundations of the concept of “green” industry, the relevance and problems of the development of “green” industry.

Key words: “green” economy, “green” industry, sustainable development goals, “green” transformation, ecosystem degradation, decarbonization, carbon neutrality.

KIRISH

Sanoat inqilobi insoniyat tarixida ulkan iqtisodiy taraqqiyotni boshlab berdi. Biroq so‘nggi ikki yuz yildan oshiq davr mobaynida qazib olinadigan yoqilg‘ilarga asoslangan sanoat faoliyati issiqxona gazlari chiqindilarining ko‘payishiga, o‘rmonlarning kesilishiga, suv va havoning ifloslanishiga, tabiiy resurslarning tezlik bilan kamayib borishiga, bir so‘z bilan aytganda ekotizimlarning tanazzulga uchrash xavfini yuzaga chiqishiga olib keldi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 2015 yilning 25 sentyabrida “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish kun tartibi dasturi” qabul qilindi. Ushbu dastur “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sish masalalarini jahon iqtisodiyoti kun tartibidagi eng dolzarb vazifalardan biriga aylantirdi.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada

kengaytirish maqsadida 2022 yil 2 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-436-son qarori qabul qilingan. Ushbu qaror bilan sanoat tarmoqlarida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va energiya tejamlorligini ta‘minlash bo‘yicha Konsepsiya strategik xujjat sifatida tasdiqlandi. Konsepsiyada belgilangan chora-tadbirlarning ijrosini ta‘minlash bilan iqtisodiyot tarmoqlari va faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig‘imi ko‘rsatkichini 2026 yilga kelib 2022 yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga erishish ko‘zda tutilgan. [1]

Yuqoridagi maqsadlarga erishishda “yashil” iqtisodiyot modelining asosiy omillari, o‘ziga xos xususiyatlari va muammolarini chuqur ilmiy tadqiq etish, ushbu yo‘nalishdagi xorijiy mamlakatlar tajribalarini chuqur tahlil qilish hamda ulardan “yashil” sanoat siyosatini ishlab chiqishda foydalanishning shart-sharoitlari va imkoniyatlarini aniqlash hozirgi kundagi eng dolzarb vazifalar biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada “yashil” iqtisodiyotning afzalliklari va muammolari, ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida muvozanatli rivojlanishni ta‘minlash yo‘nalishlari muhokama qilingan. Iqlim

inqirozini yumshatish, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va kelajakda yanada adolatli va barqaror iqtisodiy tizim yaratish uchun “yashil” sanoatga o’tishni jadallashtirish global ustuvor vazifa ekanligi ilgari surilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Yashil” sanoat tushunchasining ilmiy adabiyotlarga kirib kelishi 1990-yillarning ohiriga to’g’ri keladi. “Yashil” sanoat yondashuvi dastlab, BMT ning Barqaror Rivojlanish Komissiyasi (BRK) tomonidan har tomonlama ko’rib chiqildi va keyinchalik uning ilmiy asoslari ishlab chiqildi. BMTning Sanoatni Rivojlantirish Tashkiloti (YuNIDO) tomonidan 2009-yilda boshlangan “Yashil sanoat tashabbusi” ushbu sohada olib borilayotgan ishlarni yanada jadallashtirdi.

“Yashil” sanoat turli ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. “Yashil” sanoat atamasini birinchi bo’lib ilmiy adabiyotga kiritgan tadqiqotchilar orasida Nikolas Stern, Amori Lovins va Pol Xoken kabi nomlar ajralib turadi. Ushbu olimlar “yashil” iqtisodiyot va “yashil” sanoat siyosatini ekologik va iqtisodiy muvozanat jihatidan o’rganib chiqdilar.

Nikolas Sternning “yashil” sanoat, barqarorlik va iqlim o’zgarishiga oid tadqiqotlari uning «Iqlim o’zgarishi iqtisodiyoti bo’yicha jiddiy sharhlar» (2006) nomli ilmiy asarida aks etgan. Stern ushbu asarida iqlim o’zgarishlarining iqtisodiy oqibatlarini, barqaror rivojlanish va “yashil” texnologiyalarga sarmoya kiritishning iqtisodiy va ekologik foydalari haqida fikr yuritadi. Shuningdek, u “yashil” sanoat amaliyotining iqtisodiy va ekologik afzalliklarini o’z ichiga olgan, keng qamrovli tahlilni taqdim etadi. Stern tadqiqotlari iqlim o’zgarishi va iqtisodiy samaradorlik o’rtasidagi bog’liqlikni aniqlashga qaratilgan

tahlillarga asoslanadi. Stern uglerod narhini belgilashni taklif etadi. Unga ko’ra uglerod chiqindilariga narh qo’yish sanoatning atrof-muhitga ta’sirini kamaytiradi va “yashil” sanoatni rag’batlantiradi. Stern olib borgan tadqiqot natijalariga ko’ra, “yashil” sanoatning uzoq istiqbolda iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltirishi asoslangan, bu esa o’z navbatida barqaror rivojlanish va ekologik toza biznes modellarini qabul qilishga yordam beradi. [2]

Pol Xoken va Lovinslarga ko’ra ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlarining keng joriy etilishini, sanoat inqilobidan buyon yuz bergan o’ziga xos burilish nuqtasi sifatida ta’riflash mumkin. Pol Xoken, Amori Lovins, L. Xanter Lovinslar tomonidan yozilgan “Tabiiy kapitalizm” (1999) asari “yashil” sanoat konsepsiyasiga asos solgan eng muhim ilmiy ishlardan biri hisoblanadi. Asarda sanoat ishlab chiqarish jarayonlarini atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtai nazaridan qayta ishlab chiqishning zarurligi, tabiiy resurslardan samarali foydalanish, qayta ishlash, energiya samaradorligi va barqarorlik yuzasidan takliflar keltirilgan. Shuningdek, asarda tabiiy resurslarga iqtisodiyotning bir qismi sifatida qaraladi, hamda ekologik toza ishlab chiqarish modellari iqtisodiy qiymat yaratishi mumkinligi ilgari suriladi. Asar mualliflariga ko’ra, “yashil” sanoat ekologik muvozanatni ta’minlash bilan birga, xarajatlarni tejoychi ishlab chiqarish modelidir. [3]

“Yashil” iqtisodiyot va “yashil” sanoat masalalari yuzasidan milliy tadqiqotchilarimiz tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Iqtisodchi olim A.A.Isadjanov (2020) “yashil” iqtisodiyot xususiyatlari va rivojlanish omillarini o’rgangan. O’zbekistonda tarkibiy o’zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning

raqobatdardoshligin oshirish bo'yicha iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borgan. [4]

Iqtisodchi olim N. Maxmudov (2024) O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy omillari va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etgan. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish yuzasidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va istiqboldagi vazifalar tahlil qilingan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. [5]

Boshqa bir iqtisodchi olim E.A.Muminova (2023) O'zbekistonda sanoat tarmog'ining rivojlanishi, sanoat rivojlanishida "yashil" iqtisodiyotga o'tish, sanoat tarmoqlarida "yashil" texnologiyalarni qo'llash zaruriyati yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan. [6]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida nazariy manbalarni o'rganish, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslama tahlil usullardan samarali foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, atrof-muhitning ifloslanishi va iqlim o'zgarishi kabi sanoatlashuv yuzaga chiqargan ekologik muammolarning tobora yaqqol namoyon bo'lishi iqtisodiy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish va barqaror iqtisodiy rivojlanish modellarini ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shu nuqtai nazardan, "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ifodalovchi integratsiyalashgan model sifatida paydo bo'ldi. BMT ning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) kabi global tashabbuslar

jahon miqyosida "yashil" iqtisodiyotni qabul qilish jarayonini tezlashtirdi va iqlim inqiroziga qarshi kurashdagi eng muhim qadamlardan biriga aylandi. BRM "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlovchi muhim xalqaro tashabbus hisoblanadi. Ushbu maqsadlar qashshoqlikka barham berishdan tortib, atrof-muhitni muhofaza qilishgacha bo'lgan keng ko'lamli sohalarda barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. BRM ning "Sanoat, innovatsiyalar va infratuzilma" deb nomlangan 9-maqsadi ekologik toza sanoatni rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, 2015-yil 12 dekabrda qabul qilingan Parij bitimi iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda global burilish nuqtasi bo'ldi deyishimiz mumkin. Parij kelishuvi mamlakatlarga issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish va global harorat ko'tarilishini 2°C dan past darajada ushlab turish majburiyatini yuklovchi tartibni taklif qildi. Natijada, ko'plab davlatlar past uglerodli iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish va "yashil" sanoat siyosatini ilgari surish bo'yicha keng qamrovli qadamlar qo'ydi.

Jaxon mamlakatlarida yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish darajasi 2005 yildan boshlab, umumlashgan xolda Global Green Economy Index (GGEI) indeksi orqali baxolab borilmoqda. GGEI indeksi 18 ta mezon asosida jaxonning 160 ta mamlakatini qamrab oladi. GGEI indeksiga ko'ra to'rtta asosiy yo'nalish mavjuddir. Ushbu yo'nalishlar iqlim o'zgarishi va ijtimoiy tenglik, tarmoqlar dekarbonizatsiyasi, ESG (Environmental Social Governance-Ekologik ijtimoiy boshqaruv) investitsiyalari va atrof-muxit sog'lomligi kabilardan iboratdir. Quyidagi jadvalda GGEI indeksi doirasida eng yuqori 20 ta o'rinni egallagan OECD davlatlarining indeks qiymatlari va reytinglari keltirilgan.

1-jadval

Global yashil iqtisodiyot indeksi (2022 yil ma'lumotlari) [7]

mamlakatlar	GGEI indeksi	egallagan oʻrni	mamlakatlar	GGEI indeksi	egallagan oʻrni
Shvetsiya	0.799	1	Latviya	0.697	11
Shvesariya	0.781	2	Lyuksemburg	0.696	12
Norvegiya	0.747	3	Belgiya	0.693	13
Fransiya	0.744	4	Ispaniya	0.689	14
Daniya	0.742	5	Finlandiya	0.688	15
Islandiya	0.713	6	Gollandiya	0.685	16
Avstriya	0.711	7	Germaniya	0.674	17
Angliya	0.704	8	Avstraliya	0.673	18
Irlandiya	0.703	9	Italiya	0.669	19
Portugaliya	0.701	10	Litva	0.668	20

2-jadval

Global isishni keltirib chiqaruvchi asosiy tarmoqlar (1990-2019 y.y., CO2 mln.tonna) [8]

sektor/yillar	1990	2000	2010	2015	2017	2018	2019
Qishloq xoʻjaligi	4997	5093	5506	5682	5815	5803	5794
Energetika	23244	26214	34193	36173	36777	37603	37636
Sanoat	1008	1389	2221	2685	2854	2967	3005
Yerdan foydalanish va oʻrmonchilik	1909	1670	1490	786	1220	1387	1641
Chiqindi sektori	1364	1466	1467	1543	1583	1606	1629

1-jadval ma'lumotlaridan kelib chiqilsa, G'arbiy va Shimoliy Yevropa mamlakatlari hamda Avstraliyaning global yashil iqtisodiyot indeksi jixatidan eng yuqori 20 talikdan joy olganligini ko'rish mumkin.

Hozirgi kunga kelib, jahon miqyosida "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi doirasida atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash maqsadida texnologik innovatsiyalar keng joriy etilmoqda. Ushbu innovatsiyalar qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligi, uglerod chiqindilarini kamaytirish va ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlari kabi sohalarida katta o'zgarishlarga olib kelmoqda. "Yashil" iqtisodiyotning eng muhim yangiliklaridan biri, bu qazib olinadigan yoqilg'i o'rniga

qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga o'tilishidir. Inson iqtisodiy faoliyatining ekologik barqarorlikka salbiy ta'sirini iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi taxlillari shuni ko'rsatadiki, energetika sektori eng yuqori darajada issiqxona gazlari emissiyasini keltirib chiqaruvchi tarmoq xisoblanadi. Issiqxona gazlari emissiyasi jixatidan energetika sektoridan keyingi o'rinlarni qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlari egallaganligini ko'rish mumkin. (2-jadval)

Energetika sektorida quyosh energiyasi va shamol energiyasi kabi ekologik toza energiya manbalardan foydalanish uglerod chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirgan holda, ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Quyosh panellari va shamol

trubinalari qazib olinadigan yoqilg'i o'rniiga cheksiz va qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish orqali sanoat ishlab chiqarishini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar jahon miqyosida energiya ishlab chiqarishning karbonsizlanishini tezlashtiradi hamda energetika sohasida "yashil" transformatsiyani rag'batlantiradi.

O'zbekistonda energiya iste'moli samarasizligi tufayli yo'qotishlar yilgi YaIM ning kamida 4,5 foizini tashkil etadi. Milliy sanoat sektori umumiy energiya iste'molining qariyb to'rtadan bir qismini va deyarli barcha tabiiy gazni iste'mol qiladi. Energiya samaradorligini oshirish va dekarbonizatsiyalash siyosati bo'lmagan taqdirda, O'zbekiston 2030 yilgacha neft va gaz qazib olishning (va eksportning) keskin pasayishiga duch keladi va ko'mirga bog'liq bo'lib qoladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizning qayta tiklanadigan energiya saloxiyati 270 mln tonna yoqilg'i ekvivalentiga teng keladi, bu yillik energiya ehtiyojidan 3 baravar ko'pdir va bu saloxiyatning katta qismi quyosh energiyasiga to'g'ri keladi. [9]

"Yashil" sanoat barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslarni tejashga asoslanadi. "Yashil" sanoatni shakllantirishdan asosiy maqsad, ekologik toza texnologiyalar va jarayonlar orqali iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bilan bir qatorda tabiiy muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy farovonlikni oshirishdan iboratdir. "Yashil" sanoat atrof-muhitga yetkazilayotgan zararni kamaytirish orqali, insoniyat kelajagini kafolatlash bilan bir qatorda, yangi ish o'rinlarini yaratish, energiya mustaqilligini ta'minlash va uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash kabi iqtisodiy

imkoniyatlarni ham yaratadi. [10]

"Yashil" sanoat barqaror ishlab chiqarish va innovatsion texnologiyalarga sarmoya kiritish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi. Qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi, qayta ishlash va ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlari yangi biznes yo'nalishlari va tarmoqlarini rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, quyosh va shamol energetikasi tarmoqlarida nafaqat energiya ishlab chiqarish, balki infratuzilmani yaratish va texnik xizmat ko'rsatish sohalarida ham ko'plab yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi. Qayta tiklanadigan energiya bo'yicha Xalqaro agentlik (IRENA) 2030-yilga borib qayta tiklanadigan energiya sohasida 42 milliongacha ish o'rni yaratilishi mumkinligini tahmin qilmoqda. Bu ishsizlikni kamaytirish orqali jahon taraqqiyotiga ijobiy iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, "yashil" sanoat investitsiyalari mahalliy iqtisodiyotga bevosita hissa qo'shadi. "Yashil" ishlab chiqarish ob'ektlarini qurish, "yashil" texnologiyalarni rivojlantirish va atrof-muhitni yaxshilash loyihalari mahalliy iqtisodiyotni rag'batlantiradi va mintaqaviy rivojlanishni tezlashtiradi. [11]

"Yashil" sanoat tabiiy resurslardan barqaror foydalanishga yordam beradi. Qayta ishlash texnologiyalaridan foydalanish, xom ashyoga bo'lgan talabni kamaytirish bilan birga tabiiy resurslarni tejashga yordam beradi. Suv va energiya kabi muhim resurslardan yanada samarali foydalanish ushbu resurslarni kelajak avlodlar uchun himoya qilinishini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv ekotizimlarni saqlashga ham yordam beradi. Tabiatga zarar yetkazmasdan sanoat faoliyatini amalga oshirish, biologik xilma-xillikni muhofaza qilishga hissa qo'shadi va ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlaydi.

"Yashil" sanoatga o'tish, ekologik barqarorlik va kam uglerodli iqtisodiyot maqsadlari nuqtai nazaridan muhim jarayon

bo'lsa-da, ushbu jarayonda quyidagi muammolar mavjuddir: [12]

1. "Yashil" sanoatga o'tish mavjud infratuzilmani jiddiy darajada o'zgartirishni, boshqacha aytganda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan kengroq foydalanish, elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish, energiya saqlash texnologiyalari va barqaror transport yechimlari kabi sohalarga yirik investitsiyalarni talab etadi. Biroq, ushbu investitsiyalar yirik kapitalni talab qilganligi sababli, rivojlanayotgan mamlakatlar va past daromadli iqtisodiyotlar uchun jiddiy muammo bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, bunday o'zgarishlar uzoq muddatli rejalashtirish va keng qamrovli davlat siyosatini talab qiladi, bu esa ko'pincha qisqa muddatli siyosiy manfaatlar tufayli jarayonning kechiktirilishiga sabab bo'ladi;

2. Qazib olinadigan yoqilg'iga asoslangan iqtisodiy tizimlardan "yashil" iqtisodiyotga o'tish ishchi kuchini qayta tayyorlashni talab qiladi. Bu esa millionlab ishchilarni, ayniqsa, sanoat va energetika sohasida ishlovchilarning yangi kasb-hunarlarini egallashini anglatadi. Elektr transport vositalari ishlab chiqarish, qayta tiklanadigan energiya tizimlarini o'rnatish va ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlari kabi sohalarda kadrlarni qayta tayyorlash kerak bo'ladi. Biroq, bunday qayta tayyorlash jarayoni ko'p vaqt va xarajat talab qiladi. Bundan tashqari, an'anaviy sanoatda o'z ishini yo'qotgan ishchilarning yangi "yashil" ish joylariga talofatsiz o'tishini ta'minlash uchun keng qamrovli ijtimoiy dasturlar va ta'lim siyosatini olib borish talab etiladi;

3. "Yashil" sanoatga o'tishda siyosiy to'siqlar ham asosiy muammolardan biri xisoblanadi. Ekologik siyosatni amalga oshirishga ko'pincha qisqa muddatli siyosiy manfaatlar va iqtisodiy bosimlar to'siqlik qiladi. Siyosiy beqarorlik yoki kuchli qazib olinadigan yoqilg'i lobbilari hukumatlar uchun "yashil" ekologik

siyosat yuritishni qiyinlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, "yashil" sanoat siyosatiga qarshilik jamiyatning ayrim qatlamlarida ham kuzatilishi mumkin. Masalan, energiya narhining oshishi yoki uglerod solig'i kabi amaliyotlar jamiyatda iqtisodiy havotirlarni keltirib chiqarishi va jamoatchilik qo'llab-quvvatlashini zaiflashtirishi mumkin;

4. "Yashil" sanoatga o'tish katta xarajatlarni talab qilganligi sababli, moliyalashtirish va investitsion qiyinchiliklar ham birinchi o'ringa chiqadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda qayta tiklanadigan energiya loyihalari va ekologik toza infratuzilmani o'zgartirish uchun zarur resurslar bo'lmasligi mumkin. Xalqaro moliyalashtirish va yordam dasturlarining yetarli emasligi transformatsiya sur'atini sekinlashtiradi. Bundan tashqari, "yashil" sanoatga investitsiyalar uzoq muddatda daromad keltiradi va investorlardan qisqa muddatda daromad keltiradigan an'anaviy modellardan voz kechishni talab qiladi, bu esa investorlarni ushbu sohalarga kirib kelishini sekinlashtirishi mumkin.

5. "Yashil" sanoatga o'tishda qo'llaniladigan texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish o'zi bilan murakkab texnik va ilmiy muammolarni keltirib chiqaradi. Hususan, energiya saqlash texnologiyalarining nomutanosibligi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan uzluksiz foydalanishni cheklaydi. Shamol va quyosh energiyasi kabi qayta tiklanadigan manbalarni uzluksizligini ta'minlashdagi muammolar, energiya ishlab chiqarishni tartibga solish va saqlashni qiyinlashtiradi. Boshqacha aytganda, "yashil" sanoatga o'tishni tezlashtirish texnologik innovatsiyalar orqali mumkin bo'ladi, bu esa katta sarmoyalarni talab qiladi. Biroq ko'plab mamlakatlarning iqtisodiy imkoniyatlari cheklanganligi, ushbu yo'nalishda yechimini kutayotgan muammolardan yana biri hisoblanadi.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo'lsak, "yashil" sanoatga o'tish ekologik va iqtisodiy foyda keltirsa-da, ushbu jarayonda jiddiy muammolar mavjuddir. Qazib olinadigan yoqilg'iga qaramlikni kamaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va ishchi kuchini qayta tayyorlash kabi muammolar muvaffaqiyatli "yashil" transformatsiya uchun muhim to'siqlar hisoblanadi. Bu muammolarni yengish global hamkorlikni va barqaror rivojlanish maqsadlari sari qat'iy qadamlar tashlashni talab qiladi. "Yashil" sanoatga o'tishning uzoq muddatdagi iqtisodiy va ijtimoiy foydalari "yashil" transformatsiyani tezlashtirish uchun kuchli stimuly bo'lib xizmat qilishi mumkin. "Yashil" sanoat, kelajagi barqaror dunyoni barpo etishda

muhim rol o'ynaydi. Sanoatlashtirishning atrof-muhitga salbiy ta'siri iqtisodiy o'sishga qaratilgan an'anaviy rivojlanish modellaridan voz kechish kerakligini aniq ko'rsatmoqda. Hozirgi vaqtda "yashil" sanoat atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy o'sishni muvozanatlash nuqtai nazaridan muhim yechimni taklif qiladi. Uzoq muddatli istiqbolda "yashil" sanoat tufayli uglerod chiqindilarini kamaytirish, biologik xilmaxlilikni himoya qilish va tabiiy resurslarni barqaror boshqarish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, yangi ish o'rinlari tashkil etish, ekologik toza texnologiyalarga o'tish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish barqaror asosga yo'naltiriladi. Ammo bunday transformatsiyalashuv global hamkorlik, innovatsion siyosat, yetarli moliyalashtirish va kuchli yetakchilikni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrda "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son Qarori.
2. Stern, N. (2006). The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge University Press.
3. Hawken, P., Lovins, A., & Lovins, L. H. (1999). Natural Capitalism: Creating the Next Industrial Revolution. Little, Brown and Company.
4. A.A.Isadjanov. Yashil iqtisodiyot: xususiyatlari va rivojlanish omillari. Iqtisodiyot va ta'lim. 2020. № 1.
5. N.Maxmudov. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirish-davr talabi. International scientific-practical conference. "Green Economy – the economy- of the the future: Innovations, investmentsand prospects". April 24, 2024.
6. E.A.Muminova. Sanoat tarmog'ining rivojlanishi yashil iqtisodiyotga o'tishning zaruriyati sifatida. Iqtisod va moliya. 2023. 6 (166).
7. S.Ağcakaya.,I.Kaya.Sürdürülebilir kalkınma ve yeşil ekonomi perspektifinden yeşil maliye politika uygulamaları. Çukurova Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi. Yıl: 2022 Cilt: 31 No: 2 Sayfa: 512-525.
8. Climate Watch Historical GHG Emissions (2022), Washington, DC: World Resources Institute.
9. O'zbekistonda yashil tiklanish va yashil iqtisodiyotga o'tish. Qisqacha sharx. https://www.undp.org/uz_green_recovery_UZ.pdf
10. UNIDO. (2011). Green Industry: Policies for Supporting Green Industry.
11. "IRENA World Energy Transitions Outlook" (2022). World Economic Forum.
12. International Energy Agency (IEA) (2022). "Skills Development and Inclusivity for Clean Energy Transitions".

OO'T

Malikov Tohir Sattorovich*Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti**"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası professori,**"Moliya" ilmiy maktabi rahbari,**iqtisod fanlari doktori, professor***MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR. NIMA ULAR? - 1**

XX asr oxirlari va XXI asr boshlariga kelib zamonamizning, tom ma'noda, tezlashib ketganligiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Hayotimiz shiddat bilan ilgariga odimlamoqda. Barcha jabhalarda o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ilm-fan ham yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda. Uning yutuqlari bilan baravar qadam tashlash va ular bilan hamohang bo'lishga ba'zan ulgurmay ham qolayapmiz. Bu barcha fanlarga - tegishli. Iqtisod (moliyaviy) fanlar(i) ham bundan mustasno emas...

Mana o'sha yangiliklarning ko'rinishlaridan biri: yaqindan boshlab iqtisod ilmining muhim qismlaridan biri bo'lgan moliyaviy ilmda ham, sira o'ylab o'tirmasdan, yangi bir atamadan keng foydalanishga kirishdik. U "moliyaviy texnologiyalar" deb atalmoqda. Bu atama ilmimizda, afsuski, ilmga zid ravishda o'z-o'zidan kirib keldi. Holbuki, hayotda va shu jumladan, ilmiy hayotda ham o'z-o'zidan hech narsa sodir bo'lmaydi. Uni shu tarzda talqin qilish esa, o'z navbatida, tabiat va jamiyat taraqqiyotining eng asosiy ob'ektiv qonun va kategoriyalarini inkor etish bilan - barobar: huda va behudaga qancha chiranmaylik buning aslo iloji yo'q.

Odatda, har qanday ilmda (moliyaviy ilmda ham - xuddi shunday) yangi bir atamaning ilmiy muomalada ilk yoki yangidan qo'llanilishi turli munozara, muhokama va shov-shuvlarga sabab bo'ladi. Shuningdek, u va uning muallifi oldin ming bir ilmiy chig'iriqdan o'tkaziladi, asoslar yetarli bo'lsa, so'ng ilm olamida "sayr

qilish" qilish uchun unga oq fotiha beriladi. Afsuski, "moliyaviy texnologiyalar" bularning baridan bebahra qoldi. U moliyaviy ilm-fanda muallifsiz kirib kelgan va kelayotgan atamadir. Uni ilmiy muomala (aylanma)da birinchi bo'lib kim kirit (ishlat)ganligi ma'lum emas. Zero, shunday da'vo bilan ilmiy sahnaga chiqqan mard oramizda yo'q. Shu bois, uning mazmun-mohiyatini talqin qilishda moliyaviy ilm ahli orasida ham "Har kallada - har xayol!" prinsipi ustuvorlik qilmoqda.

Hurfikrlilik yoki fikrlar xilma-xilligining o'ziga xos ifodasi bo'lgan bunday prinsipga ustuvorlik berishning ijobiy jihatlari ham bor, albatta. Zero, ular har qanday ilm-fan, shu jumladan, moliyaviy fanlarning ham taraqqiyotiga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, bu prinsipning bu joyda salbiy jihatlari ham yo'q emas. Ular, aksincha, har qanday ilm-fan va shu jumladan, moliyaviy fanlar taraqqiyotining kushandasiga aylanishi ham - turgan gap. Eng umumiy tarzda olib qaralganda esa, "Har kallada - har xayol!"ning ijobiy jihatlariidan ko'ra uning salbiy tomonlari ko'proq. Bu esa, o'z navbatida, biroz kech bo'lganligiga qaramasdan, "Hechdan ko'ra - kech!" ning afzalligidan kelib chiqib, muammoga aniqlik kiritishni taqozo etadi. Uni kun tartibidan olib tashl olmaydi. Va u dolzarbligacha qolaveradi. Shuning uchun biz ushbu maqolamiz doirasida masala (muammo)ni, avvalo, oddiy yoki soddada tarzda "Moliyaviy texnologiyalar. Nima ular?" shakl

va mazmunida qo'ymoqchimiz. So'ng esa unga shu tarzda javob berishga harakat qilamiz.

Dastlab shuni alohida qayd etish kerakki, garchi ba'zi hollarda bir-biridan ko'plab farq qiluvchi va boshqa holatda esa, aksincha, shuncha o'xshash jihatlari mavjud bo'lishiga qaramasdan, hammamiz nazarda tutayotgan narsalarni ifodalashga xizmat qilayotgan "moliyaviy texnologiyalar" murakkab atamadir. Uning murakkabligi, birinchi navbatda, bu atamani bir so'z bilan ifodalashning iloji yo'qligi bilan izohlanadi. Shuningdek, uning murakkabligi yana bu atamaning, asosan, ko'plikda ishlatilayotganligi bilan ham bog'liq. Haqiqatdan ham, "moliyaviy texnologiya" shaklida ijtimoiy-iqtisodiy-moliyaviy amaliyotda bu ibora kamdan-kam ishlatiladi. Nazarda tutilgan narsa yoki narsalar, voqelik, hodisa, jarayon va h.k.larni bir so'z bilan ifodalashning iloji bo'lmadimi, bilingki, bu uning murakkabligidan nishona, darakdir. Shunga mos ravishda, uni to'g'ri tushunish, idrok etish,... va qabul qilish ham murakkablashadi. Shunday bo'lsa-da, bizningcha, "Moliyaviy texnologiyalar. Nima ular?",- degan savolga to'g'ri javob berishning ishonarli va mantiqiy yo'li bor. Bu, eng avvalo, biz qo'llayotgan murakkab atamani ifodalashda foydalanilayotgan har bir o'zak so'zning ma'no-mazmuni va ular nimani ifodalashga qaratilganligiga jiddiy e'tibor berishdir. Ming afsuski, hatto ilmiy davralarda ham keyingi paytlarda masalaning bu jihatiga yetarlicha e'tibor berilmayotir. Natijada bir narsani turlicha va ba'zan qarama-qarshi ma'noda talqin qilish hollari ham sodir bo'layotirki, ularni har qanday ilm-fan taraqqiyotining kushandasi sifatida qarashga to'g'ri keladi, bizningcha.

"Moliyaviy texnologiyalar" deb nomlangan atamaning o'zidan ko'rinib turibdiki, u ikki mustaqil o'zak so'zlar majmuidan iborat. So'zlarning birinchisi "moliya" bo'lsa, ularning ikkinchisi "texnologiya"dir. Shuningdek, bu tanho va murakkab atamani ifodalashda "-viy" va "-lar" qo'shimcha-laridan ham foydalanilgan. Bu o'rinda "-viy" qo'shimchasi

qo'shilgan "moliya" so'zi, Ona tilimizning umume'tirof etilgan qoidasiga binoan, o'zidan keyin kelguvchi "texnologiya" so'zining qanday sifat va tavsifga ega ekanligini ko'rsatishga xizmat qiladi. "Texnologiya"ga qo'shilgan "-lar" qo'shimchasida ham bu yerda o'ziga xos ma'no-mazmun mujassam, nazarimizda. U bu so'zning o'z tabiati va asl mohiyatiga ko'ra ko'pincha va asosan ko'plikda ishlatilishi lozimligini ham anglatadi. Zero, "moliyaviy texnologiya" so'zi birlikdagi shakl va mazmunda kamdan-kam qo'llaniladi va u istisno tariqasida faqat ayrim o'rinlardagina (masalan, moliyaviy texnologiya-larning alohida bir turi yoki ko'rinishi haqida gap ketganda) shu ko'rinishda ishlatilishi mumkin, xolos.

Endi "Moliyaviy texnologiyalar. Nima ular?",- degan savolga javob berishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan har bir o'zak so'zning ma'no-mazmuni va ularning qanday mohiyatni ifodalashi mumkinligiga o'z e'tiborimizni qarataylik. Buning uchun fantaziyaga berilmaymiz. "Menimcha shunday bo'lsa kerak!",- degan quruq va asossiz tasdiqqa ham tayanmaymiz. Zero, bu so'zlarning asl o'zbekcha "variant"i va ularning qanday ma'noni anglatishi mumkinligi ilm-fanda allaqachon aniqlangan. Shuningdek, ularga qisqacha izoh "O'zbek tilining izohli lug'ati"da kelti (be)rilgan ham. Ana shu manbaga murojaat qiladigan bo'lsak, u holda "Moliyaviy texnologiyalar. Nima ular?",- degan savolning birlamchi eng sodda yoki oddiy javoblari shu yerda mujassam ekanligini aniqlash uncha katta aqlni talab etmaydi.

Ana shu manbada, dastlab, "texnologiya" yunoncha so'z bo'lib, "techné" - mahorat, san'at, "logos" - ta'limot ma'nosini anglatishi qayd etilgan (bu o'rinda "texnologiya"dan oldin nega "moliya"ga e'tibor bermaganligimiz izohga muhtoj bo'lmasa kerak). Shuningdek, unda: a) "ishlab chiqarishning biror-bir sohasida xomashyo, material, yarim fabrikat va shu kabilarga ishlov berish yoki qayta ishlash, ularning holati, xossalari va shaklini o'zgartirishda qo'llaniladigan usullar (metodlar)

majmui”; b) “xomashyo va materiallarga tegishli ishlab chiqarish qurollari yordamida ishlov berish usul va yo’llari haqidagi fan” (o’sha manbaning 81-beti), deya izoh-ta’rif ham berilgan. Bu berilgan izoh-ta’riflar, bizningcha, “Moliyaviy texnologiyalar. Nima ular?”, -degan savolning javobini topishda o’ziga xos fundament rolini o’ynashi kerak. Biroq, hatto sirtidan e’tibor berilganda ham, ushbu izoh-ta’rifning zamonaviy talablarga to’liq javob berolmasligi, uning, ma’lum ma’noda, hayotdan biroz ortda qolganligi (garchi “Lug’at” yaqinda yaratilgan bo’lishiga qaramasdan) va juda tor ma’noda qo’llanilayotganligi ma’lum bo’ladigandir. Zero, endi XXI asrning 1-choragiga kelib, “texnologiya”ga “ishlab chiqarishning biror-bir sohasida” yoki “xomashyo va materiallarga” nisbatan qo’llaniladigan “usullar (metodlar) majmui” yoki “usul va yo’llari haqidagi fan” sifatida qarash va uni aynan shu tarzda talqin qilish hayot ob’ektiv realligini o’zida aks ettirmaydi, fikrimizcha.

Bunday xulosaga kelishimiz asossiz, argumentatsiya qilinmagan yoki quruq tasdiq emas. U, yuqorida qayd etganimizdek, eng avvalo, hayot ob’ektiv realligidan kelib chiqadi. Chunki hozirgi paytda “texnologiya” atamasi faqat “ishlab chiqarishning biror-bir sohasida xomashyo, material, yarim fabrikat va shu kabilarga ishlov berish yoki qayta ishlash, ularning holati, xossalari va shaklini o’zgartirishda” yoki “xomashyo va materiallarga tegishli ishlab chiqarish qurollari yordamida ishlov berish”da qo’llaniladigan qolmasdan, balki bu atama kirib bormagan soha deyarli qolmadi hisob. Xususan, “ijtimoiy texnologiyalar”, “iqtisodiy texnologiyalar”, “siyosiy texnologiyalar”, “madaniy-ma’rifiy texnologiya-lar”, “pedagogik texnologiyalar”, “o’quv texnologiyalari”, “ilmiy texnologiyalari”, “tarbiyaviy texnologiyalar”, “saylov texnologiyalari”, “ishlab chiqarish texnologiyalari”, “qurilish texnologiyalari”, “muhandislik texnologiyalari” va h.k.lar shular jumlasidandir. Umuman olganda, hatto oddiy o’zaro munosabatlarda ham “texnologiya” so’zini ishlatish, o’ziga xos, “moda” ko’rinishini

oldi, desak ham xato qilmagan bo’lamiz. Bularning barchasi esa, o’z navbatida, endi “texnologiya” atamasini yuqoridagi “Lug’at”da keltirilganidek tor ma’noda emas, balki keng ma’noda talqin qilinayotganligidan darakdir. U endi hayotning barcha jabhalarida qo’llaniladigan “usullar (metodlar) majmui”dan iborat bo’lishi mumkin va unga xuddi shunday jabhalarda o’zini namoyon etadigan “usul va yo’llar haqidagi fan” sifatida qarash kerak.

Yuqoridagi mantiqiy mulohazalar “moliyaviy texnologiyalar” deyil-ganda, eng umumiy ko’rinishda, u yoki bu ko’rinishdagi moliyaviy munosabat-larni amalga oshirishda qo’llanilishi mumkin bo’lgan usul (metod)lar majmui tushunilishi kerak degan navbatdagi mantiqiy xulosani chiqarishga imkon beradi. Ana shuni hisobga olgan holda “Moliyaviy texnologiyalar. Nima ular?” deyilgan savolga quyidagi sodda, oddiy va bir paytning o’zida eng umumiy bo’lgan tarif bilan javob berish mumkin: Moliyaviy munosabatlarni tashkil etish va amalga oshirishda qo’llaniladigan usul (metod)lar majmui moliyaviy texnologiyalar deyiladi.

Mantiqan moliyaviy texnologiyalar umumiy hayotiy texnologiyalarning bir qismi hisoblanadi. Ular o’z qo’llanilish soha (chegara)siga ega. Bu soha (chegara) moliyaviy munosabatlarni o’z ichiga qamrab oladi. Moliyaviy texnologiyalar moliyaviy munosabatlar doira (chegara)sida qo’llaniladi va ularni amalga oshirish jarayoniga xizmat qiladi. Moliyaviy munosabat-larning qay darajada samaradorligini belgilab berishda qanday moliyaviy texnologiyalarning qo’llanilganligi muhim ahamiyatga ega. Ular moliyaviy munosabatlarning taraqqiy etib, tobora takomillashib, zamonaviylashib va davr chaqirig’iga o’z vaqtida javob berib borishiga o’zining munosib hissasini qo’shishi mumkin. U yoki bu ko’rinishdagi moliyaviy munosabatlar hayotiychanligini belgilab berishda ham qo’llanilgan moliyaviy texnologiyalar asosiy rolni o’ynaydi.

Boshqa bir tomondan olib qaraganda esa, moliyaviy texnologiyalar pul mablag’lari yoki

pul oqimlarining harakatlanishiga xizmat qiladi va shularga qaratilgan bo'ladi. Shu ma'noda pul mablag'lari yoki moliyaviy resurslarning bir iqtisodiy sub'ektdan ikkinchi bir iqtisodiy sub'ektga oqib o'tishi ham turli moliyaviy texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi.

“Moliyaviy texnologiyalar. Nima ular?” tarzida ifodalangan sarlavhaga nisbatan qarashlarimiz, hozircha, ana shu

yuqoridagilardan iborat. Biroq, ular dastlabki qarash bo'lib, yuqoridagi sarlavhani batafsilroq yoritish uchun yetarli deb hisoblanishi mumkin emas. Sarlavhaning bu shakl va mazmunda qo'yilishi, shuningdek, ularning tur, shakl yoki ko'rinishlari to'g'risida ham aniq tasavvurga ega bo'lishni taqozo etadi. Bular esa, o'z navbatida, ushbu mavzuga bag'ishlangan navbatdagi maqolamiz predmeti hisoblanadi.

UO‘T 33 M

Alimardonov Elshod Dilshodovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Xalqaro moliya” kafedrası professori —

YEVROPA ITTIFOQIDA YEVROBOZORNING SHAKLLANISHI VA MOLIYAVIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIGA TA’SIRI

Alimardonov Elshod Dilshodovich
*Professor of the “International
Finance” Department at Tashkent
State University of Economics*

THE FORMATION OF THE EURODOLLAR MARKET (EUROMARKET) AND ITS IMPACT ON FINANCIAL INTEGRATION PROCESSES IN THE EU

Алимардонов Элшод Дилшодович
*Профессор кафедры «Международные
финансы» Ташкентского государственного
экономического университета*

ФОРМИРОВАНИЕ ЕВРОРЫНКА В ЕВРОПЕЙСКОМ СОЮЗЕ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ФИНАНСОВУЮ ИНТЕГРАЦИЮ

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon ssuda kapitallari bozorida yevrobozorning o‘rni, Yevropa Ittifoqida yagona moliyaviy muhit va bozor shakllanishini ta’minlagan asosiy shart-sharoitlar, tamoyillar, undagi asosiy zamonaviy tendentsiyalar, yevrobozorning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan, shuningdek, mazkur bozorda olib borilgan tadqiqot natijalari asosida mamlakatimiz moliya bozorini barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: Ssuda kapitallari bozori; yevrobozor; yevrovalyuta; yevrokredit; moliyaviy innovatsiya; qimmatli qog‘ozlar; yevrolist, xalqaro kapital bozori ishtirokchilari assotsiatsiyasi.

Abstract: This article describes main current trends and features of the Eurodollar market, the basic terms and principles providing the formation of a single market and the financial sector in the European Union, in addition, on the basis of result of research in this market given practical recommendations and scientific proposals for the sustainable development of the national financial market.

Keywords: money and loan market, euromarket, eurocurrency, euroloan, financial innovation, securities, eurosheet, International Capital Marke’t Association.

Аннотация: В данной статье описаны основные современные тенденции и особенности еврорынка, основные условия и принципы, обеспечивающие формирование

этого рынка и единой финансовой сферы в Евросоюзе, кроме того, на основе результатов, проведенных научных исследований этого рынка даны практические рекомендации и научные предложения по стабильному развитию национального финансового рынка.

Ключевые слова: рынок ссудных капиталов, евторынок, евровалюта, еврокредит, финансовая инновация, ценные бумаги, евролист, Ассоциация международного капитального рынка..

KIRISH

Xalqaro ssuda kapitallari bozorida yevrobozor o'zining hajmi, ko'lami, erkinligi, moliyaviy innovatsiyalar yuzaga kelishiga yaratilgan shart-sharoitlari, bozor ishtirokchilari uchun qulayliklarning ko'pligi bilan muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, u jahon bo'ylab moliyaviy resurslarni samarali qayta taqsimlash imkonini beradi, tashqi to'lovlar muvozanati buzilganda yuzaga keluvchi muammolarni bartaraf etishning yangicha yo'llarini, iqtisodiy agentlarga risklardan himoyalaniish uchun muhim vositalarni taqdim etadi, jahon moliya bozorida raqobatni kuchaytirib, moliya-kredit muassasalari ko'rsatadigan xizmatlar sifatining ortishiga va qiymatini kamaytirishga turtki beradi. Yevrobozorning rivojlanishi va global moliyaviy integratsiya jahon iqtisodiyotining taraqqiyoti uchun ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim elementlardan sanaladi. Hozirgi kunda jahon yevrobozorining asosini London, Tsyurix, Frankfurt-Mayn, Parij shaharlari tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida 2030-yilgacha erishiladigan 92-maqсадning samaradorlik ko'rsatkichi sifatida "Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni rivojlantirish, keng ko'lamli sheriklik va amaliy hamkorlikning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash" belgilangan [1]. Bu esa, Yevropa moliyaviy bozorlariga xos

rivojlanishning zamonaviy tendensiyalarini o'rganishni taqozo qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Marsel Fratzsger Yevropada moliya bozori integratsiyasi - Iqtisodiy va valyuta ittifoqi (Economic and Monetary Union, EMU)ning qimmatli qog'ozlar bozorlariga ta'sirini ilmiy tadqiq etgan. Unda, u 1980 yillardan beri Yevropa qimmatli qog'ozlar bozorlarining integratsiya jarayonini tahlil qiladi. Uning asosiy e'tibori EMU, xususan, valyuta kursining o'zgaruvchanligi moliyaviy integratsiya jarayoniga ta'siriga qaratilgan. Moliyaviy integratsiyani o'lchash uchun foiz stavkalari pariteti shartiga asoslanib, vaqt bo'yicha o'zgaruvchan koeffitsientlarga ega GARCH modeli bo'yicha uchta asosiy natijani olgan. Birinchidan, Yevropa qimmatli qog'ozlar bozorlari faqat 1996 yildan boshlab yuqori darajada integratsiyalashgan. Ikkinchidan, yevrohudud bozori jahon moliya bozorlarida sezilarli ahamiyat kasb etib, Yevropada hukmron bozor AQShdan yevrohududga o'tgan. Uchinchidan, Yevropa qimmatli qog'ozlar bozorlarining integratsiyasi ko'p jihatdan EMUga intilish, xususan, valyuta kursining o'zgaruvchanligi va pul unifikatsiyasi jarayonida noaniqlikni bartaraf etishga qaratilganligi aniqlangan. [2]

Afzol Husayn, Sitara Karim, Ahmet Sensoy tomonlaridan moliyaviy uyg'unlik: Yevropa fond bozorida islom va yashil investitsiyalarni birlashtirish o'rganilgan bo'lib, islom va yashil moliyaviy vositalarning an'anaviy moliya bozorlari

bilan ajralib turishini hisobga olgan holda, o'sib borayotgan noaniqliklar sharoitida Yevropa moliya bozorining yashil va islomiy moliyaviy vositalar bilan o'zaro bog'liqligini ilmiy asoslangan xulosalar chiqarilgan. [3]

Giuliana Birindelli, Helen Chiappini, Raja Nabil-ud-Din Jalol tadqiqotlarida Barqaror moliyani oshkor qilish tartibi (the Sustainable Finance Disclosure Regulation, SFDR), investor e'tibori va Yevropa moliya bozorlari holati o'rganilgan. Unda 2019–2022 yillar davomida Barqaror moliyani oshkor qilish tartibiga investorlarning e'tibori, ya'ni Yevropa moliya bozorlarida ushbu tartib yetakchilik qiladimi yoki yo'qligi tahlil qilingan. Investor moliyaviy bozorlarda, asosan pasayish va normal bozor sharoitlarida kuchli bashorat qilish imkoniyatiga ega ekanligi ko'rsatilgan. [4]

Krina Pungulesku Evropa Ittifoqi (EI)da moliyaviy bozor integratsiyasini o'lchashga uringan. Unda EI 15 va yangi a'zo davlatlar va rivojlanayotgan bozorlar sharhlar ko'rib chiqilgan. U kredit va obligatsiyalar bozori ko'rsatkichlari, fond bozori ko'rsatkichlari, shuningdek, uy xo'jaliklari va firma qarorlariga asoslangan ko'rsatkichlardan foydalangan holda Yevropa Ittifoqidagi moliyaviy bozor integratsiyasi miqdoriy tavsiflangan. Shuningdek, sharqiy kengayish (EI 15) oldidan Yevropa Ittifoqi evolyutsiyasi 2000 yildan keyin qo'shilgan 12 ta yangi a'zo davlat (New Member States (NMS)) bilan solishtirilgan [5].

Marisika Moskalu, Klaudiya Jirardone, Raffaella Kalabreze hammuallifligida yevro hududida bank bozorlarining integratsiyasi va moliyaviy cheklovlar sharoitida kichik va o'rta korxonalarning o'sishi tadqiq etilgan. Ular izlanishlari moliyalashtirish cheklovlari kichik va o'rta biznesni o'sishiga to'squinlik qilishini, boshqa tomondan, yevro hududida bank bozorlari integratsiyalashuvining kuchayishi kichik va o'rta biznesni o'sishi rag'batlantirishini ko'rsatgan [6].

Sonia Kumari Selvarajan va Rossazana Ab-Rahim o'z ilmiy izlanishlarida moliyaviy integratsiya va iqtisodiy o'sishni o'rgangan holda Osiyo Yevropaga taqlid qilishi kerakmi degan savolga javob qidirishgan. 1997–1998 yillardagi Osiyo moliyaviy inqirozi Osiyo mamlakatlari o'rtasida mintaqaviy hamkorlikka harakat qilish uchun katalizator bo'lgani, rasmiylarning ehtiyotkorlik bilan yondashishi, mamlakatlararo kapital bozorlari likvidligi va moliyaviy iqtisodiy barqarorlik o'rtasida o'zaro kelishuv mavjud ekanini ko'rsatilgan. Osiyoda moliyaviy integratsiya va iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi moliyaviy inqirozdan oldingi (1980 - 1995) va inqirozdan keyingi (1998 - 2015) yillarda, shuningdek, butun o'rganish davrida (1980 - 2015) tadqiq etilgan. Osiyodagi har bir mamlakat o'zining turli xil xususiyatlari va moliyaviy integratsiyasini Yevropa Ittifoqi ilg'or tajribalaridan foydalangan holda shakllantirishi lozimligini ko'rsatilgan. [7].

K. Smimou V. Xallouli o'z ilmiy ishlarida fond bozori likvidligi va biznes sikli o'rtasidagi dinamik munosabatlarga yevro ta'sirini o'rganagan. Ular Yevrozoning o'nta mamlakati va Buyuk Britaniya ma'lumotlaridan foydalangan holda tahlilni amalga oshirgan. Natijada, Yevropada (Portugaliyadan tashqari) yevro joriy etilganidan so'ng likvidlik sezilarli darajada oshganligini va bu barcha mamlakatlarda yuqori o'sish bilan mos kelishini aniqlashgan. [8]

Mixay Nishoi, Mariya Miruna Pochea ilmiy tadqiqotlarida Markaziy va Sharqiy Yevropada moliyaviy bozorlarning yaqinlashuvini chiziqli bo'lmagan yagona omil modeli orqali tekshirgan, o'rgangan. Xususan, maqolada Yevropa Ittifoqi (EI) a'zolari bo'lgan Markaziy va Sharqiy Yevropa (CEE) mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy yaqinlashuv ko'rib chiqilgan. Ushbu moliyaviy bozorlarning konvergensiya (yaqinlashuv) dinamikasini

o'rganish uchun vaqt bo'yicha o'zgarishni inobatga olmaydigan faktorlar (omillar) modeli qo'llaniladigan Phillips va Sul (2007) metodologiyasidan foydalanilgan. Tahlillar natijasida, Markaziy va Sharqiy Yevropa (CEE) mamlakatlari moliya bozorlari rivojlanishida katta tafovut mavjudligi, ushbu tafovutni bartaraf etish, moliyaviy yaqinlashuvga erishish uchun tarkibiy islohotlarni amalga oshirishlari kerakligi aniqlangan. [9]

Nikolay Apergis, Kristina Kristu, Iason Kynigakis hammuallifligida kredit defolt svoplar (credit default swaps, CDS) bozorida olingan dalillar orqali AQSh va Yevropa moliya bozorlaridagi beqarorlikning bog'liqligi o'rganilgan. Yevropa va AQSh moliya bozorlarida so'nggi global moliyaviy inqiroz paytida beqarorlikning bog'liqligi sodir bo'lgan-bo'lmaganligini o'rgangan. Bog'liqlikni tekshirish uchun korrelyatsiya, koskevness (coskewness), kokurtoz (cokurtosis), kovolatilik (covolatility)dagi o'zgarishlarga asoslangan metodologiyalardan foydalanilgan. Ushbu o'rganishlar bank sektoridagi CDS, sug'urta sektoridagi CDS, suveren obligatsiyalar, kapital va o'zgaruvchan indekslar to'plamlariga nisbatan qo'llanilgan. [10]

Jussi Nikkinen, Vanja Piljak, Timo Rothovius tomonidan 2008-2009 yillardagi moliyaviy inqirozning Yevropa chegarasidagi fond bozorlarining tashqi va ichki aloqalariga ta'sirini tadqiq qilgan. Xususan, Yevropa chegarasidagi fond bozorlarining (Xorvatiya, Estoniya, Ruminiya, Slovakiya va Sloveniya) rivojlangan qimmatli qog'ozlar bozorlari (AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya) bilan tashqi aloqalariga ta'siri va chegaraviy bozorlaridagi ichki aloqalar o'rganilgan. Natijalar, inqiroz davrida uzoq va qisqa muddatli tashqi aloqalar mustahkamlanganligini ko'rsatadi. Ichki aloqalarni tahlili faqat Xorvatiya va Sloveniya bozorlari o'rtasidagi kuchli

munosabatlarni ko'rsatadi. Biroq, guruhdagi boshqa chegaraviy bozorlar zaif bog'langan, bu esa Yevropa chegarasidagi fond bozorlari inqiroz davrida diversifikatsiya qilish uchun yaxshi alternativ manba bo'lishi mumkinligi aniqlangan. [11]

Wojciech Grabowski, Jakub Janus, Ewa Stawasz-Grabowska tomonidan Markaziy Yevropadagi COVID-19 pandemiyasi va moliyaviy bozorlar: makroiqtisodiy choralar va xalqaro siyosatning tarqalishi ilmiy tadqiq qilingan. Unda, Markaziy Yevropaning uchta iqtisodiyoti: Chexiya, Vengriya va Polshada (Central Europe, CE-3) makroiqtisodiy siyosatning moliyaviy bozorlarga ta'sirini o'rganilgan. 2020-yilning martidan dekabrigacha COVID-19 pandemiyasi davrida amalga oshirilgan misli ko'rilmagan barqarorlashtirish siyosatiga, jumladan, noan'anaviy pul-kredit choralari va yirik rag'batlantirish dasturlariga e'tibor qaratilgan. Umuman olganda, CE-3 mamlakatlarida amalga oshirilgan makroiqtisodiy siyosat chora-tadbirlari pandemiya davrida moliya bozorlarini barqarorlashtirishda muhim rol o'ynagani aniqlangan. Pul-kredit siyosatining 10 yillik suveren obligatsiyalar daromadlariga ta'siri fond bozori daromadlari va valyuta kursi daromadlariga qaraganda ancha sezilarli bo'lgan. [12]

Shihong Zeng, Jingmin Jia, Bin Su, Chunxia Jiang, Guowang Zeng Yevropa Ittifoqi (Yevropa Ittifoqi) uglerod moliya bozori o'zgaruvchanligining tarqalishi holatini o'rgangan. Tadqiqot investorlar va uglerod bozori menejerlariga Yevropa Ittifoqi imtiyozlari (European Union allowance (EUA)) va sertifikatlangan emissiyalarni qisqartirish (certified emissions reduction (CER)) bozorlari o'rtasidagi ma'lumotlar va risklarni uzatish mexanizmini yanada to'liqroq tushunishga yordam beradi, shu bilan ularga investitsiya qarorlarini qabul qilish va siyosatni shakllantirish uchun asos yaratadi. [13]

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mavzuni ilmiy o'rganish, tahlil va tadqiq etish jarayonida induksiya va deduktsiya, tizimli tahlil, statistik tahlil va ilmiy abstraktsiya kabi usullaridan atroflicha foydalanilgan. Maqolada, ilmiy abstraktsiya usulidan foydalanish zahirida Yevropa Ittifoqida moliyaviy integratsiya sharoitida yevrobozorning shakllanishi yuzasidan xulosalar chiqarildi va ularga mos ravishda mamlakatimiz moliya bozorini barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berildi.

NATIJA VA MUHOKAMA


Tadqiqotlarimizning ko'rsatishicha, jahon ssuda kapitallari bozorida yevrobozor o'zining yevrovalyuta, o'rta va uzoq muddatli yevrokreditlar bozorlari bilan namoyon bo'ladi (1-rasmga qarang).

Dastlabki yevrodollarlar 1950-yillarning oxirida xalqaro banklararo vakillik munosabatlari negizida, ya'ni AQSh dollaridagi depozit egasi o'z depozitini Amerika bankidan xorijiy bankka o'tkazsa, amaliyotda yevrodollarlar paydo bo'lgan. AQSh dollarining yevrodollarga aylanish xususiyati xorijiy banklarga qo'yilgan AQSh dollaridagi depozitlardan AQShdan boshqa barcha mamlakatlarda kredit resursi sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. 1960-yillardan boshlab yevrovalyuta bozori o'z tarkibiga AQSh dollaridan tashqari jahon iqtisodiyotida yetakchi bo'lgan mamlakatlarning valyutalarini ham oldi.

Fikrimizcha, yevrovalyuta bozori quyidagi omillar asosida rivojlangan:

- AQSh tomonidan II jahon urushidan keyingi iqtisodiy holatni tiklash va mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida Yevropa va jahonning boshqa hududlariga katta miqdordagi xalqaro kreditlarning taqdim etilishi hisobiga Yevropa mamlakatlari to'lov balansida

ijobiy qoldiqning ortishi va hududda yevrodollarlarning ko'payishi;



1-rasm. Jahon ssuda kapitallari bozorida yevrobozorning namoyon bo'lish shakllari¹

- AQShda 1957 yilda foiz stavkalarining tushishi hisobiga talab qilib olinguncha va 30 kunlik depozitlar bo'yicha foizlar to'lashning to'xtatilishi natijasida, ko'plab investorlar o'zlarining AQSh dollaridagi mablag'larini xorijiy mamlakatlar banklariga joylashtirishni afzal bilishi, shuningdek, Buyuk Britaniya o'z to'lov balansining holatini yaxshilash maqsadida norezidentlarga funt sterlingda qarz berish ustidan qattiq nazorat o'rnatishi oqibatida Britaniya banklari tomonidan AQSh dollarida biznesni moliyalashtirish amaliyotining kuchayishi;

- 1950–1960-yillarda jahondagi yetakchi valyutalar erkin konvertatsiyasining amaliyotga joriy etilishi, mamlakatlar milliy qonunchiligining erkinlashtirilishi hisobiga mahalliy banklar va firmalarning foyda olish maqsadida o'z mablag'larini xorijiy banklarga joylashtirishining rag'batlantirilishi;

- 1970-yillarda neft mahsulotlari narxining ortishi natijasida jahondagi neft ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi mamlakatlarda katta miqdordagi AQSh dollarlarining to'planishi va ularning yevrobozorga depozit sifatida joylashtirilishi;

- 1981-yilda New-Yorkda erkin bank zonasining tashkil etilishi, ya'ni norezidentlar bilan bank operatsiyalari rejimi yoki tartibi yevrovalyuta bitimlarini amalga oshirish

¹ ECB Economic Bulletin, Issue 7-8 / 2016-2024 – Statistics – ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

tartibi bilan qariyb bir xil boʻlgan rejimning paydo boʻlishi hisobiga yevrodollar bozori tarkibiga AQShning ham qoʻshilishi;

– tashqi iqtisodiy faoliyatda xalqaro valyuta-kredit xizmatlarini koʻrsatish turlarini oshirishga boʻlgan ehtiyoj.

Bugungi kunda, “yevrovalyuta” atamasi Osiyo mintaqasida foydalaniladigan AQSh dollarlari (Osiyo dollari), arab mamlakatlarida

ishlatiladigan AQSh dollarlari (arab mamlakatlari dollari), neft mahsulotlari savdosida foydalaniladigan AQSh dollarlari (neft dollarlari)ga nisbatan ham qoʻllaniladi.

Tadqiqotlarimizning koʻrsatishicha, yevropa moliya bozori rivojlanishining asosiy zamonaviy tendentsiyalari quyidagilarda namoyon boʻlmoqda (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Yevropa moliya bozori rivojlanishi hajmi (mlrd. yevroda)²

Yillar	YalM (joriy narxlarda)	Qarz qimmatli qogʻozlar	Listingdagi aksiyalar	Kredit - qarzlar (loans)	Toʻlov balansining moliyaviy hisobi			Yalpi tashqi qarz
					Aktivlar	Majburiyatlar	Sof qoldiq	
2015	10 534,20	16 518,80	6 814,40	11624,70	22 235,20	23 309,60	-1 074,40	13 003,10
2016	10 817,00	16 613,80	7 089,50	11791,70	23 982,90	24 780,00	-797,10	13 782,10
2017	11 216,70	16 593,20	7 950,70	11905,10	24 835,50	25 544,20	-708,70	13 898,70
2018	11 600,20	16 962,70	7 023,40	12130,00	25 399,70	25 891,30	-491,60	14 197,40
2019	11 986,30	17 598,10	8 586,60	12431,00	27 826,30	27 882,00	-55,70	14 759,20
2020	11 456,50	20 999,40	8 500,90	12913,70	28 366,30	28 991,00	-624,70	14 854,70
2021	12 577,50	21 327,50	10 357,60	13 334,80	32 242,90	32 211,00	31,90	15 928,90
2022	13 652,20	19 247,60	8 701,90	13 994,80	31 081,70	30 739,00	342,70	15 753,90
2023	14 499,90	21 067,60	9 675,20	14 031,70	32 517,90	31 962,80	555,10	16 156,20
2024 (yarim yillik)	7456,4	22 142,30	10 413,80	14 115,40	34 349,20	33 170,40	1 178,80	16 520,40

² ECB Economic Bulletin, Issue 7-8 / 2016-2024 – Statistics – maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yevrozona YaIMga nisbatan moliya bozori ko'lam 2015-2024 yillar davriy oralig'idagi statistik tahlil natijalariga asoslanib, qariyb 330 foizni tashkil etmoqda. Shundan 150 foizdan ko'prog'i qarz qimmatli qog'ozlar muomalasiga, qariyb 70 foizi listingdagi aksiyalar aylanmasiga, 100 foizdan ortig'i kredit- qarzlar (loans) ga to'g'ri kelmoqda. Yalpi tashqi qarz hajmi Yevrozona YaIMga nisbatan ushbu davriy oraliqda o'rtacha 120 foizdan oshmoqda. Yevrozona mamlakatlari to'lov balansining moliyaviy hisobi tahlili ko'rsatishicha oxirgi uch yilda YaIMga nisbatan 3-4 foiz miqdorida ijobiy qoldiq bilan chiqmoqda, to'lov balansining aktivlari va majburiyatlari alohida-alohida o'rtacha hisoblaganda YaIMga nisbatan 230 foizni tashkil etmoqda.

Tadqiqotlarimiz natijasida aniqlandiki, yevrovalyuta bozorining xududiy va milliy bozorlardan ajralib turuvchi o'ziga xos xususiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ularda xalqaro hisob-kitob birliklari (xususan, SDR, yevro, AQSh dollari) va erkin ayriboshlanadigan valyutalarda yirik miqdordagi moliyaviy resurslar aylanmasi amalga oshiriladi.

- valyuta-kredit operatsiyalarining universallashtirish sodir bo'ladi;

- yevrobozorda amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalarda eng ilg'or va zamonaviy aloqa hamda kommunikatsiya vositalaridan foydalaniladi. Bitimlarni amalga oshirishda kafolatni kontragent bankining maqomi, bozordagi o'rni, obro'si yoki tomonlarning xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan yuqori reyting (AAA) ko'rsatkichlari beradi;

- ushbu bozorda kichik va o'rta darajadagi qarz oluvchilarning ishtiroki cheklangan;

- yevrobozorning institutsional asosini ko'plab mamlakatlarda o'zining filiallari bilan turli moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi transmilliy banklar (TMB) tashkil etadi.

- yevrovalyutadagi operatsiyalarning milliy valyutadagi operatsiyalarga nisbatan daromadlilikining yuqoriligi. Xususan, turli davlatlar bilan taqqoslanganda, yevrodepozitlar bo'yicha foiz stavkalari yuqori, yevrokreditlar bo'yicha foiz stavkalari esa past bo'ladi. Chunki yevrobozor jahonda kreditlarning ulgurji bozori hisoblanadi, yevrodepozitlar bo'yicha ma'lum bir markaziy bankda majburiy zaxiralash tizimi amalga oshirilmaydi, mazkur bozordagi operatsiyalar ma'lum bir davlatning soliq yoki valyutani tartibga solish tizimi ostida amalga oshirilmaydi.

Yevrobozordagi operatsiyalarning bir qator turlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Xususan, kreditlarni taqdim etish, qisqa muddatli bitimlar, yevroobligatsiyalarni chiqarish va h.k.

Yevropa Ittifoqida bosqichma-bosqich yagona Yevropa fond bozori shakllangan bo'lib, bunda fikrimizcha, Yevropa Ittifoqida joriy etilgan quyidagi tamoyillar asosiy rol o'ynagan:

- bank faoliyatini unifikatsiyalashga ruxsat berish;

- o'zaro axborot almashinishini va tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish;

- bozor ishtirokchilarini mamlakatlarga qarashlilik bo'yicha nazorat qilish;

- birjalararo axborot almashishning yagona tizimi yaratilishi.

Natijada, Yevropa Ittifoqidagi har qanday korxona ushbu hududda qimmatli qog'ozlarni erkin sotib olish yoki sotish, brokerlar esa mazkur hududda joylashgan birjalarda erkin faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Shuningdek, hududdagi fond birjalarining kapitallashuv darajasi oshdi va qimmatli qog'ozlar bo'yicha birjadan tashqari savdolarida raqobat muhiti kuchaydi.

Tadqiqotlarimiz ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqida fond bozorlarini unifikatsiyalashda, 1968 yilda yevroobligatsiyalar savdosi bo'yicha "Euroclear" kliring markazini, 1969 yilda esa yevroobligatsiyalarning ikkilamchi

bozoridagi tashkiliy texnik muammolarni bartaraf etish maqsadida xalqaro obligatsiyalar bo'yicha dillerlar assotsiatsiyasi (Association of International Bond Dealers) ni, 1970 yilda esa "Euroclear"ning asosiy raqobatchisi bo'lgan CEDEL (hozirgi CLEARSTREAM) ning tashkil etilishi, 1990 yildan hududdagi birinchi darajali kompaniyalarning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari birjalarida kotirovka qilingan qimmatli qog'ozlarining baholarini o'zida aks ettiruvchi Yevropa kotirovkalari - "Yevrolist"ning joriy etilishi va Yevropa Ittifoqi birjalari federatsiyasining tashkil topishi asosiy rol o'ynagan. Xalqaro obligatsiyalar bo'yicha dillerlar assotsiatsiyasi (Association of International Bond Dealers) 1991 yilda Xalqaro fond bozori ishtirokchilari assotsiatsiyasi (International Securities Markets Association – ISMA) ga, 2005 yilda esa Xalqaro kapital bozori ishtirokchilari assotsiatsiyasi (International Capital Market Association – ICMA)ga aylantirilgan. [16]

Shuningdek, Yevropa Ittifoqida yagona moliyaviy muhitni shakllantirish uchun mamlakatlar moliya bozorlaridagi, xususan, milliy fond bozorlariga xos bo'lgan quyidagi asosiy farqlar bosqichma-bosqich bartaraf etib borildi:

- birja operatsiyalarini milliy doirada tartibga solish (qimmatli qog'ozlarni birja savdolariga qo'yishga ruxsat berish, axborotlar oshkor etishga bo'lgan talablar va h.k.);

- birjalarning operatsiyalar hajmi va milliy iqtisodiyotdagi roli;

- qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi institutsional investorlar, ya'ni sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari, investitsiya fondlari, banklarning fond bozoridagi roli va o'zni bilan bog'liq farqlar.

Yevropa Ittifoqida yagona fond bozori tarkiban aktsiyalar, obligatsiyalar, davlat qimmatli qog'ozlari va hosila moliyaviy

vositalar bilan operatsiyalarga ixtisoslashgan, hamkorlikda yangi tashkil etilgan qo'shma birjalar va qator boshqa segmentlarni o'z ichiga oladi.

Fikrimizcha, Yevropada tashkil etilgan yagona ssuda kapitallari va qimmatli qog'ozlar bozorlari Yevropa iqtisodiy integratsiyasini tashkil etishda asosiy rol o'ynagan.

Hozirda jahon fond bozorlari infratuzilmasida quyidagi asosiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Birinchidan, savdolariga xorijliklar ishtirok etishi uchun ularga alohida savdo maydonchalari tashkil etilmoqda. Ikkinchidan, jahon qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning roli boshqa moliyaviy vositachilar hisobiga qisqarayotgan bo'lsa-da, ular birjalarning ish vaqtlari tugab yopilganda, savdolar uzluksizligini ta'minlovchi va anonim ravishda qimmatli qog'ozlar kotirovkasini amalga oshiruvchi xususiy elektron brokerlik tizimlarini hamda moliyaviy vositalarning yangi turlarini yaratishmoqda.

XULOSA

Amalga oshirilgan iqtisodiy tahlil natijalaridan kelib chiqib, bizningcha, mamlakatimiz moliya bozorini barqaror rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni ishlab chiqishda quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiq:

- mamlakatning xalqaro moliyaviy raqobatbardoshligini oshirish maqsadida moliya bozorida faoliyat yurituvchi birjalar faoliyatini unifikatsiyalash, moliya bank tizimida operatsion risklarni baholash metodologiyasini ishlab chiqish, kredit institutlarining likvidligini va kapitallashuvini oshirishga qaratilgan vositalarni ko'paytirish zarur;

- milliy moliya bozorini yanada liberallashtirish va unda raqamli va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish shart-sharoitlarini ko'paytirish maqsadga muvofiq;

– mamlakatimizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kirib kelishini jadallashtirish maqsadida xalqaro reyting agentliklari tomonidan beriladigan mamlakatning yuqori darajadagi xalqaro investitsion reytingi, ya’ni suveren kredit reytingini oshirish lozim;

– xalqaro moliyaviy faoliyatdan ko‘riladigan zararlarni sug‘urtalash va valyuta

munosabatlari mexanizmini takomillashtirish kerak.

Xulosa qilib aytganda, jahon iqtisodiyotida yevrobozor moliyaviy resurslarning erkin harakatini ta’minlaydi, ularni samarali taqsimlaydi, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirib, xalqaro moliya bozorini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Marcel fratzscher. Financial market integration in Europe: on the effects of EMU on stock markets. Working paper No. 48. March 2001. <https://www.ecb.europa.eu/pub/pdf/scpwps/ecbwp048.pdf>
3. Afzol Husain, Sitara Karim, Ahmet Sensoy. Financial fusion: Bridging Islamic and Green investments in the European stock market. International Review of Financial Analysis. Volume 94, July 2024, 103341. <https://www.sciencedirect.com>
4. Giuliana Birindelli, Helen Chiappini, Raja Nabeel-Ud-Din Jalal. SFDR, investor attention, and European financial markets. Finance Research Letters. Volume 56, September 2023, 104135. <https://www.sciencedirect.com>
5. Crina Pungulescu. Measuring financial market integration in the European Union: EU15 vs. New Member States. Emerging Markets Review. Volume 17, December 2013, Pages 106-124. <https://www.sciencedirect.com>
6. Maricica Moscalu, Claudia Girardone, Raffaella Calabrese. SMEs’ growth under financing constraints and banking markets integration in the euro area. Journal of Small Business Management. Volume 58, 2020 - Issue 4. <https://www.tandfonline.com/>
7. Sonia Kumari Selvarajan, Rossazana Ab-Rahim. Financial Integration and Economic Growth: Should Asia Emulate Europe?. The Journal of Economic Integration 2020 March;35(1) :191-213. <https://www.e-jei.org/journal/view.php?doi=10.11130/jei.2020.35.1.191>
8. K. Smimou, W. Khallouli. Does the Euro affect the dynamic relation between stock market liquidity and the business cycle? Emerging Markets Review. Volume 25, December 2015, Pages 125-153. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1566014115000436>
9. Mihai Nițoi, Maria Miruna Pochea. Testing financial markets convergence in Central and Eastern Europe: A non-linear single factor model. Economic Systems. Volume 40, Issue 2, June 2016, Pages 323-334. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0939362516300334>
10. Nicholas Apergis, Christina Christou, Iason Kynigakis. Contagion across US and European financial markets: Evidence from the CDS markets. Journal of International Money and Finance. Volume 96, September 2019, Pages 1-12. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0261560619302384>

11. Jussi Nikkinen, Vanja Piljak, Timo Rothovius. Impact of the 2008–2009 financial crisis on the external and internal linkages of European frontier stock markets. *Global Finance Journal*. Volume 46, November 2020, 100481. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1044028318302114>
12. Wojciech Grabowski, Jakub Janus, Ewa Stawasz-Grabowska. The COVID-19 pandemic and financial markets in Central Europe: Macroeconomic measures and international policy spillovers. *Emerging Markets Review*. Volume 54, March 2023, 100991.
13. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S156601412200108X>
14. Shihong Zeng, Jingmin Jia, Bin Su, Chunxia Jiang, Guowang Zeng. The volatility spillover effect of the European Union (EU) carbon financial market. *Journal of Cleaner Production*. Volume 282, 1 February 2021, 124394. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0959652620344395>
15. <https://www.sciencedirect.com> rasmiy veb sayti ma'lumotlari
16. <https://www.ecb.europa.eu/press/economic-bulletin/html/index.en.html> -ECB Economic Bulletin, Issue 7-8 / 2016-2024 – Statistics
17. <https://www.icmagroup.org/About-ICMA/history/> va <https://www.icmagroup.org/About-ICMA/history/history-of-the-eurobond-market/> rasmiy veb saytlari ma'lumotlari

UO‘T 333.330

Ergashev Muhibbek Aslam o‘g‘li
Renessans ta’lim universitetida mustaqil tadqiqotchisi

KORXONALARNING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI

Эргашев Муhibбек Аслам оглы
Независимый исследователь Образование университете «Ренессанс»

ХАРАКТЕРИСТИКА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ
ПРЕДПРИЯТИЯ

Ergashev Muhibbek Aslam ogly
Independent Researcher Education Renaissance University

CHARACTERISTICS OF ECONOMIC SUSTAINABILITY ENTERPRISE

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini liberallashtirish va modernizatsiya qilishning hozirgi bosqichida korxonaning moliyaviy barqarorligini boshqarish va baholash ko‘rsatkichlarini iqtisodiy holati tahlil qilingan.

Tayanch so‘zlar: moliyaviy barqarorlik, moliyaviy barqarorlik, korxonaning moliyaviy barqarorligini boshqarish, korxonaning moliyaviy barqarorligini baholash, korxonaning moliyaviy barqarorlik darajasi, korxonaning moliyaviy barqarorlik darajasi ko‘rsatkichlari va ularni baholash metodikasi.

Аннотация. В статье рассматриваются необходимость, сущность и факторы, цели, задачи и проблемы управления финансовой устойчивостью предприятия на современном этапе либерализации и модернизации экономики в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: финансовая стабильность, финансовая устойчивость, управление финансовой устойчивостью предприятия, оценка финансовой устойчивости предприятия, уровень финансовой устойчивости предприятия, показатели уровня финансовой устойчивости предприятия и методология их оценки.

Annotation. The article discusses the necessity, essence and factors, goals, objectives and problems of managing the financial stability of an enterprise at the present stage of liberalization and modernization of the economy in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: financial stability, financial stability, management of the financial stability of the enterprise, assessment of the financial stability of the enterprise, the level of financial stability of the enterprise, indicators of the level of financial stability of the enterprise and the methodology for their assessment.

Kirish

Jahon iqtisodiyotida bugungi kunda keskin raqobat muhiti, innovatsion taraqqiyot, moliyaviy texnologiyalar qo'llanishi doirasining kengayib borishi natijasida korxona moliyaviy barqarorligini iqtisodiy holatini baholash tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlash yuzasidan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlash masalalari korporativ moliya, moliyaviy menejmentni samarali boshqarish uslubiyoti va amaliyoti nuqtayi nazaridan kam tadqiq qilingan mavzular qatoriga kiradi. Korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlash masalalari yashirin iqtisodiyotning oldini olish, korxonaning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, xalqaro miqyosda, muntazam ravishda korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Jahon amaliyotida korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlash bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgani holda ularda rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ham korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotlar korxonalarda yangi xizmat turlarini joriy etish, korxonalarda moliyaviy barqarorlikni venchur fondlari orqali takomillashtirish va raqobatbardosh bozorni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda

korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlash bo'yicha uchrayotgan muammolarni o'rganish hamda ularni hal etishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarning ishlab chiqilmaganligi mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo qilmoqda. Korxonalarda investitsion faoliyatni modernizatsiyalash, innovatsion texnologiyalar va ilg'or xorij tajribalarini joriy etish orqali korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan.

I.N. Omelchenko, Y.V. Borisovalar fikricha, "moliyaviy barqarorlik — doimiy tarzda bozor konyunkturasi o'zgarib borishi sharoitida korxonaning o'z moliyaviy stabiligini saqlab qolish qobiliyatidir" [5]. L.T.Gilyarovskaya i A.A. Vexorevalar ta'kidlashicha, "korxona moliyaviy barqarorligi tushunchasi uning shunday holatidirki, bunda mavjud resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida nafaqat to'lovga layoqatlilik ta'minlanadi, balki shu bilan birga foyda va kapitalning o'sishina erishish maqsadidagi rivojlanishga ham erishiladi" [6]. E.V. Isayeva fikricha, "korxona moliyaviy barqarorligi — bu moliyaviy holatning ilgarigidan ko'ra yaxshilangan holatdagi o'sib borishidir[7]". O.R.Krviskaya qarashlaricha, "moliyaviy barqarorlik korxona kelgusi rivoji uchun ahamiyatli bo'lgan iqtisodiy mustaqillikning garovi bo'lmish yetarli darajadagi foyda hajmining mavjudligidir[8]". Yuqorida bildirilgan fikrlarning umumlashma tahlili "moliyaviy barqarorlik" tushunchasi mohiyatini tushunishga uch xil yondoshuv mavjudligini ko'rsatdi. Birinchi yondoshuv mazkur tushunchani tor ma'noda tushunishni izohlaydi va xo'jalik subyekti moliyaviy holatining ko'rsatkichlaridan biri sifatida talqin etadi. Ikkinchi yondoshuv vakillari esa, o'z navbatida, ushbu tushuncha mazmunining

talqinida asosiy e'tiborlarini korxona ishchan faolligi va ishonchligi orqali ifodalanuvchi raqobatbardoshlik va korxona hamda uning hamkorlari iqtisodiy manfaatlari samarali ijrosining kafolati bo'lmish moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari baholanishining zarurligiga qaratadilar. Va nihoyat, uchinchi yondoshuv vakillari korxona moliyaviy barqarorligini moliyaviy resurslarning samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'laydilar[9].

Korxonalar moliyaviy holatini tahlil qilishda iqtisodchi olim, professor E.A.Akramov ta'kidlashicha[6] moliyaviy mustahkamlik tushunchasi va uning ko'rsatkichlarini tavsiya etgan va unga ta'sir etuvchi omillarni asoslab bergan. Shuningdek, u moliyaviy barqarorlik toifasi korxonaning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishi va pasaymasligini ifodalovchi ko'rsatkich ekanligini ta'kidlaydi. Professor T.S. Malikovning fikriga ko'ra[7], xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini umumiy (avtonomiya koeffitsiyenti, qarz kapitalining konsentratsiyalashuv koeffitsiyenti, qarz va o'z mablag'larining nisbati koeffitsiyenti) va nisbiy ko'rsatkichlar (zaxira va xarajatlarning o'z kapitali bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o'z kapitalining manyovrlilik koeffitsiyenti) ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan talqinlardan xulosa qilish mumkinki, moliyaviy barqarorlikni ilmiy asoslash va uning ko'rsatkichlarini tasniflash uchun asosan o'rganilayotgan obyekt (soha va tarmoq)ning o'ziga xos xususiyatlari va ixtisosligidan kelib chiqqan holda yondashishni talab etadi.

Korxonalar nafaqat iqtisodiy tadbirlar tizimini, balki faoliyatning turli jabhalariga oid muammolar bo'yicha, jumladan, korxonalar tashkiliy shakllarini tanlash va ular ko'lamini aniqlash, alohida tarmoqlarda korxonalar taraqqiyoti xususiyatlarini

belgilash, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalari va moliyaviy holatini iqtisodiy tahlil qilish va moliyaviy nazorat o'rnatish uslubi asosida korxonalar xo'jalik moliyaviy faoliyatini boshqarish kabi masalalar bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini talab etmoqda. Bu holat shu bilan belgilanadiki, korxonalar yangi iqtisodiy sharoitlarda ishlab chiqarishning ko'lamini, xo'jalik mustaqilligidagi xususiyatlariga ko'ra nisbatan yangicha uslubiy yondashuvni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Korxona moliyaviy barqarorligini baholashda tadqiqot ishimizda induksiya, deduksiya, statistik, iqtisodiy, moliyaviy tahlil, ekspert baholash usullaridan *foydalanilgan*.

NATIJA VA MUHOKAMA

Davlat kompaniyasi» Hudud gaz ta'minot» AJ O'zbekistonda tabiiy gazni tashish va taqsimlash uchun mas'ul bo'lib, rning asosiy maqsadlari mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash va ob-havo sharoitidan qat'iy nazar uzluksiz gaz ta'minotini ta'minlash, shu bilan birga energiya samaradorligini oshirish, havoga zararli chiqindilarni kamaytirish va ekologik toza investitsiyalar va texnologiyalar oqimini ko'paytirish maqsadlariga erishishdan iborat.

Korxonaning iqtisodiy holatini baholashning asosiy ko'rsatkichlari (mezonlari) quyidagilardir:

- to'lov qobiliyati yoki qoplash nisbati;
- o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti;
- xarajat va aktivlarni qaytarish koeffitsiyentlari;

Yakuniy qaror qabul qilish uchun qo'shimcha ko'rsatkichlardan ham foydalanish mumkin:

- o'z va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati;

– asosiy vositalarning amortizatsiya normasi.

Qoplash koeffitsiyenti (to'lov qobiliyati) korxonaning qisqa muddatli majburiyatlari bo'yicha to'lov qobiliyatini ko'rsatadi, bu nafaqat qarzdorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitoblar va tayyor mahsulotni qulay sotish, balki aylanma (joriy) aktivlarning boshqa elementlarini hisobga olgan holda baholanadi. Koeffitsiyentning pasayishi korxonaning to'lov qobiliyatining pasayishini ko'rsatadi.

Agar hisobot davri oxirida to'lov qobiliyati koeffitsiyenti 1,25 dan past bo'lsa, ushbu ko'rsatkich bo'yicha korxona to'lovga qodir emas deb hisoblanadi.

O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti korxonaning moliyaviy barqarorligi uchun zarur bo'lgan o'z aylanma mablag'lari mavjudligini, korxona egalari va kreditorlar manfaatlarining muvozanatini tavsiflaydi.

Agar hisobot davri oxirida o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti 0,2 dan kam bo'lsa, bu ko'rsatkich bo'yicha korxona o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanmagan hisoblanadi.

Xarajatlar va aktivlarning rentabellik koeffitsiyentlari korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining rentabellik (rentabellik) darajasini ko'rsatadi.

Agar hisobot davri uchun rentabellik koeffitsiyentlari:

– noldan past qiymatga ega bo'lsa (salbiy ko'rsatkich), keyin korxona zararsiz hisoblanadi;

– qiymati 0,05 dan past bo'lsa, u holda korxona past rentabelli hisoblanadi (monopol korxonalardan tashqari).

O'z va qisqa muddatli qarz mablag'larining nisbati (joriy moliyaviy mustaqillik) o'z manbalaridan qisqa muddatli qarz mablag'larining qaytarilishini ta'minlash darajasini belgilaydi.

Agar hisobot davri oxirida o'z kapitali va qisqa muddatli qarz mablag'lari nisbati 1

dan kam bo'lsa, bu korxonada moliyaviy risk mavjudligini ko'rsatadi.

Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti davr uchun asosiy vositalarning eskirish (eskirish) ulushini tavsiflaydi.

Agar ko'rib chiqilayotgan davr oxirida asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti 0,5 dan oshsa, korxona asosiy vositalarning sezilarli darajada eskirishi bilan tavsiflanadi.

O'z kapitalining rentabelligi koeffitsiyenti, ROE, tashkilotning butun kapitalini (yoki aktivlarini) emas, balki uning faqat korxona egalriga tegishli qismidan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi. Qiymat qanchalik yuqori bo'lsa, tashkilot shunchalik yaxshi ishlaydi.

1-jadval

Hududgazta'minot" AJ korxonasining iqtisodiy holatini baholash ko'rsatkichlari tizimi¹

Ko'rsatkichlar nomi	2020	2021	2022
Umumiy qoplash koeffitsiyenti — to'lov qobiliyati koeffitsiyenti (muddati o'tgan qarzlarsiz joriy aktivlarning qisqa muddatli majburiyatlarga nisbati). 1,25 dan kam qiymat kritik hisoblanadi	1.50	1.19	1.57
o'z va qarz mablag'lari nisbati (o'z mablag'lari manbasining qisqa muddatliga nisbati).	1.13	0.41	0.35
muddati o'tgan qarzlarsiz majburiyatlar). 1 dan kichik qiymat muhim hisoblanadi			
O'z aylanma mablag'larini ta'minlash koeffitsiyenti (aylanma mablag'larni shakllantirish uchun ajratilgan o'z mablag'larining aylanma mablag'larga nisbati). 0,2 dan kam qiymat kritik hisoblanadi	0,33	0,16	0,17

1 Muallif ishlanmasi

Aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti (solliqlarni to‘lashdan oldingi foydaning korxona aktivlariga nisbati). 0 dan past qiymat kritik (zararli) hisoblanadi.	-0,10	-0,09	0,03
Xarajatlarning rentabellik darajasi (solliqlarni to‘lashdan oldingi foydaning umumiy ishlab chiqarish xarajatlariga nisbati). 0 dan past qiymat kritik (zararli) hisoblanadi.	-0,07	-0,06	0,03
Uskunaning eskirish koeffitsiyenti (amortizatsiya summasining asosiy vositalarning dastlabki qiymatiga nisbati). 0,5 dan yuqori qiymat kritik hisoblanadi.	0,55	0,58	0,60

Xulosa va takliflar

Tahlillardan kelib chiqib, korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, korxonalar faoliyatiga sarflanayotgan sarmoya va ularni o‘zini-o‘zi qoplash darajasi beqaror bo‘lib, uni barqarorlashtirish uchun korxonaning istiqboldagi investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, bugungi kunda korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun uni moliyalashtirish imkoniyatini oshirish, ya’ni olingan foyda hisobidan ishlab chiqarishni kengaytirish, korxonani modernizatsiya va texnik qayta jihozlash lozim.

Uchinchidan, korxonalarda o‘z mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish uchun korxonaning tegishli manbalari va tashqi uzoq va qisqa muddatli mablag‘larda foydalanishi maqsadga muvofiq. Bunda olingan qarzlarni o‘z vaqtida qaytarish mexanizmini ishlab chiqish talab etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Омелченко И.И. Финансово-экономическая стабильность как составная часть организационно-экономической устойчивости предприятий // Вестник машиностроения. 2017. № 4. С. 65.
2. Гиляровская Л.Т., Вехорева А.А. Анализ и отсценка финансовой устойчивости коммерческого предприятия. СПб., 2013. С. 13.
3. Исаева Э.В. Проблемы определения сущности понятия «финансовая устойчивость предприятия» // Проблемы экономики. 2018. № 2. С. 80.
4. Бурханов А.У.Саноат корхоналари молиявий барқарорлигини баҳолаш усули// «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журнали. № 6, ноябрь декабрь, 2018 йил.
5. Елеских С.Я. Анализ теоретических подходов к трактовке сущности понятия «финансовая устойчивость предприятия» // Экономика промышленности. 2018. № 1. С. 190.
6. Акрамов Э.А. Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили. - Т.: Молия, 2003. Б. 64-85.
7. Маликов Т.С. Молия: ҳўжалик юритувчи субъектлар молияси. Ўқув қўлланма / и.ф.д., проф. А.В. Ваҳобовнинг умумий таҳрири остида. -Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2009. Б. 254-257.

УДК: 336.1(575.1)

Ходжарахманова Назира Бахтияровна

Ташкентского государственного экономического университета

Магистр 1-курса

ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ КАЗНАЧЕЙСКОГО ИСПОЛНЕНИЯ БЮДЖЕТА НА УРОВНЕ РАЙОННЫХ КАЗНАЧЕЙСТВ НА ПРИМЕРЕ

Xo'djaraxmanova Nazira Bahtiyarovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

1-kurs magistranti

DAVLAT BUDJETING TUMAN G'AZNACHILIK BO'LIMLARI IJROSIDAGI MAVJUD MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Khadjarakxmanova Nazira Bakhtiyarovna

1-st Year Master's Student

Tashkent State University of Economics

PROBLEMS AND PROSPECTS OF TREASURY EXECUTION OF THE BUDGET AT THE MUNICIPAL TREASURY LEVEL.

Аннотация: Статья посвящена управлению государственными финансами в условиях казначейского исполнения, которое остается ключевой задачей в условиях экономической нестабильности. Рассматриваются вопросы расширения доходной базы регионов, поддержки малого бизнеса, сокращения теневой экономики и реализации стратегии «Узбекистан-2030». Особое внимание уделено анализу казначейского исполнения бюджета Мирзо Улугбекского района города Ташкента, включая меры по повышению прозрачности и эффективности работы казначейских органов.

Ключевые слова: Государственные финансы, казначейское исполнение, Единый казначейский счет (ЕКС), управление финансами, районное казначейство.

Annotatsiya: Maqolada asosiy e'tibor iqtisodiy beqarorlik sharoitida muhim vazifa bo'lib qolayotgan g'azna ijrosidagi davlat moliyasini boshqarishga qaratilgan. Hududiy daromadlar bazalarini kengaytirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish kabi masalalar o'rganilgan. Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani budjetining g'azna ijrosi tahlili, shu jumladan, g'aznachilik organlari faoliyatining ochiqligi va samaradorligini oshirish chora-tadbirlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tayanch so'zlar: Davlat moliyasi, g'azna ijrosi, yagona g'azna hisobvarag'i, moliyaviy boshqaruv, tuman g'aznachiligi

Abstract: *The article focuses on the management of public finances under treasury execution, which remains a key task in conditions of economic instability. Issues such as expanding regional revenue bases, supporting small businesses, reducing the shadow economy, and implementing the “Uzbekistan-2030” strategy are examined. Special attention is given to the analysis of the treasury execution of the budget of the Mirzo-Ulugbek district of Tashkent city, including measures to enhance transparency and efficiency in the operations of treasury bodies.*

Keywords: *Public finance, treasury execution, Unified Treasury Account (UTA), financial management, district treasury*

ВВЕДЕНИЕ

Управление государственными финансами в условиях казначейского исполнения остается актуальной задачей в современных условиях экономической нестабильности. Эффективное управление финансами играет ключевую роль в обеспечении финансовой устойчивости государственных структур, экономического роста и благополучия общества. Централизованный контроль за движением бюджетных средств создает ряд вызовов, требующих анализа и поиска решений.

На видеоселекторном совещании под председательством Президента Шавката Мирзиёева обсуждались задачи государственного бюджета на 2024 год, включая расширение доходной базы регионов, поддержку малого бизнеса, развитие предпринимательства и сокращение «теневой» экономики. Развитие социальной сферы стало приоритетом стратегии «Узбекистан-2030» и проекта госбюджета на 2024 год. Для достижения целей необходимо обеспечить прозрачность, объективность и эффективность работы казначейских органов, контролирующих приток и расход бюджетных средств [1].

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

В ходе исследования темы были использованы различные методы, включая анализ и абстракцию для выделения

ключевой и необходимой для изучения информации. Метод индукции применялся при изучении деятельности казначейства конкретного района, на основе чего были сформулированы рекомендации для улучшения работы казначейской системы на уровне всей Республики. Для детального анализа статистических данных использовался метод временных рядов, что позволило получить точную информацию о динамике изменений.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ

Государственные финансы — основа реализации целей и задач государства. Это понятие трактуется учеными по-разному. Б.М. Сабанти определял финансы как часть исторической науки, задача которой — разработка системы формирования и использования фондов для выполнения функций государства [2]. В.В. Ковалев определяет финансы как экономическую категорию, которая представляет собой систему распределительных денежных отношений, возникающих в процессе формирования и использования фондов денежных средств у субъектов, участвующих в создании совокупного общественного продукта [3]. По мнению В.С. Занадворова и М.Г. Колосницыной, ключевую роль в экономических отношениях играет государственное финансовое регулирование, используя налоги, субсидии и участие в производстве мериторных благ с высокой социальной значимостью [4]. Начало формы

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Финансы представляют собой экономические отношения, связанные с формированием, распределением и использованием денежных средств для выполнения функций государства и решения экономических, социальных и политических задач. Современная экономика не может обойтись без финансов и финансовых отношений, которые проявляются в государственной (публичной) сфере. На различных этапах исторического развития определенные потребности общества могут быть финансированы только государством.





Рис. 1– Основные потребности общества, финансируемые из государственных финансов [5]¹

Одной из главных составляющих государственных финансов является государственный бюджет, который играет ключевую роль в управлении денежными потоками и ресурсами государства. Мобилизуя ресурсы, государство затем их целенаправленно использует. Это означает, что оно выступает не просто в роли инстанции, обладающей регулятивными полномочиями, а в качестве субъекта экономической деятельности, который сопоставляет расходы с доходами, стремится к эффективной аллокации своих ресурсов и т.д [6]. Основным источником доходной части государственного бюджета являются налоги, так как 90% от общей суммы

¹ На основе исследований было разработано автором.

доходов состоит из налогов. Налоги играют ключевую роль в финансировании государственных программ и обеспечении функционирования государственной машины.



- Доходы Государственного бюджета, трлн сум.
- Доля к ВВП

Рис. 2 - Налоговая нагрузка (соотношение доходов к ВВП) и доходы государственного бюджета в 2021–2024 годах [7]

Контроль за использованием государственных финансовых ресурсов включает в себя внутренний и внешний аудит, инвентаризацию, ревизии и проверки. Эти меры направлены на предотвращение и выявление нарушений в использовании бюджетных средств. В работе Д. Джонсона «Государственный финансовый контроль: теория и практика» отмечается, что «эффективный контроль позволяет повысить прозрачность и подотчетность государственных финансов» [8].




Рис. 3: Компоненты управления государственными финансами и бюджетный цикл

Для повышения эффективности управления государственными финансами и обеспечения прозрачности в расходовании бюджетных средств важным инструментом стало внедрение механизма Единого казначейского счета. Этот механизм позволяет централизованно управлять денежными потоками, обеспечивая более эффективное использование бюджетных ресурсов и предотвращая их нецелевое расходование. Благодаря Единому казначейскому счету стало возможным оперативно контролировать поступления и расходы бюджета, минимизировать коррупционные риски и повышать прозрачность исполнения бюджета.

Вместе с тем, эффективное функционирование этого механизма невозможно без участия местных казначейских органов, которые играют ключевую роль в реализации бюджетной политики на местах. Районные казначейства, такие как Казначейская служба Мирзо-Улугбекского района, выступают связующим звеном между центральными органами управления и местными бюджетными организациями. Их деятельность направлена на обеспечение своевременного исполнения финансовых обязательств, строгого контроля за расходованием бюджетных средств и соблюдения законодательства в сфере государственных закупок.

В 2023 году отдел Казначейской службы Мирзо-Улугбекского района обслуживал 109 организаций, включая:

- 47 получателей из республиканского бюджета,
- 13 из городского бюджета,
- 18 из районного бюджета.

Деятельность этих организаций и исполнение их обязательств осуществлялись в установленные сроки, что обеспечивало выполнение финансовых задач в рамках бюджета.

Регистрация юридических обязательств за отчетный период составила 13 775 на сумму 1 591 366,1 млн сумов. Однако из них 563 обязательства (7% от общего числа, 24% от суммы) на сумму 105 253,6 млн сумов были возвращены из-за несоответствия требованиям законодательства, особенно Закона «О государственных закупках». Это подчеркивает важность строгого контроля со стороны районных казначейских органов, направленного на повышение бюджетной дисциплины и прозрачности финансовых операций.

Таблица 2

Количество и сумма государственных закупок по видам за 2023 год

	Вид закупок	за 2023 финансовый год	
		С у м м а (млн сум)	Количество
1	Электронный магазин	157757,4	8930
2	Электронный аукцион	781292,1	311
3	Выбор лучших предложений	40638,7	120
4	Тендер	259662,6	24
5	Прямые договоры	352015,3	4390
	Итого	1591366,1	13775

Согласно Закону Республики Узбекистан № ЗРУ-684 от 24 апреля 2021 года «О государственных закупках», с 1 января 2022 года процедуры выбора наилучших предложений и проведения тендерных закупок переведены в электронную форму, и на сегодняшний день договоры заключаются именно таким образом. В соответствии с Положением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 46 от 31 января 2022 года

«О порядке организации и осуществления электронных государственных закупок в строительной сфере», электронные тендеры в строительной сфере по контрактам государственных заказчиков с суммой, превышающей 6000-кратный размер базовой расчетной величины, проводятся через национальную информационную систему «Прозрачное строительство». Для информации, национальная информационная система «Прозрачное строительство» начала свою деятельность с 1 января 2023 года.

В 2023 году Казначейская служба Мирзо-Улугбекского района обработала 68 130 финансовых обязательств на общую сумму 1 795 178,9 млн сумов, направленных бюджетными организациями, получателями средств и внебюджетными фондами. Из них 67 929 обязательств (97% от общего числа) на сумму 1 775 501,5 млн сумов (93% от общей суммы) были успешно выполнены, что свидетельствует о высокой бюджетной дисциплине и эффективном управлении средствами.

Возвращено без исполнения 201 обязательство на сумму 19 677,4 млн сумов (7% от суммы и 3% от числа) по причинам несоответствия требованиям законодательства.

Таблица 4
Исполнение финансовых обязательств

№	Исполнение финансовых обязательств	за 2023 финансовый год	
		С у м м а (млн сум)	Количество
1	Платежные поручения	1 775 501,5	67929
2	Зарегистрированные финансовые обязательства (счёт-фактура)	1 072 782,5	22809

3	Чеки, выписанные для получения наличных средств	21 598, 0	432
Итого		2 869 882, 0	91170

В течение 2023 финансового года ведение бухгалтерского учета и отчетности было осуществлено в полном соответствии с требованиями. На основании 8 265 обращений от юридических и физических лиц были проведены работы по возврату средств на общую сумму 111 554,7 млн сумов. Все электронные заключения были исполнены, и средства были возвращены в установленные сроки. Кроме того, в течение 2023 года были проведены операции по возврату доходов и их правильному учету на общую сумму 43 620 407,2 млн сумов. Эти операции включали в себя 60 000 отдельных действий по возврату доходов от различных источников. Все эти операции были выполнены согласно установленным процедурам и требованиям бухгалтерского учета, что позволило обеспечить точность и надежность финансовой отчетности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

В статье проанализировано управление государственными финансами на примере Казначейства Мирзо-Улугбекского района Ташкента. Рассмотрены структура, функции казначейства и его роль в контроле и распределении бюджетных средств, обеспечивающих прозрачность финансовых операций. Проанализировано исполнение доходной и расходной частей местного бюджета, включая регистрацию обязательств, госзакупки и использование системы «Прозрачное строительство». Изучены процедуры госзакупок и

контроль за целевым использованием средств, выявлены ключевые проблемы и риски.

На основе проведенного анализа можно сделать следующие выводы:

Казначейство Мирзо-Улугбекского района эффективно выполняет свои функции по контролю и управлению государственными финансами района, однако существуют определенные проблемы, связанные с временными задержками и недостаточной прозрачностью процессов.

Исполнение доходной и расходной части местного бюджета города Ташкента

в целом соответствует установленным планам, однако имеются случаи несвоевременного поступления доходов и неэффективного использования бюджетных средств, что требует принятия мер по их устранению.

Процедуры государственных закупок и целенаправленного использования государственных средств нуждаются в улучшении. Необходимы меры по повышению прозрачности и эффективности закупочных процедур, а также усилению контроля за целевым использованием бюджетных средств.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish tannarxini aniqlashda bevosita xarajatlarni hisoblashning uslubiy jihatlari va ular hisobini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishimizda ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy tahlil, monografik kuzatuv, qiyoslash, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan berilgan ta’riflar o’ziga xos ahamiyatga ega bo’lsada, biroq ushbu ta’riflar nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlari tannarxini hisoblashga asos bo’la olmaydi. Shuning uchun, mazkur tadqiqot ishimizda ta’lim xizmatlarini ko’rsatishning o’ziga xos jihatlari inobatga olingan holda ushbu xizmatlarni ko’rsatish tannarxi bo’yicha mualliflik ta’rifi ishlab chiqish lozim, deb topildi.

Bizning fikrimizcha, nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha tannarxga quyidagicha ta’rif berish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlari tannarxi – bu ta’lim-tarbiya oluvchilarga ta’lim berish, ovqatlantirish, transport xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha hamda ularning dam olish va ma’naviy hordiq chiqarishlari uchun sarflangan barcha xarajatlar majmui. Mazkur mualliflik ta’rifi nodavlat ta’lim tashkilotlarida xarajatlarni xizmatlar tannarxiga to’g’ri olib borishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Tadqiqot ishimizda nodavlat ta’lim tashkilotlarining har bir faoliyat turlari kesimida ta’lim xizmatlari tannarxini hisoblash zaruriyatidan kelib chiqqan holda ushbu yo’nalish bo’yicha tadqiqot ishlari olib borildi. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqqan holda nodavlat ta’lim tashkilotlarining faoliyat turlari bo’yicha xarajatlarni quyidagi ko’rinishda buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish maqsadga muvofiq, deb hisobladik:

1-jadval

Nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlarini ko’rsatish faoliyati bo’yicha xarajatlarni buxgalteriya hisobi schyotlar rejasiga aks ettirish bo’yicha tavsiyalar¹

Xarajatlar guruhi bo’yicha		Xarajatlar tarkibi bo’yicha	
2010	Asosiy faoliyat bo’yicha xarajatlar	2011	Umumta’lim xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha xarajatlar
		2012	Maktabgacha ta’lim va tarbiya xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha xarajatlar
		2013	Maktabga tayyorlash xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha xarajatlar
2020	Qo’shimcha faoliyat bo’yicha xarajatlar	2021	Maktab dasturidan tashqari ko’rsatilgan ta’lim xizmatlari (to’garaklar) bo’yicha xarajatlar
		2022	Ta’lim binosini (sport va ma’naviyat zallari) ijaraga berish xizmatlari bo’yicha xarajatlar
		2023	Boshqa qo’shimcha faoliyat bo’yicha xarajatlar

Biz tomonimizdan tavsiya etilgan ushbu schyotlar tizimi orqali nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha xarajatlarni faoliyatlar kesimida buxgalteriya hisobida aks ettirish o’ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu schyotlar tizimining buxgalteriya yozuvlarida aks ettirish jarayonlarini nodavlat ta’lim tashkilotlarining amaliy misollari orqali ko’rib chiqamiz:

¹ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

2-jadval

“Istiqbolli Ta’lim” nodavlat ta’lim tashkilotida amalga oshirilgan moddiy xarajatlarni faoliyat turlari kesimida buxgalteriya hisobida aks ettirishga oid tavsiya etilgan schyotlar tizimining qo‘llanilishi²

2024 yil sentyabr oyida, ming so‘mda

T/r	Buxgalteriya operatsiyalari	Buxgalteriya yozuvlari		Xarajatlar miqdori
		Debet	Kredit	
I. Asosiy faoliyat bo'yicha xarajatlar				
1	Maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'quv buyumlari ta'lim jarayonlariga topshirildi	2012	1012	1 036
2	Umumta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'quv qurollari ta'lim jarayonlariga qabul qilish-topshirish dalolatnomasi orqali topshirildi	2011	1011	5 690
3	Umumta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'quv buyumlari ta'lim jarayonlariga topshirildi	2011	1012	3 155
4	Maktabga tayyorlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'quv buyumlari ta'lim jarayonlariga topshirildi	2013	1012	769
5	Maktabga tayyorlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'quv qurollari ta'lim jarayonlariga qabul qilish-topshirish dalolatnomasi orqali topshirildi	2013	1011	792
II. Qo'shimcha faoliyat bo'yicha xarajatlar				
6	Maktab dasturidan tashqari ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari (to'garaklar) bo'yicha boshqa bevosita sarflanadigan materiallar xarajatlarga berildi	2021	1013	440
7	Ta'lim binosini (sport va ma'naviyat zallari) ijaraga berish xizmatlari bo'yicha boshqa bevosita sarflanadigan materiallar xarajatlarga berildi	2022	1013	920
Jami amalga oshirilgan moddiy xarajatlar				12 802

* 2011, 2012, 2013, 2021, 2022-schyotlar nomi 1-jadvalda ifodalangan.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, nodavlat ta’lim tashkilotida amalga oshirilgan moddiy xarajatlar tashkilotning faoliyatlariga turlicha ta’sir etgan. Zotan, nodavlat ta’lim tashkilotida umumta’lim xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha daromadlar boshqa faoliyat turlariga nisbatan kattaroq hissani tashkil etganligi bois, ushbu faoliyat turi bo‘yicha xarajatlar ham mos ravishda boshqa faoliyat turlariga nisbatan kattaroq hisoblanadi.

² Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

3-jadval

“Istiqbolli Ta’lim” nodavlat ta’lim tashkilotida mehnat haqi bo’yicha xarajatlarni faoliyat turlari kesimida buxgalteriya hisobida aks ettirishga oid tavsiya etilgan schyotlar tizimining qo’llanilishi³

2024 yil sentyabr oyida, ming so’mda

T/r	Buxgalteriya operatsiyalari	Buxgalteriya yozuvlari		Xarajatlar miqdori
		Debet	Kredit	
I. Asosiy faoliyat bo'yicha xarajatlar				
1	Maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha enagalarga hisoblangan mehnat haqi	2012	6710	41 300
2	Maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha enagalarga hisoblangan mehnat haqi bo'yicha ijtimoiy soliq	2012	6510	4 956
3	Umumta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'qituvchilarga hisoblangan mehnat haqi	2011	6710	304 260
4	Umumta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'qituvchilarga hisoblangan mehnat haqi bo'yicha ijtimoiy soliq	2011	6510	36 511
5	Umumta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha zavuchlarga hisoblangan mehnat haqi	2011	6710	28 660
6	Umumta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha zavuchlarga hisoblangan mehnat haqi bo'yicha ijtimoiy soliq	2011	6510	3 439
7	Maktabga tayyorlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'qituvchilarga hisoblangan mehnat haqi	2013	6710	18 540
8	Maktabga tayyorlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha o'qituvchilarga hisoblangan mehnat haqi bo'yicha ijtimoiy soliq	2013	6510	2 225
9	Maktabga tayyorlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tarbiyachilarga hisoblangan mehnat haqi	2013	6710	8800
10	Maktabga tayyorlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tarbiyachilarga hisoblangan mehnat haqi bo'yicha ijtimoiy soliq	2013	6510	1 056
II. Qo'shimcha faoliyat bo'yicha xarajatlar				
11	Maktab dasturidan tashqari ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari (to'garaklar) bo'yicha o'qituvchilarga hisoblangan mehnat haqi	2021	6710	12 360
12	Maktab dasturidan tashqari ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari (to'garaklar) bo'yicha o'qituvchilarga hisoblangan mehnat haqi bo'yicha ijtimoiy soliq	2021	6510	1 483
13	Ta'lim binosini (sport va ma'naviyat zallari) ijaraga berish xizmatlari bo'yicha nazoratchilarga hisoblangan mehnat haqi	2022	6710	4800

³ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

14	Ta'lim binosini (sport va ma'naviyat zallari) ijaraga berish xizmatlari bo'yicha nazoratchilarga hisoblangan mehnat haqi bo'yicha ijtimoiy soliq	2022	6510	576
Jami amalga oshirilgan mehnat haqi bo'yicha xarajatlar				468 966

* 2011, 2012, 2013, 2021, 2022-schyotlar nomi 3-jadvalda ifodalangan.

Mehnat haqi bo'yicha xarajatlar ham yuqorida buxgalteriya hisobi tadqiq etilgan moddiy xarajatlar kabi faoliyat turlariga turlicha ta'sir etgan. Maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatishda band bo'lgan xodimlar tarkibi enagalar, tarbiyachilardan tashkil topgan bo'lib, ularning mehnat haqi bo'yicha xarajatlari umumta'lim xizmatlarini ko'rsatishda band bo'lgan o'qituvchi zavuchlarning mehnat haqi bo'yicha hisoblangan xarajatlardan kamroq hissani tashkil etgan.

4-jadval

“Istiqbolli Ta'lim” nodavlat ta'lim tashkilotida boshqa xarajatlarni faoliyat turlari kesimida buxgalteriya hisobida aks ettirishga oid tavsiya etilgan schyotlar tizimining qo'llanilishi⁴

2024 yil sentyabr oyida, ming so'mda

T/r	Buxgalteriya operatsiyalari	Buxgalteriya yozuvlari		Xarajatlar miqdori
		Debet	Kredit	
I. Asosiy faoliyat bo'yicha xarajatlar				
1	Maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatishda foydalaniladigan binoning amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar	2012	0220	78 125
2	Umumta'lim xizmatlarini ko'rsatishda foydalaniladigan binoning amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar	2011	0220	31 250
3	Maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatishda foydalaniladigan mebellarning amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar	2012	0240	2 880
4	Umumta'lim xizmatlarini ko'rsatishda foydalaniladigan mebellarning amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar	2011	0240	6 570
5	Umumta'lim xizmatlarini ko'rsatishda foydalaniladigan kompyuterlarning amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar	2011	0250	6490
6	Maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlarini amalga oshirish uchun olingan litsenziyalarning amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar	2012	0510	600
7	Umumta'lim xizmatlarini amalga oshirish uchun olingan litsenziyalarning amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar	2011	0510	900

4 Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

8	Maktabga tayyorlash xizmatlarini ko'rsatishda foydalaniladigan binoning amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar	2013	0220	15 625
9	Maktabga tayyorlash xizmatlarini ko'rsatishda foydalaniladigan mebellarning amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar	2013	0240	940
Jami amalga oshirilgan boshqa xarajatlar				143 380

* 2011, 2012, 2013-schyotlar nomi 1-jadvalda ifodalangan.

Ushbu jadvaldan ko'rish mumkinki, nodavlat ta'lim tashkilotida amalga oshirilgan boshqa xarajatlarni faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash moddiy va mehnat haqi bo'yicha xarajatlardan farq qiladi.

XULOSA

Yuqorida erishilgan tadqiqotlar natijasi asosida umumiy xulosa qilib aytishimiz mumkinki, biz tomonimizdan tavsiya etilgan schyotlar tizimining buxgalteriya provodkalarida yuqorida keltirilgan tartibda aks ettirilishi, umuman olganda nodavlat ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini biz tomonimizdan tavsiya etilgan tarzda buxgalteriya hisobini yuritish hamda ta'lim xizmatlari tannarxini hisoblash bir qancha xususiyatlar bilan ajralib turadi:

Birinchidan, nodavlat ta'lim tashkilotlarida yuqorida biz tomonimizdan tavsiya etilgan schyotlarning buxgalteriya hisobida aks ettirilishi ushbu tarmoq tashkilotlarida xarajatlar hisobini asosiy va qo'shimcha faoliyat turlari bo'yicha alohida hisobga olishga imkoniyat berib, ta'lim xizmatlarining tannarxini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, bizning fikrimizcha boshqa xarajatlar, jumladan ularning tarkibida asosiy hissani tashkil etadigan amortizatsiya xarajatlari faqatgina, asosiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tannarxiga olib borilishi lozim, deb hisoblaymiz. Chunki, nodavlat ta'lim tashkilotlarida asosiy vositalar maktabgacha ta'lim va tarbiya

hamda umumta'lim xizmatlarini ko'rsatish maqsadida harid qilinadi va ushbu maqsadda foydalaniladi. Qolaversa, ushbu ob'ektlarni, ya'ni sport va ma'naviyat zallari, to'garaklar tashkil etiladigan xonalar aslida tashkilotning asosiy faoliyatlarini amalga oshirish maqsadida foydalaniladi va ular bo'yicha xarajatlar ta'lim xizmatlari tannarxiga olib borilishi lozimdir.

Uchinchidan, nodavlat ta'lim tashkilotlarining amaliy ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ushbu tashkilotlarning asosiy faoliyatida umumta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha daromadlar boshqa faoliyat turlariga nisbatan kattaroq hissani tashkil etib, bevosita usulda taqsimlanadigan xarajatlarning asosiy ulushi ham aynan ushbu faoliyat turiga to'g'ri kelmoqda. Ushbu jarayonlarni biz tomonimizdan tavsiya etilgan schyotlar va ular bo'yicha buxgalteriya provodkalarida yaqqol ko'rish mumkin bo'lib, bu esa, boshqaruv qarorlarini qabul qilishga muhim hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha biz tomonimizdan tavsiya etilgan ushbu buxgalteriya yozuvlari nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xarajatlar hisobini to'g'ri boshqarish orqali ta'lim xizmatlari tannarxini optimallashtirishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish hamda ta'lim sifati monitoringini amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2024 yil 14 fevral. VMQ-91-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nodavlat ta'lim tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ta'lim jarayonida yoshlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2021 yil 25 iyun. PQ-5161.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori. 1999 yil 5 fevral. 54-son.
4. Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi" -2021, 560 bet. 289-bet.
5. Malikov T.S. Ma'ruza matni. <https://staff.tiame.uz/storage/users/58/presentations/gwPvgkOTiEssIdkJLvnlYAFIZ1IEwWu325r4qPNO.pdf>
6. Temirxanova M.J. Turistik mahsulotlar hisobi va tahlilining metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha fan doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. -T.: 2020.
7. Boronov B.F. Yog'-moy mahsulotlari hisobi metodologiyasini takomillashtirish. –T.: TMI, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, 2023, 244 b.
8. Tashnazarova D.S. Korxonalarda mahsulot tannarxi hisobini takomillashtirish. –T.: TDIU, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, 2023, 129 b.
9. <https://uk.indeed.com/career-advice/career-development/what-are-production-costs>

UDK 657.03:336.52(575.1)

Normatova Gulmira Xayrullayevna

Mustaqil izlanuvchi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail: n-gulmira-x@mail.ru

**XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARINING
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH**

Норматова Гулмира Хайруллаевна

Самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного экономического университета

E-mail: n-gulmira-x@mail.ru

**ОРГАНИЗАЦИЯ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА
ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ В ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТАХ**

Normatova Gulmira Xayrullaevna

Independent researcher of

Tashkent state economic university

E-mail: n-gulmira-x@mail.ru

**ORGANIZATION OF STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF
CASH FLOWS IN BUSINESS ENTITIES**

Annotatsiya. Maqolada pul oqimlarining strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish asoslari, xorijiy va respublikamiz iqtisodchi olimlarining bu borada olib borgan tadqiqot ishlari o‘rganilgan. Shuningdek, xorijlik va mamlakatimiz olimlarining strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning nazariy va uslubiy jihatlarini o‘rganish borasidagi qarashlari umumlashtirilgan. Maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarining strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: pul oqimlari, strategik boshqaruv hisobi, hisob siyosati, “Pul oqimlari to‘g‘risida hisobot”, pul oqimlari harakati, mas‘uliyat markazlari, strategik boshqaruv hisobotlari.

Аннотация. В статье рассматриваются основы организации стратегического управленческого учета денежных потоков, изучены и обобщены результаты научных исследований зарубежных и отечественных экономистов. Также обобщены различные подходы зарубежных и отечественных ученых по теоретическим и методологическим вопросам организации стратегического управленческого учета. В статье даны рекомендации по совершенствованию стратегического управленческого учета денежных потоков в хозяйствующих субъектах.

Ключевые слова: денежные потоки, стратегический управленческий учет, учетная политика, «Отчет о денежных потоках», центры ответственности, отчеты стратегического управленческого учета.

Abstract. The article examines the basics of organizing strategic management accounting of cash flows, studies and summarizes the results of scientific research by foreign and domestic economists. Various approaches of foreign and domestic scientists on theoretical and methodological aspects of the organization of strategic management accounting are also summarized. The article provides recommendations for improving strategic management accounting of cash flows in business entities.

Key words: cash flows, strategic management accounting, accounting policy, “Cash Flow Report”, responsibility centers, strategic management accounting reports.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot joriy, uzoq va strategik moliyaviy rejalashtirishni obyektiv zaruriyatga aylantirib borayotgan oʻziga xos bir qator shiddatlilik, globallashuv, tezkorlik xususiyatlariga ega. Bunday sharoitda mustahkam pozitsiyani ushlab turish hamda bozorda raqobatbardoshlikni mustahkamlash uchun har bir xoʻjalik yurituvchi subyekt faoliyatida strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish davr taqozosiga aylanmoqda.

Strategik boshqaruv hisobi xoʻjalik yurituvchi subyektlar uchun ularning moliyaviy ahvoli ichki va tashqi omillar taʼsirida istiqbolda qanday oʻzgarishini, bozordagi raqobat darajasini baholash, strategik oʻzgarishlarni hisobga olish imkonini yaratadi.

Pul oqimlarining strategik boshqaruv hisobi esa hozirgi globallashuv va raqobat muhiti keskinlashuvi sharoitida xoʻjalik yurituvchi subyektga resurslarni boshqarish, imkoniyatlarini chamalash, moliya-xoʻjalik faoliyatini kam resurs xarajati bilan yuqori samara olish boʻyicha optimal variantlar hamda imkoniyatlar yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijasi koʻrsatadiki, mamlakatimizda

strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish masalasi hozirgacha eʼtibordan chetda qolib kelmoqda. Uni tashkil qilish va yuritish bilan bogʻliq boʻlgan nafaqat amaliy, balkim juda koʻplab nazariy masalalari ham oʻzining ijobiy yechimini topgani yoʻq. Holbuki, xoʻjalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish masalalariga MDH mamlakatlarida ham hozirgacha yetarlicha eʼtibor qaratilayotgani yoʻq. Masalan, shu sohada sarmahsul ilmiy faoliyat olib borayotgan Rossiyalik iqtisodchi olim V.E.Kerimov shunday taʼkidlaydi: “Milliy oʻquv va ilmiy adabiyotlarimizda strategik boshqaruv hisobi boʻyicha chop etilgan ishlar deyarlik yoʻq hisob”[1].

Deyarlik xuddi shunday fikr-mulohazalarni N.M.Blajenkova ham alohida taʼkidlab, korxonalar amaliyotida strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish masalalari endi kun tartibiga chiqayotgani, shu munosabat bilan amaliyotda uning mohiyatiga yetarlicha eʼtibor berilmayotgani, aksariyat holatlarda esa uni anʼanaviy tarzda boshqaruv hisobining bir qismi sifatida qaralayotganligini koʻrsatib beradi [2].

Shu bilan bir qatorda eʼtirof etish kerakki, MDH mamlakatlarining bir qator olimlari, xususan I.V. Alekseeva, V.E.Kerimov, O.Ye. Nikolayevalar shu sohada alohida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan hamda muhim ilmiy xulosa va takliflarni ifoda ettirgan ilmiy asarlar yaratishgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar amaliyotida samarali tarzda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning nazariy va uslubiy jihatlarini o'rganish borasida bozor munosabatlari rivojlangan xorijlik olimlardan I.Ansoff, B.Rayan, K.Uord, D.Xasbi va A.Chanlerlarning ilmiy ishlarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

E'tiborga molik tomoni shundaki, xorijlik, shuningdek MDH davlatlari iqtisodchi olimlari ham strategik boshqaruv hisobini tarixan boshqaruv hisobi bazasida shakllangan, deb hisoblashadi.

Shu masala doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasi shundan dalolat beradiki, mamlakatimizda boshqaruv hisobi shakllanib, o'zining rivojlanish bosqichida, deb hisoblash mumkin.

Mamlakatimizda A.A.Abduganiyev, A.A.Abdurazaqov, N.B.Abdusalamova, A.K.Ibragimov, I.K.G'iyasov, U.U.Kostayev, B. Yu. Maxsudov, A. X. Pardayev, Sh.A.Pardayeva, N.K.Rizayev, O.O.Sobirov, B.A.Xasanov, A.A.Xashimov kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning nazariy va ilmiy-uslubiy jihatlarini qisman o'z aksini topgan[3-10].

Ammo, mazkur olimlarning ishlarida strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning nazariy masalalari bo'yicha umumiy mulohazalar berilgan, xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul mablag'larining strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning uslubiy asoslari bilan bog'liq muammolar tadqiq qilinmagan.

Yuqoridagi fikr-mulohazalar xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarining strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish masalalari hozirgacha o'rganilmagan, o'zining ijobiy yechimini kutayotgan ko'plab muammolar e'tibordan chetda qolib kelayotganligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada ilmiy izlanish davomida aniq faktlarga asoslangan holda ma'lumotlarni guruhlariga ajratish, ijtimoiy va iqtisodiy holatlarni tahlil qilish, tahlil va sintez qilish, statistik ma'lumotlarni taqqoslash kabi usullardan foydalanildi.

Natija va muhokama

Milliy amaliyotimizda xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimlari to'g'risida ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan yagona hisobot shakli mavjud, bu O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003 yil 24 yanvarda 1209-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002 yil 27 dekabrda 140-son buyrug'iga binoan, moliyaviy hisobot tarkibidagi 4-shakl "Pul oqimlari to'g'risida hisobot" hisoblanadi. Moliyaviy hisobotning bu shakli hozirgi globallashuv va raqobat muhitining tobora keskinlashib borishi sharoitida, quyidagi ob'ektiv sabablarga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlarining pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumot ehtiyojlarini qondira olmaydi:

- strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun kerak bo'ladigan pul oqimlari holatini aks ettirib bera olmaydi;

- xuddi yuqoridagi sababga ko'ra hozir dolzarb bo'lib borayotgan zaruriyat, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektning operatsion (asosiy), moliyaviy, innovatsion faoliyat yo'nalishlari bo'yicha pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkor tarzda olish imkoniyatini yaratib bera olmaydi;


- pul oqimlari harakati, tushum darajasiga ta'sir qiladigan nomoliyaviy ko'rsatkichlarni hisobga olish imkoniyatini bermaydi;

- "Pul oqimlari to'g'risida hisobot" ko'rsatkichlari tahlil qilinmaydi, chunki undagi ma'lumotlar kompleks tahlil qilish imkoniyatini bera olmaydi.

Hozirgi globallashuv va raqobat muhitining tobora keskinlashib borishi sharoitida pul oqimlari to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga strategik boshqaruv qarorlar qabul qilishlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tezkor va uzluksiz tarzda yetkazib bera olishi kerak.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan mavjud muammolar yechimini ijobiy tarzda yechish uchun pul mablag'lari oqimining balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimiga asoslangan strategik boshqaruv hisobining 4 bosqichli tizimini taklif etamiz (1-rasm).

Tadqiqotlarimiz natijasi bo'yicha taklif etilayotgan tizimning birinchi bosqichida – xo'jalik yurituvchi subyektning strategik maqsadidan kelib chiqib, uchta muhim - tashkiliy, texnik va uslubiy bloklarni o'zida mujassam etgan hisob siyosati shakllantirilishi kerak.



1-rasm. Pul oqimlarining strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish bosqichlari¹

Shundan tashkiliy blokda rahbariyatni zarur va tezkor hisob ma'lumotlari bilan ta'minlab borish masalalarini yechishi kerak bo'lib, u kam sarf-xarajat evaziga yuqori tezkorlikda amalga oshirilishini ta'minlashi kerak. Bu blok pul oqimlari strategik boshqaruv hisobining quyidagi masalalari yechimini hal etishga qaratilishi, maqsadga muvofiqdir: tashkil etilayotgan strategik boshqaruv hisobining tashkiliy shaklini;

hisob siyosatini; buxgalter va jalb etilgan mutaxassislarning mansab ko'rsatmalarini; hujjatlar aylanishi grafigini. Texnik blokda - pul oqimlari strategik boshqaruv hisobini uslubiy jihatdan amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishchi schotlar rejasi, birlamchi hujjatlar shakli va mazmuni, buxgalter va mutaxassislarni tayyorlash hamda ko'nikmalarini oshirish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish va qayta ishlashning texnik hamda dasturiy ta'minotini amalga oshirish ta'minlashi talab etiladi. Uslubiy blok – xo'jalik yurituvchi subyektning strategik maqsadiga erishish uchun hisob tizimini tashkil qilish yo'nalishlarini tartibga solishga xizmat qiladi.

Pul oqimlarining strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish maqsadida biz tomonimizdan taklif etilayotgan tizimning ikkinchi bosqichida obyektivlik, haqqoniylik, o'z vaqtidalilik va aniqlik talablariga javob beradigan tartibda shakllantirilgan ma'lumotlarni tizimga kiritish jarayonlari amalga oshiriladi.

Tizimning uchinchi bosqichida pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik yurituvchi subyektning balanslashtirilgan ko'rsatkichlar asosida tashkil etilgan 4 ta mas'uliyat markazlari (moliya, kontragentlar, ichki biznes jarayonlari hamda xodimlarni o'qitish hamda ko'nikmalarini oshirish) da qayta ishlanadi va tasnifiy guruhlariga ajratiladi.

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, David Norton va Robert Kaplanlar tomonidan taklif etilgan balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi (moliya, kontragentlar, ichki biznes jarayonlari hamda xodimlarni o'qitish hamda ko'nikmalarini oshirish) hamda ularning ishlash mexanizmidan xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarining strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishda samarali tarzda foydalanish mumkin[11]. Bu olimlar taklif etgan tizim mohiyatiga ko'ra xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'larini

¹ Muallif ishlanmasi.

mana shu 4 ta guruhda hisobga olish mumkin: moliya, kontragentlar, ichki biznes jarayonlari hamda xodimlarni o'qitish hamda ko'nikmalarini oshirish jarayonlarida.

To'rtinchi bosqichda ikki kategoriyada, ya'ni balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi hamda strategik boshqaruv hisobotlari bo'yicha chiqish ma'lumotlari shakllanadi. Mana shu bosqichda balanslashtirilgan ko'rsatkichlar tizimi asosida 4 ta mas'uliyat markazlari bo'yicha pul oqimlarining strategik boshqaruv hisobi ma'lumotlari shakllanishi va aylanishi ta'minlanishi lozim.

Moliya mas'uliyat markazi ("moliya markazi" deb ham yuritilishi mumkin) – bu xo'jalik yurituvchi subyektning alohida segmenti hisoblanadi va uning rahbari hamda ishchi-xodimlari tashqi moliyaviy hamda investitsiya oqimi uchun mas'ul bo'ladi. Moliya markazida quyidagi holatlar pul oqimiga ijobiy ta'sir sifatida baholanadi: olingan qarz va kredit mablag'lari; olingan dividendlar; qimmatli qog'ozlar sotuvidan tushgan tushumlar; qimmatli qog'ozlar emissiyasidan tushgan mablag'lar. Quyidagilar esa moliya markazining pul oqimlari bo'yicha faoliyatini salbiy baholashga sabab bo'ladi: qarz va kreditlar bo'yicha foizlar to'lovlarining oshib ketishi; qimmatli qog'ozlarni chiqarish va emissiya xarajatlarining oshib ketishi va asossiz bo'lib chiqishi va shu kabilar.

Kontragentlar bilan hisob-kitob markazlari (kontragentlar markazi, kontragentlar mas'uliyat markazi) – bu markaz ham xo'jalik yurituvchi subyektning alohida segmenti hisoblanadi va uning rahbari xaridorlar, shu bilan birga mol yetkazib beruvchilar, vositachilar, bojxona xizmati, ijtimoiy tashkilotlar, hisobdor shaxslar hamda fiskal organlar bilan hisob-kitoblar uchun mas'ul bo'ladi. Kontragentlar bilan hisob-kitob markazining faoliyati bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar pul oqimiga ijobiy

ta'sir sifatida baholanadi: asosiy faoliyat bo'yicha mahsulot (ish, xizmat)lar sotuvidan tushgan tushum, boshqa faoliyat yo'nalishlari bo'yicha tushgan tushum, fiskal organlariga to'lovlar, hisobdor shaxslarga to'lovlar, mol yetkazib beruvchilarga o'z vaqtida to'lovlar. Quyidagilar esa kontragentlar bilan hisob-kitob markazining pul oqimlari bo'yicha faoliyatini salbiy baholashga sabab bo'ladi: xaridorlarga turli sabablar bilan pulning qaytarilishi, mol yetkazib beruvchilar bilan shartnoma shartlari buzilishi hisobidan yuzaga keladigan ortiqcha sarf va chiqimlar va shu kabilar.

Ichki biznes jarayonlari mas'uliyat markazi (Biznes jarayonlari markazi) – bu mas'uliyat markazi ham xo'jalik yurituvchi subyektning alohida segmenti hisoblanadi va uning rahbari ichki biznes jarayonlari uchun mas'ul – javobgar bo'ladi.

Biznes jarayonlari markazi faoliyati hamda muhim e'tibori eng avvalo xaridorlarga qaratilgan bo'lishi, maqsadga muvofiqdir. Aynan sotuv imkoniyati barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining muhim motivatsiya ko'rsatkichidir. Xaridorlarni ushlab qolish va ular safini tobora kengaytirib borish nafaqat shu biznes jarayonlari markazi, balki butun xo'jalik yurituvchi subyektning strategik maqsadlaridan biri bo'lishi darkor. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotuvi (realizatsiyasi) vaqtida albatta, reklama-tashviquot chiqimlarini, marketing aksiyalarini, veb saytlarni ishlab chiqish va unga xizmat qilish kabi xarajatlarni o'z tarkibiga olgan marketing sarf-xarajatlari vujudga keladi. Shu bilan bir qatorda hozirgi globallashuv va raqobat muhitining keskinlashib borayotgan davrida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish ham xaridorlarning muhim ehtiyojlaridan biridir, bu esa biznes jarayonlari markazi faoliyatida innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish va uning ulushini oshirib borishni alohida e'tiborga olishni taqozo etadi.

Biznes jarayonlari markazida quyidagi holatlar pul oqimiga ijobiy ta'sir sifatida baholanadi: yangi mahsulotlar (ish, xizmat) sotuvidan tushgan tushum; mahsulotlar (ish, xizmat) sotuvining yangi xaridorlari, kanallari va bozorlari; rekonstruksiya, modernizatsiya qilish natijasidagi mahsulotlar sotuvi va shu kabilar. Quyidagi holatlar esa biznes jarayonlari markazi pul oqimiga salbiy ta'sir sifatida baholanadi: rekonstruksiya va modernizatsiya uchun qilingan xarajatlar; yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishga qilingan asossiz xarajat va sarflar; marketing xarajatlarning oshib borishi; ijtimoiy to'lovlar va shu kabilar.

Taklif etilayotgan tizimdagi to'rtinchi markaz, bu xodimlarni o'qitish hamda ko'nikmalarini oshirish mas'uliyat markazidir. Bu markaz faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, yuqorida faoliyatlari mohiyati yoritilgan 3 ta markazdagi kabi bu segment faoliyatini ijobiy yoki salbiy deb baholashning moliyaviy ko'rsatkichlari mavjud emas. Shuning uchun ham xorijlik iqtisodchi olimlar David Norton va Robert Kaplanlar bu markaz faoliyatini nomoliyaviy ko'rsatkichlar bilan baholashni taklif etishgan. Bu markazdagi mutaxassis xodimlar salohiyatiga butun xo'jalik yurituvchi subyektlar miqyosida pul oqimlarining strategik boshqaruv hisobini samarali yoki besamar

tashkil qilish va yuritish masalasi bevosita bog'liq bo'ladi[11]. Chunki, ular tomonidan ta'minlanadigan tizimning ishlash darajasi, ma'lumotlarning o'z vaqtida shakllantirilishi, umumlashtirilishi va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun rahbariyatga uzatilishi, ularning tahliliy va kompleks xususiyatga ega bo'lishi, shuningdek zamonaviy dasturiy ta'minotlardan foydalanish kabi muhim masalalarining barchasi shu markazda yechiladi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, xo'jalik yurituvchi subyektlarda pul oqimlarining strategik boshqaruv hisobini taklif etilgan to'rt bosqichli, to'rtta mas'uliyat markazlari kesimida hamda balanslashtirilgan ko'rsatkichlar bazasida tashkil etilishi: eng avvalo xalqaro standartlar talabini to'liq o'zida aks ettiradi; pul oqimlari to'g'risida istiqbolga mo'ljallangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun uni istalgan vaqtda va tezkor rejimda taklif etilayotgan 4 ta mas'uliyat markazlari kesimida ma'lumotlarni olish imkoniyatini yaratadi; rahbarlar tomonidan strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari uchun operativ va uzluksiz tarzda ma'lumotlar – axborot ta'minoti tizimi yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Керимов В.Э. Стратегический учет. Учебное пособие / В.Э. Керимов – М.: Омега-Л, 2005. 168 с.
2. Хахонова И.И., Хахонова Н.Н. Система стратегического учета: формирование и развитие // Фундаментальные исследования. – 2013. – № 6-3. – С. 720-724.
3. Abduganiyev A.A. Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari, ularning yechimlari. – T.: TMI, 2003. –275 b.
4. Abdusalomova N.B. Boshqaruv hisobi tizimida ichki nazorat va budjetlashtirish uslubiyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.
5. Amaliy boshqaruv hisobi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma /A.K. Ibragimov, B.A. Xasanov, N.K. Rizayev – T.: "Moliya", 2014. –404 b.

6. Strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning nazariy va amaliy asoslari: Monografiya /U.U.Kostayev: - T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. – 180 bet.
7. Maxsudov B.Yu. Boshqaruv hisobida budjetlashtirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.
8. Pardayev A.X, Pardayeva Z.A., Pardayeva Sh.A. Operativ va strategik boshqaruv hisobi /Darslik.- T.: ООО "DIADEMA NUR SERVIS", 2023.-420 bet.
9. Pardayeva Sh.A. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy natijalarning strategik boshqaruv hisobini takomillashtirish. –Toshkent, "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali, 2021 yil, №3.
10. Xasanov B.A., Xashimov A.A. Boshqaruv hisobi. Darslik. - T.:Iqtisod-Moliya, 2005. -308 b.
11. Каплан Роберт С., Нортон Дейвид П. Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию., 2-е изд., испр. и доп./перевод с английского, М.: ЗАО "Олимп-бизнес", 2005. – 320 стр., стр 12.
12. Saoud Jayed Mashkour. Accounting in english (pp.51) Publisher: Printed by : Dar Al-Dhiya for printing and Designs - 2 Ed, – Najaf – February 2019,
13. https://www.researchgate.net/publication/331287344_CHAPTER_4_CURRENT_ASSETS

UO‘K 657.6:658.7:006.35(575.1)

Bobobekov Baxrom Kaxharovich
Jizzax politexnika instituti tadqiqotchisi.
Borya25878@gmail.com

TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA XORIJIY TAJIRIBA

Бобобеков Бахром Каххарович
Исследователь Джиззакского политехнического института.

УЧЕТ ЗАПАСОВ ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ОРГАНИЗАЦИИ

Bobobekov Bakhrom Kaxharovich
Researcher at the Jizzakh Polytechnic Institute.

FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING INVENTORY ACCOUNTS

Annotatsiya. Mazkur maqolada buxgalteriya hisobi tizimida kunning eng dolzarb bo‘lib turgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi 4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori ijrosini ta‘minlashga qaratilgan, korxonalarning iqtisodiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mablag‘lardan tovar-moddiy zaxirlarni hisobini tashkil etishda xorijiy davlatlarda qo‘llanilayotgan me‘yoriy hujjatlar va uslubiyotlar haqida keng to‘xtalib o‘tiladi. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarni tan olish, ularni baholash, kirimga olish va hisobdan chiqarish bo‘yicha xorijiy tajribani joriy etishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Tayanch so‘zlar. *Tovar-moddiy zaxira, tan olish, baholash, xalqaro standartlar, moliyaviy hisobot.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются нормативные документы и нормативные акты, применяемые в зарубежных государствах при организации учета товарно-материальных запасов из средств, имеющих важное значение в экономической деятельности предприятий, направленные на обеспечение исполнения постановления Президента Республики Узбекистан от 24 февраля 2020 года № 4611 “о дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности”, являющиеся наиболее актуальными в системе бухгалтерского учета дня. методики подробно остановимся на. Сформулированы также научные предложения и практические рекомендации, направленные на внедрение зарубежного опыта признания, оценки, поступления и списания товарно-материальных запасов.

Ключевые слова. *товарно-материальные запасы, признание, оценка, международные стандарты, финансовая отчетность.*

Abstract. This article provides a detailed discussion of the regulatory documents and methodologies used in foreign countries to organize the accounting of inventories, which are important funds in the economic activities of enterprises, aimed at ensuring the implementation of the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. 4611 dated February 24, 2020 "On additional measures for the transition to international financial reporting standards", which is currently the most relevant in the accounting system. It also provides scientific proposals and practical recommendations aimed at introducing foreign experience in the recognition, valuation, inclusion and write-off of inventories.

Keywords. inventories, recognition, valuation, international standards, financial reporting.

KIRISH

Globallashuv jarayoni nafaqat uzoq muddatli aktivlarni, balki, kompaniyalarning faoliyatida muhim rol o'ynaydigan aylanma mablag'lar, jumladan tovar-moddiy xaziralar hajmini yanada oshirishga qaratilgan. Ma'lumotlariga ko'ra, yirik kompaniyalarning aylanma mablag'lar tarkibida tovar-moddiy xaziralarning ulushi o'sib borish tendensiyasiga ega, jumladan "Mercedes Benz Group" (Germaniya)da 25,9 foiz, "Hisense Electric Co Ltd" (Hitoy) - 25,0 foiz, "Mitsubishi Heavy Industries, Ltd" (Yaponiya) - 28,9 foiz, "Gazprom PJSC" (Rossiya) - 31,3 foiz, "Samsung Electro-Mechanics" (Janubiy Koreya) - 40,6 foiz hamda "Boeing Co" (AQSh) - 72,4 foizni tashkil etmoqda.

Bugungi kunda tovar-moddiy xaziralarni hisobga olish tartibi bo'yicha moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 2-son BHXS "Zaxiralar"da muhim bo'lgan qoidalar keltirilgan bo'lsada, ularni respublikamiz amaliyotiga keng joriy etish dolzarb hisoblanadi. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi 4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorining 3-bandida keltirib o'tilgan vazifalardan biri, amaldagi buxgalteriya hisobi milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga uyg'unlashtirib borishni taqozo etadi. Tovarmoddiy xaziralar hisobini takomillashtirishda

ilg'or bo'lgan xorijiy tajribalar mavjud bo'lib, faqatgina ushbu amaliyotdan to'g'ri va samarali foydalanish lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalarning aktivlari tarkibida deyarli salmoqdi ulushga ega bo'lgan tovar-moddiy xaziralar tushunchasi kengroq bo'lib, uning tarkibi xom-ashyo va materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot va tovarlardan tashkil topadi. Tovarmoddiy xaziralarga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va respublikamizdagi hujjatlarda berilgan ta'rif va tushunchalarga to'xtalib o'tamiz.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 2-son BHXS "Zaxiralar"da tovar-moddiy xaziralarga batafsil tushuncha berilgan va uning mohiyati to'liq ochib berilgan. Mazkur standartning maqsadi tovar-moddiy zahiralarni hisobga olish tartibini belgilashdan iboratligi ko'rsatib o'tiladi. Zahiralarni hisobga olishning asosiy masalasi aktiv sifatida tan olinadigan va tegishli tushumlar tan olinmaguncha kelgusi davrlarga o'tkaziladigan sarflar summasini aniqlashdan iborat bo'lib, mazkur standart talablariga ko'ra, "tannarxni aniqlash va uni xarajat sifatida keyingi tan olinishi, shu jumladan uni har qanday sof sotish qiymatigacha kamaytirilishi bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Shuningdek, unda sarflarni zahiralar qiymatiga olib borishda foydalaniladigan

tannarxni hisoblash formulalari bo'yicha muhim uslubiy qoidalar keltirib o'tilgan. Ushbu standartda tovar-moddiy zaxiraga quyidagi ta'rif keltirib o'tilgan: "*Zahiralari*: odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan, sotish uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan; ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida ishlatiladigan xom ashyo yoki materiallar shaklida bo'lgan aktivlardir".

Tovar-moddiy zahiralari tushunchasiga buxgalteriya hisobining milliy standartlarida quyidagi ta'rif berilgan: "tovar-moddiy zaxiralari - faoliyat yuritish jarayonida keyinchalik sotish maqsadida saqlab turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan. Shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yohud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar".

BHXS 2 talablariga muvofiq, tovar-moddiy zaxiralari tannarxi va sof sotish qiymatining eng kam bo'yicha baholanadi. Aktivlarni eng kam baholash qoidasi ehtiyotkorlik (konservatizm) tamoyiliga asoslanadi. Bunday yondashuv kreditorlar uchun balansning ahamiyatini oshiradi.

Sotib olish mumkin bo'lgan sof qiymat oddiy biznes sharoitida sotib olish va sotish xarajatlarini chegirib tashlagan holda taxminiy sotish narxini bildiradi. Sotish mumkin bo'lgan sof qiymat korxona faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki. Korxona mahsulotlarni xaridorlarga bozor narxlariga asoslanmagan, kelishilgan narxlarda jo'natganda, sof sotish narxi bozor narxini aks ettirmasligi mumkin.

Respublikamizda iqtisodchi olimlar tomonidan tovar-moddiy zaxiralarning mohiyati, ularni tasniflash va baholash masalalari keng o'rganilgan, jumladan A.Ibragimovning fikricha: "tovar-moddiy zaxiralari - faoliyat yuritish jarayonida

foydalaniladigan hamda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida, shuningdek, ma'muriy vazifalarni amalga oshirishda foydalaniladigan aylanma mablag'lardir".

A. Karimov va boshq. asarida tovar-moddiy zahiralari ishlab chiqarish zaxiralari sifatida o'rganilgan va ularni xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishlab chiqarish faoliyatini normal davom etishini ta'minlaydi deb o'z fikrlarini bayon etganlar.

S.Tashnazarov: "milliy standartimizda tovar-moddiy zaxiralarga berilgan ta'rifda "ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish" degan jumlaning olib tashlash kerak, deb o'ylaymiz, chunki bu jumla uzoq muddatda foydalanadigan moddiy aktivlarning ta'rifida ham keltirilgan".

M.Xaytboyev: "Tovar-moddiy zaxiralari ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilinadigan moddiy aktivlar hisoblanib, ularning qiymati tayyor mahsulotlar qiymatiga to'liq o'tkaziladi. Ular xarajatlar tarkibida eng katta ulushni egallaydi va moliyaviy natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi".

Tovar-moddiy zaxiralari bo'yicha adabiyotlarni keng tadqiq etish natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, tovar-moddiy zaxiralari ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan iqtisodiy resurslar bo'lib, o'zining qiymatini boshqa bir mahsulot qiymatiga to'liq o'tkazadi, korxonalarining joriy aktivlari tarkibida deyarli salmoqli ulushga ega bo'ladi va korxonaning moliyaviy holatini baholash hamda boshqaruv samaradorligini oshirishda asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish davomida guruhlash, taqqoslash, ilmiy tafakkur, iqtisodiy-statistik, tadqiqot ob'ektlari va olingan natijalarni bayon qilish usullaridan keng foydalanildi.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalasida respublikamizdagi va xorijdagi me'yoriy xujjatlarga keng e'tibor qaratildi. Tovar-moddiy zaxiralar hisobini metodologik jihatdan takomillashtirishda amaldagi 4-son BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli standartning tegishli bandlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar berildi va bunda buxgalteriya hisobining elementlari va metodlari hamda tamoyillari tadqiq etildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishdagi xalqaro tajribaga e'tibor birinchi navbatda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga qaratiladi. Moliyaviy hisobotlar xalqaro Qo'mitasi (MHXSQ, Fondi) tomonidan dastlabki standartlar ko'rinishida yaratilgan 2-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS, IAS) "Zaxiralar" nomli standartning o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu standartning maqsadi zahiralarni hisobga olish tartibini belgilashdan iborat bo'lib, hisobga olishning asosiy masalasi aktiv sifatida tan olinadigan va tegishli tushumlar tan olinmaguncha kelgusi davrlarga o'tkaziladigan sarflar summasini aniqlashga qaratiladi. Standartda zaxiralar tannarxni aniqlash va uni xarajat sifatida keyingi tan olinishi, shu jumladan uni har qanday sof sotish qiymatigacha kamaytirilishi bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Shuningdek, unda sarflarni zahiralarning qiymatiga olib borishda foydalaniladigan tannarxni hisoblash formulalari o'z ifodasini topgan. Demak, BHXS 2 "Zaxiralar" MHXS (IFRS) talablariga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlarda tovar-moddiy zaxiralar to'g'risidagi ma'lumotlarning taqdim etilishini tartibga soladi.

Respublikamizda amaldagi 4-son BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli

standart qoidalarida ham moliyaviy instrumentlar hisobini yuritishga nisbatan tadbqiq etilmasligi ko'rsatib berilgan. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari tarkibida qishloq xo'jaligi bilan bog'liq standartning mavjud emasligi biologik aktivlarga nisbatan ham tadbqiq etilmasligi bayon etilmagan. Aynan qishloq xo'jaligi faoliyati va yig'im terim paytidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan bog'liq biologik aktivlar 4-son BHMS tarkibida ifodalanadi.

Demak, firkrimizcha kelgusida MHXS talablari asosida biologik aktivlar bo'yicha standartni yaratish yoki moliyaviy hisobotning xalqaro standarti 41-son BHXS "Qishloq xo'jaligi" standart qoidalarini amaliyotga joriy etish mumkin bo'ladi. Bu esa "Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli (24.02.2020 y.) Prezident qarorining 3-bandida keltirilgan vazifalar ijrosini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Xalqaro standartda tovar-moddiy zaxiralarni tan olish mezonlari keltirib o'tilmagan bo'lsada, ularga berilgan ta'rif tan olish mezoni talablariga deyarli to'g'ri keladi:

"Zahiralar:

a) odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan;

b) sotish uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan;

v) ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida ishlatiladigan xomashyo yoki materiallar shaklida bo'lgan aktivlardir".

An'anaviy ravishda zaxiralarni baholashda ikkita yondashuv mavjud:

birinchi, xaqiqiy qiymati bo'yicha;

ikkinchi, joriy bozor qiymati bo'yicha.

Birinchi usul korxonalarining yalpi daromadini eng ishonchli baholashni ta'minlaydi, lekin balansdagi aktivlarni baholashda aniq ma'lumotlarni taqdim

etmaydi, ikkinchi usul buxgalteriya balansidagi aktivlarni aniqroq baholash imkonini beradi, lekin sotish tannarxini buzib ko'rsatadi.

BHXS 2 talablariga muvofiq, tovar-moddiy zaxiralar tannarxi va sof sotish qiymatining eng kami bo'yicha baholanadi. Aktivlarni eng kam baholash qoidasi ehtiyotkorlik (konservatizm) tamoyiliga asoslanadi. Bunday yondashuv kreditorlar uchun balansning ahamiyatini oshiradi.

Sotib olish mumkin bo'lgan sof qiymat oddiy biznes sharoitida sotib olish va sotish xarajatlarini chegirib tashlagan holda taxminiy sotish narxini bildiradi. Sotish mumkin bo'lgan sof qiymat korxona faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi. Shuni aloxida ta'kidlab o'tish joizki, korxona mahsulotlarni xaridorlarga bozor narxlariga asoslanmagan, kelishilgan narxlarda jo'natganda, sof sotish narxi bozor narxini aks ettirmasligi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi:

- ishlab chiqarish;
- sotib olish;
- qayta ishlash;
- tashish va boshqa shunga o'xshash boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

O'z navbatida, sotib olish xarajatlari (sotib olish qiymati yoki sotib olish qiymati) sotib olish narxini, transport va tushirish xarajatlarini, qaytarilmaydigan soliqlarni va import bojlarini o'z ichiga oladi. Savdo chegirmalari, to'lovlarni qaytarish va boshqa shunga o'xshash narsalar sotib olish xarajatlarini aniqlashda chegirib tashlanadi.

Amaldagi 4-son BHMS "Tovar-moddiy zahiralar" nomli standartda ishlab chiqarishdagi me'yordan ortiqcha moddiy xarajatlar va ish haqi bilan bog'liq to'lovlar hamda boshqa me'yordan ortiq bo'lgan xarajatlar, mahsulot tannarxiga olib borilishi ko'rsatib berilgan.

Bizning fikrimizcha agar BHMSlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtiriladigan

bo'lsak, mazkur xarajatlarni davr xarajatlari sifatida tan olishimizga to'g'ri keladi, bir vaqtning o'zida BHMS qoidalariga ham o'zgartirishlar kiritishni talab etadi.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil etish va uni samarali yuritishda xorijiy tajribani keng o'rganish va ulardagi muhim bo'lgan uslubiyotni korxonalar amaliyotiga joriy etish bugungi kunning asosiy vaziflardan hisoblanadi. Shu bois biz Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT), Markaziy osiyo davlatlari (MO) hamda Shanxay xamkorlik tashkiloti (ShHT)ga a'zo davlatlarning tajribalariga to'xtalib o'tamiz.

Xususan, Qozog'istonda TMZlarning me'yoriy-huquqiy asoslari "Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Mazkur qonundan keyin TMZ hisobini yuritish qoidalarini belgilab beruvchi buxgalteriya hisobining standartlari mavjud. Natijada, buxgalteriya hisobi standartlari buxgalteriya hisobi tizimini tartibga solishning ikkinchi darajasi bo'lib, ular moliyaviy hisobotlarni taqdim etuvchi barcha sub'ektlar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Qozog'istonda buxgalteriya hisobi standartlari asosida alohida buxgalteriya bo'limlari (sohalari), shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlarining tarmoq va boshqa o'ziga xos xususiyatlari uchun asosiy buxgalteriya qoidalari belgilanadi.

Qozog'iston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobotning milliy standartlari"da tovar-moddiy zaxiralar xususida quyidagilar ko'rsatib berilgan:

Paragraf 3. Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish

Tovar-moddiy zaxiralar quyidagilarga bo'linadi:

- 1) qayta sotish uchun sotib olingan va saqlanadigan tovarlar;
- 2) qayta sotish uchun mo'ljallangan

mulk (yer, binolar, avtomobillar va boshqalar);

3) sub'ekt tomonidan ishlab chiqarilgan va sotish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulotlar;

UniCredit holati biroz boshqacha. Aprelda, 2016 yildan beri lavozimida bo'lgan boshqaruvchi direktor Jean-Pierre Mustier iste'fo berdi va o'rniga Andrea Orcel, UBS Investitsiya Bankining sobiq prezidenti, 2018 yilda Santander boshqaruvchi direktori bo'lish uchun muvaffaqiyatsiz harakat qilgan shaxs keldi. May oyida, janob Orcel bankni o'sishga yo'naltirilgan yangi bosqichga o'tish maqsadida, kichik italiyalik raqiblarni sotib olish imkoniyatlarini ochish niyatida ekanligini bildirdi-bu Mustier tomonidan avval rad etilgan edi.

Ispaniyaning 17-o'ringda joylashgan Santander Bank eng yirik banklar orasida to'rtinchi o'rinni egallab, \$2,6 milliard yo'qotish qayd etdi. O'tgan yil iyulida, uning 160 yillik tarixida birinchi yo'qotishini e'lon qildi. Milliy darajada esa, Irlandiya, Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya va Kiprda soliqdan oldin yo'qotishlar kuzatilmoqda.

Global pandemiya davrida moliyaviy jinoyatlar ko'paydi, bu esa tijorat banklarining xavfsizlik strategiyalarini qayta ko'rib chiqishiga olib keldi. Tijorat banklari moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishda bir qator muhim chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ushbu chora-tadbirlar quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan:

Raqamli xavfsizlik va kiber moliyaviy firibgarlik: Pandemiya tufayli ko'plab banklar o'z xizmatlarini raqamlashtirishga o'tishdi, bu esa kiber moliyaviy firibgarliklar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Banklar kiber hujumlar va ma'lumotlarni o'g'irlashga qarshi himoya choralarini kuchaytirdi. Mijoz ma'lumotlarini himoya qilish, zamonaviy xavfsizlik tizimlarini joriy etish va kiber xavfsizlik bo'yicha xodimlarni o'qitish zarur bo'ldi.

KYC (Know Your Customer) jarayonlarini kuchaytirish: Mijozlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish banklar uchun juda muhimdir. KYC jarayonlarini yanada kuchaytirish orqali banklar moliyaviy jinoyatlar, jumladan, pul yuvish va firibgarlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirmoqda.

Axborot almashish va hamkorlik: Banklar moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishda boshqa banklar, davlat organlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirdi. Axborot almashish va eng yaxshi tajribalarni o'rganish banklarning samaradorligini oshiradi.

Tekshiruv va monitoring jarayonlari: Banklar moliyaviy operatsiyalarni doimiy ravishda nazorat qilish va tekshirish uchun ilg'or texnologiyalarni joriy etdi. Tahlil qilish va monitoring jarayonlari yordamida shubhali operatsiyalarni tezda aniqlash va ularga javob berish imkoniyati paydo bo'ladi.

Malaka oshirish va treninglar: Bank xodimlarini moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha malakasini oshirish uchun trening dasturlari tashkil etilmoqda. Bu

xodimlarning jinoyatlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish qobiliyatini kuchaytiradi.

Mijozlarga xizmat ko'rsatish va ishonchni oshirish: Mijozlar bilan ochiq va shaffof muloqot o'rnatish, banklar uchun ishonch muhitini yaratadi. Mijozlar o'z pullarini himoya qilishda banklarning ishlariga ishonishlari muhimdir.

Innovatsion texnologiyalar va analitika: Banklar moliyaviy jinoyatlarni aniqlashda sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar analitikasi kabi innovatsion texnologiyalarni qo'llamoqda. Bu jarayonlar jinoyatlarni oldindan aniqlash va ularga qarshi chora-tadbirlarni ko'rishga yordam beradi.

Ushbu chora-tadbirlar tijorat banklarining moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishdagi faoliyatini yanada samarali qilishga xizmat qiladi va pandemiya sharoitida barqarorlikni ta'minlaydi. Tijorat banklari kelajakda moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishda yanada mustahkam pozitsiyalarni egallashga intilishmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, so'nggi bir necha yil ichida dunyo mamlakatlari turli iqtisodiy o'zgarishlarga duch keldi va bu o'zgarishlar ko'plab yangi imkoniyatlar hamda sinovlarni keltirib chiqardi. Pandemiya, geopolitik o'zgarishlar, iqtisodiy krizislar va texnologik rivojlanishlar kabi omillar butun dunyo bo'ylab iqtisodiy strukturalarni, bozorlardagi aloqalarni va davlatlar o'rtasidagi savdosotiqni o'zgartirdi.

COVID-19 pandemiyasi ko'plab saboqlarni taqdim etdi, ulardan biri banklar uchun noaniqlik davrida ishonchni saqlab qolish zarurligidir. Global iqtisodiyot pandemiyaning bevosita tahdidlaridan qutila boshlaganda, ko'plab institutlar moliyaviy jinoyatlarga bo'lgan muvofiqlik yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishi va

ushbu ishonchni tiklash va rejalashtirish jarayonlarini boshlashi mumkin.

Banklar moliyaviy jinoyatlar ko'payishini kutayotgan paytda va kelajakdagi noaniqliklardan himoyalaniish yo'llarini o'rganishda, ko'plab banklar o'z operatsion modellari ustida qayta ishlamoqda. Ishonchli tiklanishni ta'minlash uchun kuchli hamkorlar ekotizimini, jumladan, boshqariluvchi xizmat ko'rsatuvchi provayderlarni o'z ichiga olgan holda o'rnatish muhimdir.

Xitoy banklari COVID-19 pandemiyasidan keyin sekin iqtisodiy o'sish davrida bosimga duch kelsalar ham, mamlakatdagi raqobatchi banklar ushbu qiyinchiliklarni osonlik bilan yengib o'tdilar.

COVID-19 pandemiyasi global iqtisodiyotda kutilmagan ta'sirlar yaratdi. Bu davrda ko'plab banklar moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishda o'z strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lishdi.

Raqamli Transformatsiya: Pandemiya vaqtida banklar mijozlarga xizmat ko'rsatishni raqamli platformalar orqali amalga oshirishga o'tdi. Bu jarayon KYC (Mijozni tanib olish tizimi) va tranzaksiyalarni monitoring qilishni raqamlashtirishni talab qildi.

Xavfsizlik va Tezlik O'rtasidagi Balans: Banklar operatsion xarajatlarni kamaytirish bilan birga, tezkor qarorlar qabul qilish zaruriyatini ham ko'rib chiqdilar. Bu, xususan, offshore markazlaridagi muammolarni hal qilish uchun yangi model va strukturalarni yaratishga olib keldi.

Operatsion Modellarini ko'rib chiqish: COVID-19 pandemiyasi banklarga o'z operatsion modellarini yanada moslashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Katta global voqealar davomida tezkor javob berish qobiliyati muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda.

Tashqi hamkorlar va boshqariladigan xizmatlar: ko'plab banklar o'z moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish funksiyalarini

kuchaytirish maqsadida tashqi hamkorlar bilan ishlashni o'ylab ko'rmoqda.

Xavflarni oldini olish: Banklar o'zlarining ichki nazorat va xavflarni aniqlash tizimlarini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirdilar. Bu, moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mimkinki, ayni paytda geosiyosiy vaziyatlar chuqurlashib borayotgan bir vaqtda 2025-2035 yillar oralig'ida dunyoning yirik banklarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy firibgarliklarni oldini olish va ularga qarshi kurashish lozim.

Shuningdek, 2025-2035 yillar oralig'ida dunyoning yirik banklarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy firibgarliklar va ularga qarshi kurashish haqida gapirganda, bir nechta muhim omillarni va xavf-xatarlarni hisobga olish zarur. Geosiyosiy vaziyatlarning murakkablashishi, iqtisodiy o'zgarishlar, va texnologiyalarning rivojlanishi bank sektori uchun yangi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Global pandemiya sharoitida tijorat banklarining moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishda olib borayotgan faoliyatlari ularning innovatsion yondashuvlarini, raqamli transformatsiyasini va xavfsizlikka qaratilgan chora-tadbirlarini kuchaytirishni talab qilmoqda. Bunday chora-tadbirlar bank sektorining barqarorligini ta'minlashda va kelajakdagi moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi.

Zeroki, moliyaviy firibgarliklarni oldini olish va ularga qarshi kurashish uchun global, milliy va mahalliy darajalarda bir nechta yondashuvlar zarur. Geosiyosiy vaziyatlarning o'zgarishi, iqtisodiy noaniqliklar va texnologik yangiliklar banklar va moliyaviy tizimlarga yangi xavf-xatarlar keltirishi mumkin. Biroq, kuchli regulatsiya, zamonaviy texnologiyalar, ichki nazorat tizimlari va xalqaro hamkorlik bu firibgarliklarni samarali ravishda oldini olishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi 2019 yil 05 noyabrdagi -580-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni.
2. Петрова О.С. Экономическая безопасность банковской системы. «Экономика, право и управление». 2/2015год стр.130
3. Гриценко Р.А. Определение экономической безопасности банковской системы / Р.А.Гриценко // Банковский вестник. – 2005. -№2. – С. 99-103.
4. Лаврушин О.И. Банковские риски: учеб. пособие / О.И. Лаврушин, Н.И. Валенцева. – М.: КноРус. – 2016. – 292 с.
5. Илинич, Е.В. Экономическая безопасность в сфере банковской деятельности специальность / Автореф. канд. экон. наук. – М.,2004. – 13 с.
6. Abulqosimov X.P., Mamatov A.A., Mamatov SA, Saidgazieva S.S. Iqtisodiy xavfsizlik. -Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Jamoat universiteti, 2022.-732bet
7. Тарадаева, А.В., Сюмкина, А.А. Теоретические аспекты экономической безопасности коммерческого банка / А.В. Тарадаева, А.А. Сюмкина // Вектор экономики. - 2017. - №4(10). - С. 38.
8. Чурилов А.С., Всяких Ю.В. Базовые элементы и основные составляющие системы экономической безопасности коммерческого банка // Приволжский научный вестник. 2016. №1 (53), 75-81 с.

9. Азарская М.А., Поздеев В.Л. Принципы экономической безопасности коммерческих банков // Вестник Московского университета МВД России. 2016, №6, 149-152 с.
10. Светлова В.В. Механизмы и инструменты эффективной системы экономической безопасности коммерческих банков / Автореф. канд. экон. наук. – М., 2018. – С.10.
11. Семенов Константин Олегович. Концептуальная модель обеспечения экономической безопасности коммерческих банков // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2021. №5, 208-212 с.
12. Altman, E., Corporate financial distress and bankruptcy. (3rd ed.). New York: John Wiley & Sons, Inc.
13. Ештокин С.В. Повышение экономической безопасности коммерческих банков на основе применения системы мониторинга кредитных рисков / Автореф. канд. экон. наук. – М., 2020. – С.24.
14. Мельник Дмитрий Юрьевич. Проблемы идентификации рисков и угроз экономической безопасности кредитной организации // ВЭПС. 2019, №2, 23-26 с.
15. Stuart F. Taylor «Financial Crime and Corruption: A Guide for Bankers» 2020.
16. Peter Rees «Money Laundering and Financial Crime: A Guide to Compliance and Control» 2022.
17. <https://www.sciencedirect.com> rasmiy veb sayti ma'lumotlari
18. <https://finlit.uz/uz/articles/payments-and-transfers/social-engineering-financial-security/>

Udk:33c5(c52):336.5

Ruziyev Baxtiyor Salimboyevich
PhD. mustaqil tadqiqotchi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI
OSHIRISH YO‘LLARI

Рузиев Бахтиёр Салимбоевич
PhD. независимый исследователь, Ташкентский
государственный экономический университет

ПУТИ УВЕЛИЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ АКТИВОВ КОММЕРЧЕСКИХ
БАНКОВ

Ruziyev Bakhtiyor Salimboevich
PhD. Independent Researcher, Tashkent State University of Economics

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatida aktivlar samaradorligini oshirish masalalari atroflicha o'rganiladi. Bank aktivlarini samarali boshqarish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi va bu jarayondagi asosiy omillardan biri sifatida Prezident qarorlari bilan belgilangan islohotlar hamda Markaziy bank tomonidan taqdim etilgan oxirgi statistik ma'lumotlar tahlil qilinadi. Tadqiqotlarimiz asosida bank tizimini rivojlantirish yo'lida aktivlarni boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar va aniq tavsiyalar keltiriladi.

Tayanch so'zlar: tijorat banklari, bank aktivlari, kredit, investitsiya, Markaziy bank.

Аннотация. В данной статье представлено комплексное рассмотрение вопросов, связанных с повышением эффективности активов в деятельности коммерческих банков. Эффективное управление активами играет жизненно важную роль в обеспечении экономической стабильности под влиянием реформ, намеченных в указах президента, и последних статистических данных Центрального банка. На основе нашего исследования в исследовании предложены научные выводы и конкретные рекомендации, направленные на повышение эффективности управления активами в банковском секторе Узбекистана.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковские активы, кредит, инвестиции, Центральный банк.

Abstract. This article provides a comprehensive examination of issues related to improving asset efficiency in the activities of commercial banks. Effective asset management plays a vital role in ensuring economic stability, influenced by reforms outlined in presidential decrees and

the latest statistics from the Central Bank. Based on our research, the study offers scientific conclusions and specific recommendations aimed at enhancing the efficiency of asset management in Uzbekistan's banking sector.

Key words: commercial banks, bank assets, credit, investment, Central Bank.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish jarayonida tijorat banklari faoliyatining samaradorligi muhim o'rin tutadi. Tijorat banklari iqtisodiy o'sishga turtki beradigan asosiy moliyaviy institutlardan biri bo'lib, ularning samaradorlik darajasi to'g'ridan-to'g'ri aktivlarni boshqarish sifatiga bog'liqdir. Aktivlar samaradorligini oshirish esa moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda, aholining ishonchini mustahkamlashda va umumiy iqtisodiy taraqqiyotda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir qator qaror va farmonlar tijorat banklari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan. Jumladan, 2020 yil 12 maydagi «2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF-5992-sonli Farmonda bank aktivlaridan samarali foydalanish, moliyaviy rivojlanishni tezlashtirish, bank tizimini modernizatsiya qilish va kapital yetarililigini oshirish kabi vazifalar belgilab berilgan [1]. Ushbu farmon doirasida tijorat banklariga aktivlarni boshqarishda zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilgan bo'lib, bu hujjatlar O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

Markaziy bankning 2023 yilgi Statistik byulleteni ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda tijorat banklari aktivlari umumiy hajmi 500 trln so'mni tashkil etdi, bu esa o'tgan yilga nisbatan salmoqli o'sishni ko'rsatadi. Shuningdek, aktivlardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichi, ya'ni

aktivlar rentabelligi (ROA) 1,4% darajada belgilangan [2]. Ushbu ko'rsatkichlar bank tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi va bu sohadagi islohotlarning amaliy natijalarini aks ettiradi. Markaziy bankning ushbu raqamlari tijorat banklari uchun kelgusida qanday choralar ko'rish kerakligiga aniq yo'nalish belgilashda katta ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank aktivlari va ularning samaradorligi iqtisodchi olimlar tomonidan turli jihatlardan tahlil qilinadigan muhim dolzarb mavzu va tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Shu bois, mazkur tadqiqotimiz doirasida ayrim xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining fikrlari asosida bank aktivlari samaradorligining ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Xorijiy iqtisodchilardan Frederix Mishkin o'z asarida bank aktivlarini samarali boshqarish iqtisodiy barqarorlikning asosiy omillaridan biri ekanligini ta'kidlaydi [3]. Unga ko'ra, banklar o'z aktivlarini to'g'ri boshqarish orqali kredit berish jarayonini yaxshilashga va umumiy bank tizimining barqarorligini ta'minlashga erishishlari mumkin. Mishkinning fikri bo'yicha, bank aktivlaridan unumli foydalanish bank tizimidagi xavf-xatarlarni kamaytirishga yordam beradi.

Bunday yondashuv, shubhasiz, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, uning fikrlari bank tizimida ortiqcha konservatizmga olib kelishi va banklarning rivojlanishini cheklash imkoniyatini ham o'zida aks ettiradi.

Richard Kaston va Skott Besli esa bank aktivlarining samaradorligini oshirish orqali aktivlarning daromadlilikini oshirish mumkinlini ta'kidlaydi [4]. Ular aktivlarni samarali boshqarish asosida ularning sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratadi, shuningdek bu borada ayrim usullarni ishlab chiqishga katta e'tibor berishgan. Shu bilan birga, ularning fikricha, aktivlarning rentabelligini oshirish banklarning ichki tuzilmalarini yaxshilash orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Ammo, aktivlarning samaradorligini oshirishga ko'p miqdordagi resurslar talab qilinishi sababli, bu banklarning sarf-xarajatlarini ko'paytiradi, bu esa daromadning kamayishiga olib kelishi mumkin.

Tijorat banklari aktivlarini samaradorligini oshirishga mahalliy iqtisodchilar ham alohida e'tibor qaratib kelishgan. Xususan, Sh. Xakimov o'z maqolasida bank aktivlarining samaradorligi va ularning iqtisodiyotga ta'sirini yoritadi [5]. U o'z tadqiqotida, bank aktivlaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotdagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, bank aktivlarini samarali boshqarish mamlakat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, Xakimovning fikriga ko'ra, mahalliy banklar uchun samaradorlikka erishish uchun zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish zarur.

Boshqa o'zbekistonlik iqtisodchi Umid Abdullayev esa raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish orqali bank aktivlarining samaradorligini oshirishni taklif qiladi [6]. Unga ko'ra, raqamli texnologiyalardan foydalanish bank tizimidagi samaradorlikni oshiradi, lekin buning uchun qo'shimcha sarmoya talab etiladi. Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi bank aktivlaridan unumli foydalanishga yordam bersa-da, uning qo'llanilishida ma'lum qiyinchiliklar ham uchraydi, jumladan, resurslarning yetishmasligi.

Bizning fikrimizcha, bank aktivlarining samaradorligini oshirish uchun xorijiy va mahalliy tajribalardan samarali foydalanish zarur. Xorijiy iqtisodchilarning nazariyotlari aktivlar samaradorligini oshirishda ilmiy asoslangan yondashuvlarni ta'minlasa, mahalliy iqtisodchilarning takliflari O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda ishlab chiqilishi lozim. Bank tizimining samaradorligiga erishishda to'g'ri boshqaruv usullari va zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu jarayonlardagi turli xavf-xatarlarni hisobga olib, tizimli yondashuvni rivojlantirish lozim.

Ushbu maqolada abstraksiya, qiyosiy va tarkibiy tahlil, induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, tizimli yondashuv, kuzatuv, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, mahalliy va xorijiy olimlarning tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishga qaratilgan qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekiston bank tizimi iqtisodiyotning o'tish jarayoni va tobora globallashtirib borayotgan xalqaro amaliyotda bank aktivlarini samarali maqsadlarga joylashtirish va ularni iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishdagi jihatlariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Ta'kidlash joizki, tijorat banklarining aktiv operatsiyalari- bu ularning passiv operatsiyalari natijasida shakllangan mablag'larini iqtisodiy jihatdan daromad (foyda) olish maqsadida turli maqsadlarga

joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalardir. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari ularning faoliyatida juda muhim hisoblanadi. Chunki ular ushbu operatsiyalar orqali daromadlarni shakllantiradilar va aktiv operatsiyalar doimo ma'lum darajada risk, ya'ni qarzdorning defolti (to'lovga qobiliyatsizlik) bilan bog'liq bo'ladi.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini to'rtta guruhga ajratish mumkin.

1. Erkin zahiralar – bunga kassadagi naqd pullar, Markaziy bankdagi vakillik hisob varaqlaridagi qoldiqlar, boshqa kredit tashkilotlarning vakillik hisob varaqlaridagi mablag'lar. Erkin zahiralar yuqori likvidli mablag'lar hisoblanib, bankka qisman yoki umuman daromad keltirmaydi.

2. Berilgan kreditlar va depozit ko'rinishida boshqa moliya muassasalariga, shuningdek Markaziy bankka joylashtirilgan mablag'lar.

3. Investitsiyalar – bu bankning qimmatli qog'ozlarga va nomoddiy aktivlarga, shuningdek pay ko'rinishida xo'jalik faoliyatiga yo'naltirilgan resurslari.

4. Bankning o'ziga (ichki investitsiyalar) moddiy va nomoddiy aktivlarga yo'naltirilgan mablag'lari. Bunga bank faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo'lgan binolar, jihozlar va boshqa uskunalar kiradi.

Tijorat banklarining daromadi bankning ikkinchi va uchinchi guruhiga kiruvchi aktiv operatsiyalari hisobidan tashkil topib, bank aktivlarining risk darajasi qancha yuqori bo'lsa, ushbu operatsiyalardan kelayotgan daromadlar miqdori ham shuncha yuqori bo'ladi va aksincha.

Aktivlar daromad keltirish darajasiga qarab:

- Daromad keltiradigan (kredit va investitsiyalar);
- Daromad keltirmaydigan (erkin zahiralar, moddiy aktivlarga bo'linadi).

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari Markaziy bankning tegishli normativ hujjatlariga asosan riskka tortilgan darajasiga qarab to'rtta guruhga bo'linadi.

- Birinchi guruhga – riskdan ozod bo'lgan aktivlar – 0;
- Ikkinchi guruhga – minimal risk darajasiga ega aktivlar – 20;
- Uchinchi guruhga – o'rta risk darajasiga ega aktivlar – 50;
- To'rtinchi guruhga – yuqori riskli aktivlar – 100.

Bank aktivlari likvidli, ya'ni tez naqd mablag'ga aylantirish imkoniyati bo'lishi kerak. Bank aktivlari likvidlilik nuqtai nazaridan quyidagilarga bo'linadi:

- Yuqori likvidli aktivlar- bevosita pul ko'rinishidagi mablag'lar bo'lib, ushbu aktivlar istalgan paytda bank maburiyatini bajarishga yo'naltirilishi mumkin;
- Qisqa muddatli likvidli aktivlar – qisqa muddatli kreditlar va ikkilamchi bozorga ega bo'lmagan qimmatli qog'ozlar;
- Qiyin realizatsiya qilinadigan aktivlar – o'rta va uzoq muddatli kreditlar, ikkilamchi bozorga ega bo'lmagan qimmatli qog'ozlar, pay ulushlari va boshqalar;
- Past likvidli aktivlar – bankning asosiy vositalariga yo'naltirilgan mablag'lar kiradi.

O'zbekiston tijorat banklari aktivlari tarkibida riskka tortilgan aktivlarning hajmi keyingi yillarda 75-80 foizdan yuqori bo'lgan. Bank aktivlari tahlilini chuqurlashtiradigan bo'lsak, kassa va unga tenglashtirilgan mablag'lar ulushi sezilarli darajada pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, bank aktivlari tarkibida ushbu moddaning ulushi, tahlil etilayotgan davrda o'rtacha 6,5-7,0 foizdan iborat bo'lgan.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston bank tizimi aktivlar tarkibi haqidagi umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekiston bank tizimi aktiv moddolari hajmi va dinamikasi¹

Aktiv moddalar	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.
Kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari	6 553,2	9 734,6	10 686,3	19 309,1	20 201,8
Markaziy bankdagi mablag‘lar	14 769,0	18 851,4	31 514,6	36 592,1	33 228,0
Boshqa banklardagi mablag‘lar - rezidentlar	10 089,4	13 146,0	13 302,5	17 423,7	24 368,5
Boshqa banklardagi mablag‘lar - norezidentlar	15 419,9	21 700,5	25 074,0	37 688,3	28 862,5
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar	3 157,2	9 447,7	19 633,7	31 507,9	32 548,3
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo‘yicha majburiyatlari	410,6	1 575,9	1 251,0	1 606,3	3 334,0
Kredit qo‘yimalari, sof	207 646,3	270 212,8	316 382,4	378 909,2	457 847,1
Asosiy vositalar, sof	5 723,1	8 314,2	11 031,9	14 242,9	19 874,9
Aktivlar bo‘yicha hisoblangan foizlar	3 306,3	7 881,6	9 387,1	12 295,3	19 249,8
Bankning boshqa xususiy mulklari	352,8	1 131,2	1 339,4	3 065,5	4 483,5
Boshqa aktivlar	5 299,1	4 125,1	5 319,6	4 105,8	8 158,7
Jami aktivlar	272 726,9	366 121,1	444 922,5	556 746,3	652 157,1

(1 yanvar holatiga, mlrd so‘mda)

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Jadval ma‘lumotlaridan tijorat banklari aktivlari bo‘yicha asosiy moddalarni yilma-yil tahlil qilish orqali 2020-2024 yillar 1 yanvarga bo‘lgan davrdagi o‘zgarishlarni ko‘rib chiqish mumkin.

Xususan, bank tizimi kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari 2020 yilda 6 553,2 mln so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib bu ko‘rsatkich 20201,8 mln so‘mgacha oshgan, ya‘ni o‘tgan davr mobaynida 208% o‘sgan. Bu bank tizimidagi likvidlikni saqlashga qaratilgan harakatlarning yuqori darajada oshganini anglatadi. Bunday o‘shish mijozlarga tezkor xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirsa-da, naqd pullarning ko‘payishi bank uchun ortiqcha sarf-xarajatlarni ham keltirib chiqarishi

mumkin, shuningdek ushbu moddalar bank uchun daromad keltirmaydigan aktivlar hisoblanadi.

Markaziy bankdagi mablag‘lar 2020 yilda 14 769,0 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda 31 514,6 mln so‘mgacha oshgan. Biroq, keyingi yillarda pasayib, 2024 yilda 33 228,0 mln so‘mga tushgan. Buning sababi tijorat banklar Markaziy bankdagi mablag‘larining hajmi absolyut summada ortib borayotgan bo‘lib banklar likvidligini ta‘minlashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, biroq ushbu aktiv moddalar ham bank uchun daromad keltirmaydigan aktiv moddalar hisoblanadi.

Investitsiyalar va qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha mablag‘lar juda katta o‘shishga

ega bo'lgan. 2020 yilda 3 157,2 mln so'mni tashkil qilgan bu modda 2024 yilga kelib 32 548,3 mln so'mgacha ko'paygan, bu esa 931% o'sishni ko'rsatadi. Bunday o'sish bankning daromadini diversifikatsiya qilishga va investitsiyalar orqali foydalanishga katta e'tibor berganini anglatadi. Tijorat banklari uchun ushbu modda aktivlarini diversifikatsiya qilish imkoniyatini bersada, biroq kreditlarga nisbatan daromadlilik darajasi past bo'ladi.

Kreditlar 2020 yilda 207646,3 mln so'mdan boshlanib, 2024 yilda 457847,1 mln so'mgacha oshgan, ya'ni 120% o'sgan. Bankning kredit qo'yilmalari orqali aholi va biznes sub'ektlariga xizmat ko'rsatish doirasida o'sish bo'lgani ko'rish mumkin. Bu o'sish bankning daromadlilikini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Biroq, kredit berish hajmining jadal oshishi bank tavakkalchiliklarni ortishi hisobiga aktiv moddalar sifatini yomonlashuviga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, bu raqamlar orqali bank faoliyatining barqarorligi va moliyaviy rivojlanishini ko'rsatish mumkin. Har bir asosiy aktiv modda bo'yicha yuqori o'sish ko'rsatkichlari bankning likvidlik va daromadlilikni oshirishga bo'lgan intilishini aks ettiradi. Ammo bu o'sishlarning barqarorligi va xavf-xatarlarning samarali boshqarilishi kelajakdagi muvaffaqiyatning muhim omilidir.

XULOSA

Tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirishning ayrim masalalari doirasida amalga oshirilgan o'rganishlar va tahlillar asosida quyidagi xulosalar va takliflarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

-tijorat banklarining likvidlik darajasini yuqori darajada saqlash uchun kassadagi naqd pullar va Markaziy bankdagi mablag'larni optimal darajada boshqarish zarur. Kassadagi naqd pullarning katta hajmda saqlanishi

mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatishda samarali bo'lsa-da, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkin. Shuning uchun likvidlikni ta'minlashdagi ehtiyojni hisobga olgan holda, bank aktivlarini diversifikatsiya qilish tavsiya etiladi;

-investitsiyalar va qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'larning jadal o'sishi bank aktivlarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi, bu ularning likvidligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, yuqori tavakkalchiliklarni hisobga olgan holda, investitsiyalar portfelini diversifikatsiya qilish va himoya mexanizmlarini joriy etish zarur. Bu bankka daromadni oshirish imkoniyatini beradi, shu bilan birga, tavakkalchiliklardan himoya qilishga yordam beradi;

-kreditlar hajmining ikki barobardan ko'proq o'sishi bank daromadlarining muhim manbai bo'lgani holda, moliyaviy xavf-xatarlarning ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu boisdan, qarzdorlarning kredit salohiyatini to'g'ri baholash mexanizmlarini rivojlantirish, shuningdek, kredit tavakkalchiliklarini boshqarish usullarini takomillashtirish lozim;

-bank tizimi aktivlarining umumiy hajmidagi o'sish ko'rsatkichlari ijobiy bo'lgani holda, ularni samarali boshqarish va yuqori rentabellikni ta'minlash uchun aktivlar strukturasini qayta ko'rib chiqish lozim. Jumladan, har bir aktiv moddasi bo'yicha daromadlilik va xavf darajasini tahlil qilish va zaruratga qarab optimallashtirish masalalariga doimiy ravishda e'tibor qaratish lozim.

Ushbu xulosalar va takliflar bank faoliyatining barqaror rivojlanishi va moliyaviy samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan. Bank aktivlarining samarali boshqaruvi uchun tavakkalchiliklarni kamaytirish va daromadlilikni oshirishga qaratilgan boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli Farmoni. "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida", 2020 yil 12 may. MANBA: [https:// https://lex.uz/docs/4811025](https://lex.uz/docs/4811025)
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Statistik byulleteni, 2023 yil. Markaziy bankning rasmiy veb-sayti: [https://cbu.](https://cbu.uz)
3. Mishkin, F. (2018). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. Pearson. www.pearson.com
4. Koch, T.W., & MacDonald, S.S. (2014). Bank Management & Financial Services. Cengage Learning. www.cengage.com
5. Xakimov, Sh. (2021). O'zbekistonda bank faoliyatini samarali boshqarish masalalari. Toshkent: Iqtisodiyot fanlari jurnali. www.economics.uz
6. Abdullaev, U. (2019). O'zbekistonda bank faoliyatida zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanish. Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali. www.economicsandinnovation.uz
7. Maddison, A. (2007). Contours of the World Economy 1-2030 AD. Oxford University Press. www.oup.com
8. Muxammadiev, I. (2020). Tijorat banklarida moliyaviy menejment va uning rivojlanishi. Toshkent: "Fan va Tahlil" nashriyoti. www.fanvatahlil.uz

UDK: 336.717.71**Xudayarov Oybek Odilovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank hisobi va auditi” kafedrası PhD., dotsenti
Email: o.khudoyorov@tsue.uz*

**BANKLARNING MASOFAVIY XIZMATLARGA TA’SIR ETUVCHI
OMILLAR**

Худаяров Ойбек Одилович

*PhD, доцент кафедры “Банковский учёт и аудит”
Ташкентского государственного экономического университета
Email: o.khudoyorov@tsue.uz*

**ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ДИСТАНЦИОННОЕ ОБСЛУЖИВАНИЕ
БАНКОВ**

Khudayarov Oybek Odilovich

*PhD, Associate Professor of the Department
of Banking Accounting and Audit
Tashkent State Economic University
Email: o.khudoyorov@tsue.uz*

FACTORS AFFECTING REMOTE SERVICES OF BANKING

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirishning nazariy asoslari, uning zamonaviy holati tahlili, tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq muammolar o‘rganilgan. Bundan tashqari, mazkur maqolada tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish borasida bir qator xorijiy mamlakatlarning tajribalari o‘rganilgan. Xorijiy mamlakatlar tajribalarining tahliliy natijalari asosida tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish istiqbollari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: Bank xizmati, bank mahsuloti, internet-banking, bank-mijoz, chakana bank xizmatlari, elektron banking, mobil-banking.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы совершенствования дистанционного банковского обслуживания в коммерческих банках, анализ его современного состояния, проблемы, связанные с совершенствованием дистанционного банковского обслуживания в коммерческих банках. Кроме того, в данной статье рассматривается опыт зарубежных стран по совершенствованию дистанционного банковского обслуживания в коммерческих банках. На основе результатов анализа опыта зарубежных стран разработаны предложения и рекомендации относительно

перспектив дальнейшего совершенствования экономических механизмов, связанных с совершенствованием дистанционного банковского обслуживания в коммерческих банках.

Ключевые слова: Банковское обслуживание, банковские продукты, интернет-банкинг, банк-клиент, розничные банковские услуги, электронный банкинг, мобильный банкинг.

Abstract. This article studies the theoretical foundations of improving remote banking services in commercial banks, analyzes its current state and discusses the problems associated with improving remote banking services in commercial banks. In addition, this article studies the experiences of a number of foreign countries in improving remote banking services in commercial banks. Based on the analytical results of the experiences of foreign countries, proposals and recommendations have been developed on the prospects for further improving economic mechanisms related to improving remote banking services in commercial banks.

Keywords: Banking services, banking products, internet banking, bank client, retail banking services, electronic banking, mobile banking.

KIRISH

Jahonda tijorat banklari tomonidan masofaviy xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish hamda yangi zamonaviy bank xizmatlarini joriy qilish va ularning sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda. Tijorat banklari masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish, banklar tomonidan masofaviy xizmatlarni mijozlarga yetkazish madaniyatini oshirish aholi keng qatlamining bankka bo'lgan ishonchini oshirish, banklar tomonidan yirik mijozlarni jalb qilish va ularning talab va takliflarini e'tiborga olgan holda yangi masofaviy xizmat turlarini taklif etish, mijozlarning fikrini doimiy e'tiborga olgan holda xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda bank-moliya tizimida olib borilayotgan tub islohotlarda tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishga, xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Respublikada "yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali, bank xizmatlari ko'lamini yanada kengaytirish, ilg'or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish" vazifasi belgilangan [1]. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlashda tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini

rivojlantirish borasidagi imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berish, banklar tomonidan masofaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq mezonlar bank strategiyasida o'z ifodasini topmaganligi, banklar xizmat turlari hamda sifatida jiddiy o'zgarishlar yuz berayotganligini, chet el banklari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari o'rnatilganligini hamda xorij tajribalarini O'zbekistonda ijobiy qo'llashga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dunyo bo'ylab moliyaviy iqtisodiy tizimining asosiy tarmog'i hisoblanadigan bank tizimi faoliyati xizmatlari soni kundan kun ko'payib, ortib bormoqda. An'anaviy bank xizmatlari bo'lmish depozit jalb qilish, to'lovlarni amalga oshirish, kredit ajratish xizmatlarining bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda taklif etish imkoni yaratilganligi banklar uchun yangi davrni boshlab berdi.

"Banklararo raqobat sharoitida texnika va texnologiyalarning rivojlanishi bank xizmatlari bozorida banklar tomonidan yangi zamonaviy xizmatlarni paydo bo'lishiga zamin yaratdi". "Internet-banking" o'z nomidan kelib chiqqan holda ma'lumotni

internet orqali uzatishga asoslangan xizmat. Mijoz bank bilan o'zaro aloqaga kirishish uchun standart Internet-brauzerdan foydalanadi, bu brauzer o'z navbatida tizimni mustaqil platformaga aylantirgan holatda har qanday internet tarmog'iga ulangan kompyuter bilan ushbu tizimdabemalol ishlash imkoniyatini yaratadi. Aynan mexanizm ishlash jarayoni "Internet-banking" universalligi va pul oqimlari bilan bo'ladigan harakatlarning tezkorligi hamda samaradorligini oshirish imkoni uni ham jismoniy shaxslarga, ham korxonalar uchun maqbul kelishini anglatadi.

Banklar tomonidan internetga asoslangan holda ko'rsatiladigan masofaviy xizmatlarini quyidagilar orqali ifodalab berishimiz mumkin:

- mijoz hisobraqami bo'yicha onlayn ma'lumotga ega bo'lishi;
- mijoz o'zining hisobraqami bo'yicha pul mablag'larining harakatini boshqara olish imkoniyatiga ega bo'lishi;
- to'lov operatsiyalarini o'tkazish;
- to'lovlar monitoringini kuzatib borish;
- hisobraqamni pul mablag'lari bilan to'ldirish va yoki mablag' yechib olish;
- pul mablag'larini o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lish;
- kreditlarni rasmiylashtirish.

"Bank mahsuloti – bu bank xizmati orqali alohida bank faoliyati turlarida mijozlar ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq xizmat va operatsiyalar jamlanmasidir"[2].

O'zbekiston bank tizimida olib borilayotgan tub islohotlarning pirovard maqsadi banklarning moliyaviy barqarorligini oshirish, raqamli iqtisodiyotda tijorat banklari raqobat muhitini kuchaytirish va natijada mijozlarga zamonaviy bank moliyaviy xizmatlarini ko'rsatishdan iboratdir[3].

Tijorat banklari bozorlarning to'la qonli ishtirokchisi sifatida ichki tashkiliy innovatsion jarayonlarning tashabbuskori bo'lgan holda o'z faoliyatini zamon talablari asosida o'zgartirishga to'g'ri kelmoqda.

Tabiiyki, bu jarayonlar stixiyali ravishda yuz berishi juda murakkab masala bo'lib, ular bank tizimini rivojlantirishning umumiy strategiyasining bir qismi bo'lib, ishlab chiqilgan innovatsion strategiya doirasidagi rejaga asoslangan holda amalga oshirishi zarur[4].

Tijorat banklarining masofaviy xizmatlari bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borgan mahalliy olimlarimizdan yana biri Z.T.Mamadiyarovning fikricha, "...bank tizimida masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi, birinchidan, odamlar hayotidagi o'zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarning joriy etilishi, ikkinchidan, bank operatsiyalarning avtomatlashtirilgani bilan bog'liq" [5].

Bugungi kunda masofadan turib, bankka bormasdan boshqariladigan xizmatlar bevosita elektron qurilmalar orqali foydalanilishi tabiiy holga aylanib bordi. Natijada, banklar masofaviy xizmatlari xususida "elektron banking" kabi fikr yurita boshlanganliklarini alohida qayd etish lozim [6].

"Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari – bu mijozning masofadan bergan topshiriqlariga asosan (bankka kelmasdan) bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalaridir. Asosan kompyuter va telefon tarmoqlari orqali amalga oshiriladi"[7].

Masofaviy bank xizmatlari bugungi kunda turli xilda va shakllarda ko'rsatilib kelinmoqda. Lekin, shu bilan bir qatorda Onlayn bankning afzalliklari va kamchiliklari to'g'risida ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Onlayn bankning afzalliklari xususida fikr yuritilganda, quyidagilarga to'xtalib o'tish lozim. Ya'ni:

Onlayn bankning ba'zi afzalliklari shunchaki, onlayn bo'lish bank bilan masofaviy birga bo'lish imkonini beradi, boshqalar uchun – bu onlayn banklar tomonidan ularning narxlari tuzilishidan foydalangan holda taqdim etiladigan raqobatbardoshlik ustunliklari sanaladi.

Onlayn bank tomonidan taqdim etiladigan eng muhim imtiyozlarga quyidagilar kiradi:

- 24/7 hisob qaydnomasi va xizmatga kirish imkoniyati;
- Tezlik va samaradorlik;
- Internet orqali to‘lovni to‘lash;
- Kam xarajatlar bilan ko‘p to‘lovlarni amalga oshirish;
- Kam xarajatlar bilan depozit hisobvaraqlari bo‘yicha yuqori foiz stavkalariga ega bo‘lish mumkin.

24/7 hisob va xizmatga kirish. Internetga ulangan bo‘lsangiz, onlayn-banklarga 24/7 kirish mumkin. Onlayn banklar ushbu imtiyozni bir qadam oldinga olib chiqib, sizga 24/7 telefon orqali haqiqiy mijozlarga xizmat ko‘rsatish agentiga murojaat qilish imkoniyatini beradi. Agar siz Internetga kirish imkoningiz bo‘lmasa yoki kompyuter algoritimga emas, balki inson miyasining yordamiga ehtiyoj sezsangiz, bu juda foydali bo‘lishi mumkin.

Moliyaviy savodxonlik markazlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari sifatida tijorat banklari tomonidan birinchi marta bankka tashrif buyurgan aholi va tadbirkorlarga moliyaviy savodxonlik ya‘ni bank bilan bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar bo‘yicha maslahatlarni berishni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, bu borada aniq taktika va strategiya ishlab chiqish, taktika va strategiyada belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan doimiy nazoratni yo‘lga qo‘yish, har bir mijozga alohida yondashuv asosida xizmat ko‘rsatish, mijozning moliyaviy maslahatlardan keyingi holatdagi natija va erishgan yutuqlarini muhokama qilib borish masalalariga e‘tibor qaratish lozim.

1-jadval

Moliyaviy savodxonlik markazlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari¹.

№	Asosiy yo‘nalishlar	Amalga oshirish mexanizmi
1.	Maslahat	Aholi va tadbirkorlarga moliyaviy savodxonlik ya‘ni bank bilan bo‘ladigan iqtisodiy munosabatlar bo‘yicha tizimli ravishda maslahatlar berish

¹ <https://finlit.uz/> rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

2.	Taktika va strategiya	Moliyaviy savodxonlik bo‘yicha qisqa va uzoq muddatga mo‘ljallangan rejalar ishlab chiqish
3.	Nazorat	Taktika va strategiyada belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan doimiy nazoratni yo‘lga qo‘yish
4.	Yondashuv	Har bir mijozga alohida yondashuv asosida xizmat ko‘rsatish masalalariga e‘tibor qaratish
5.	Natija	Mijozning moliyaviy maslahatlardan keyingi holatdagi natija va erishgan yutuqlarini o‘zi bilan muhokama qilib borish

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola mavzusi zamonaviy va dolzarb bo‘lib, uni tadqiq qilishda tijorat banklar masofaviy xizmatlariniga ta’sir etuvchi omillarni analiz-sintez usulidan foydalanildi va xulosalar shakllantirildi. Maqolada metodologik asoslarini ilmiy tadqiq etish, umumlashtirish, guruxlashtirish, taqqoslama usullar, iqtisodiy tahlil, statistika, qiyosiy taqqoslash, ekspert boholash, kuzatuv va boshqa usullardan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Banklar tomonidan masofaviy xizmatlar ko‘rsatilishiga ta’sir etuvchi omillar nazariy jihatdan tadqiq qilindi. Butun jahon moliyaviy iqtisodiy tizimining asosiy tarmog‘i bo‘lmish bank tizimi faoliyati xizmatlari soni ortib, kengayib bormoqda. An’anaviy bank xizmatlari bo‘lmish depozit jalb qilish, to‘lovlarni amalga oshirish, kredit ajratish xizmatlaridan masofadan foydalanish imkoniyatlarining yaratilganligi banklar uchun yangi davrni boshlab berdi. 2024-yilning 1-mart sanasiga ko‘ra, bank hisob varaqlarini masofadan boshqaradiganlar soni 10,4 million kishidan oshdi, shundan “Internet-banking” dasturiy majmuasi xizmatlaridan foydalanuvchilar 699 ming kishidan ko‘proq odamni tashkil etdi, “Mobil-banking” va “SMS-banking” xizmatlaridan foydalanuvchilar 9,68 million kishidan ziyodroq tashkil etib, ularning soni 2014-yilga nisbatan deyarli 47 barobarga ko‘paydi².

² <https://cbu.uz> rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

(2-jadval)
Tijorat banklari masofaviy
xizmatlariga ta'sir etuvchi ichki va
tashqi omillar³.

№	Ichki omillar	Tashqi omillar
1.	Bankning axborot texnologiyalar va vositalar bilan jihozlanganligi	Masofaviy xizmatlar ko'rsatish sohasi me'yoriy-huquqiy asoslarining mukammal emasligi
	Bankning masofaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha siyosatining ishlab chiqilganligi	Bank xizmatlari sohasiga tashqaridan aralashuvlarning mavjudligi
2.	Bankning axborot texnologiyalar va vositalarning yangilanib borishi	Hududlarda internet tarmog'ida muammolar mavjudligi yoki uning to'la qonli ishlamasligi
3.	Bank masofaviy xizmatlar ko'rsatish deportamenti (bo'limi)ning tashkil etilganligi	Masofaviy xizmatlar ko'rsatish sohasida aholi moliyaviy savodxonlik darajasining yetarli emasligi
4.	Bank masofaviy xizmatlar ko'rsatish deportamenti (bo'limi)ning malakali kadrlar bilan ta'minlanganligi	Joylardagi banklarda masofaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha bo'limning mavjud emasligi
5.	Bank masofaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha bank marketingi yoki reklamasining to'g'ri yo'nalish tanlashi	Aholining tijorat banklari masofaviy xizmatlar ko'rsatishiga ishonchi
6.	Masofaviy xizmatlar ko'rsatishning sifati va tezkorligi	Tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlar ko'rsatishdan foydalanishga xoxish-ishtiyoqining mavjudligi

7.	Masofaviy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi xavfsizlikni ta'minlash choralari	Bank masofaviy xizmatlari ko'rsatish sohasidagi xavfsizlikni ta'minlash choralari
8.	Masofaviy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi risklardan himoyalaniish darajasi	Masofaviy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi risklar
9.	Masofaviy xizmatlar ko'rsatish sohasida bank xodimlari orasiadgi mansab suiiste'moli	Aholining masofaviy xizmat va uning turlaridan xabardorligi
10.	Bank filiallarining zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlanmaganligi	Masofaviy xizmatlar ko'rsatishning foydalilik darajasi
11.	Bankningo'z filiallari faoliyatini rivojlantirish va nazorat qilish sohasidagi siyosati	Bank masofaviy xizmatlarni joriy etish va takomillashtirish sohasida davlat siyosati
12.	Masofaviy xizmatlar ko'rsatish sohasida yuzaga keladigan yo'qotishlar oldini olish yoki zaxiralarni shakllantirish va b.	Hududlarning internet tarmog'i bilan ta'minlanganligi, uning sifat darajasi va b.

“Masofaviy identifikatsiya qilish bank xizmatlari tannarxi kamayishi natijasida yangi mijozlarni jalb qilish hamda moliya bozorida raqobatni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Natijada bu ishlarni yo'lga qo'yish bank daromadini oshirishga ham turtki bo'ladi”.

Bank xizmatlari sifatiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- bank barqarorligi va obro'si;
- bank aktivlari va kapitali hajmi;
- mijoz bazasi;
- ko'rsatiladigan xizmatlar ko'lami va hajmi;
- mavjud filiallar va uni kengaytirish istiqbollari;
- reklama siyosati;
- malakali mutaxassislar va boshqalar.

³ Xudayberganova Z.Z. “Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish yo'llari” momografiya-2024 y. 78 bet

Masofaviy bank tizimlarini rivojlan-tirishga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillari mavjud.

Ichki omillarga:

- Banklar tomonidan ko’rsatiladigan xizmatlarining tashkiliy tuzilishi;
- Banklarda marketing siyosatini amalga oshirish;
- Masofaviy bank xizmatlari turlari va narxlarini belgilash;
- Banklarda menejmentni samarali tashkil etish;
- Masofaviy bank xizmatlarining me’yoriy-xuquqiy asoslari yaratilganligi.

Tashqi omillarga esa:

- Risklar
- Foydalanuvchilar uchun masofaviy bank xizmatlarining foydali bo’lishi
- Siyosiy omillarni kiritishimiz mumkin.

Jismoniy shaxslarga xos raqam ajratish “Elektron hukumat” tizimi uchun ham dolzarb bo’lib, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsion raqamini identifikator sifatida axborot tizimlariga joriy etish taklif qilinmoqda.

Masofaviy xizmatlar xususida mijozlarda yetarlicha ko’nikmalar mavjud bo’lmasa bevosita bankka murojaatlar soni ortishiga olib keladi. Bu esa o’z navbatida bank xodimlarining vaqtini shu murojaatlar bilan ishlash uchun sarflashlariga to’g’ri keladi.

Har bir tijorat banki albatta mijoz uchun kurashadi. Ya’ni mijozlar sonini o’rttirishga harakat qilib boradi. Bu borada tijorat banklari turli xildagi marketing yo’nalishlaridan foydalanadi. Tijorat banklari nafaqat mijozlar sonini o’rttirishga, shu bilan bir qatorda ko’rsatilayotgan xizmatlari ko’lami va sifatini ham oshirishga parallel ravishda harakat qilishadi. Shu o’rinda qayd etib o’tish joizki, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan tijorat banklarida masofaviy

bank xizmatlari sifatini oshirish va onlayn kreditlarning o’z vaqtida qaytarilishini ta’minlashga xizmat qiladigan “moliyaviy savodxonlik markazlari”ni tashkil etish taklifi amaliyotga joriy etilishi natijasida ATB “O’zsanoatqurilishbank”ning mijozlari sonini ortishiga olib keldi. Bu esa o’z navbatida bankning masofaviy xizmatlarining ko’lami va sifatini ortishiga xizmat qildi.

3-jadval

Moliyaviy savodxonlik markazlarining asosiy faoliyat yo’nalishlari⁴

№	Moliyaviy savodxonlik bosqichlari	Moliyaviy savodxonlik bosqichlari bo’yicha amalga oshiriladigan vazifalar
1.	Maslahat	Aholi va tadbirkorlarga moliyaviy savodxonlik ya’ni bank bilan bo’ladigan iqtisodiy munosabatlar bo’yicha tizimli ravishda maslahatlar berish
2.	Taktika va strategiya	Moliyaviy savodxonlik bo’yicha qisqa va uzoq muddatga mo’ljallangan rejalar ishlab chiqish
3.	Nazorat	Taktika va strategiyada belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan doimiy nazoratni yo’lga qo’yish
4.	Yondashuv	Har bir mijozga alohida yondashuv asosida xizmat ko’rsatish masalalariga e’tibor qaratish
5.	Natija	Mijozning moliyaviy maslahatlardan keyingi holatdagi natija va erishgan yutuqlarini o’zi bilan muhokama qilib borish

Moliyaviy savodxonlik markazlarining asosiy faoliyat yo’nalishlari sifatida tijorat banklari tomonidan birinchi marta bankka tashrif buyurgan aholi va tadbirkorlarga moliyaviy savodxonlik ya’ni bank bilan

⁴ <https://data.worldbank.org/> rasmiy veb sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar bo'yicha maslahatlarni berishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish, bu borada aniq taktika va strategiya ishlab chiqish, taktika va strategiyada belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan doimiy nazoratni yo'lga qo'yish, har bir mijozga alohida yondashuv asosida xizmat ko'rsatish, mijozning moliyaviy maslahatlardan keyingi holatdagi natija va erishgan yutuqlarini muhokama qilib borish masalalariga e'tibor qaratish lozim.

Kelajakda respublikamiz bank tizimi yanada tarqiqiy ettirishi lozim bo'lgan yo'nalish – bu Mobil-banking bank kartalari yoki hisob raqamlarini cho'ntak ixcham kompyuterlari, kommunikatorlar va smartfonlar orqali onlayn tizimida boshqarish hisoblanadi. Bu barcha turdagi moliyaviy hujjatlar bilan ishlash imkonini beradi. Shifrlash mexanizmi hamda elektron raqamli imzo (ERI)ni o'z ichiga olgan holda jamoa bo'lib ishlash imkoniyatini ham yaratadi.

XULOSA

Masofaviy bank xizmatlarini ommalashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shu jumladan raqamli texnologiyalarga asoslangan masofaviy bank xizmati turlarini yanada kengaytirish;

- tijorat banklarida bank xizmatlarini, xususan masofaviy bank xizmat turlarini keng ommaga yetkazish va mijozlarini ushbu xizmatlardan xabardorligini ta'minlash bo'yicha marketing bo'limlarini tashkil qilish;

- respublikamizning barcha hududlarida internet xizmatining sifatli ishlashini ta'minlash va internet tezligini oshirish;

- jismoniy shaxslar uchun "Mobil-banking" va "SMS-banking" xizmatlarini

faqat bank plastik kartalari orqali emas, balki, to'g'ridanto'g'ri bankdagi depozit hisobraqamlariga ulash imkoniyatlarini ko'rish;

- mamlakatimizda tashqi xizmat ko'rsatish vositalari bilan ta'minlanish darajasi pastligi, ya'ni hududlarda bank kartalari va ularga xizmat ko'rsatuvchi jihozlar (to'lov terminali, infokiosk va bankomatlar) sonini keskin oshirish lozim;

Masofaviy bank xizmatlarini ommalashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bank va mijoz o'rtasidagi munosabatlarda zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shu jumladan raqamli texnologiyalarga asoslangan masofaviy bank xizmati turlarini yanada kengaytirish;

- tijorat banklarida bank xizmatlarini, xususan masofaviy bank xizmat turlarini keng ommaga yetkazish va mijozlarini ushbu xizmatlardan xabardorligini ta'minlash bo'yicha marketing bo'limlarini tashkil qilish;

- respublikamizning barcha hududlarida internet xizmatining sifatli ishlashini ta'minlash va internet tezligini oshirish;

- jismoniy shaxslar uchun "Mobil-banking" va "SMS-banking" xizmatlarini faqat bank plastik kartalari orqali emas, balki, to'g'ridan-to'g'ri bankdagi depozit hisobraqamlariga ulash imkoniyatlarini ko'rish;

- mamlakatimizda tashqi xizmat ko'rsatish vositalari bilan ta'minlanish darajasi pastligi, ya'ni hududlarda bank kartalari va ularga xizmat ko'rsatuvchi jihozlar (to'lov terminali, infokiosk va bankomatlar) sonini keskin oshirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi Parlamentga Murojaatnomasi.
2. Abdullayeva Sh.Z., Xudoyberganova Z.Z. Bank krediti va xizmatlari. Monografiya. T.: "IQTISOD-MOLIYA". 308 B
3. Absalomov A.T., Xudoyorov O.O., Kholdorov S.U. "Important aspects related to foreign exchange operations of commercial banks" <https://dl.acm.org/doi/fullHtml/10.1145/3508072.3508208>
4. Гончарук А.С. Институциональные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К.Л. Хетагурова - Шахты, 2012. - 183 с. Ўзбекистон Республикаси
5. O'z.Rep. Markaziy banki "Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarida ishlash tartibi to'g'risida"gi 2155- sonli Nizom, 2010-yil 19-noyabr.
6. Mamadiyarov Z.T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.T.: 2019. 56 b.
7. Xudayarova X.A. O'zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.T.: 2020. 63 b.
8. Rahimov A. Mijozlarning bank xizmatlaridan mamnunlik darajasini oshirish masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №2, aprel, 2021-yil. ISSN: 2181-1016.
9. Begalov B. Tijorat banklarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari.// Banklarning moliyaviy barqarorligi va resurslari yetarliligini xalqaro me'orlar va standartlar talablari asosida baholash va boshqarish.//Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.-T.: - "Iqtisod-Moliya".-2017.-B.5-6.
10. <https://data.worldbank.org/>

UDK: 657.1

Salamov Islom Tashkazakovich
Iqtisod fanlar nomzodi

**BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISHDA HUDUDIIY
TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI**

Саламов Ислон Ташказакович
Кандидат экономических наук

**ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В
ТРАНСФОРМАЦИИ БАНКОВ**

Salamov Islam Tashkazakovich
Candidate of Economics

**THE IMPORTANCE OF DEVELOPMENT OF REGIONAL NETWORKS IN
THE TRANSFORMATION OF BANKS**

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi davlat ulushiga ega aksiyadorlik tijorat banklarini transformatsiya qilish davrida banklarning regional filiallarini rivojlantirish masalalari, regional bank bo'linmalarini tashkil etishning ob'ektiv sabablari va samarali faoliyat ko'rsatishining yo'llari hamda banklarning transformatsiya qilishda regional bo'linmalar faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan.

Tayanch so'zlar: bank filiali, minibank, bank xizmatlari markazi, bank xizmatlari ofisi, beko'fis.

Аннотация. В данной статье обсуждаются вопросы развития региональных филиалов банков в период трансформации акционерных коммерческих банков с государственной долей в Республике Узбекистан, объективные причины создания и пути эффективного функционирования региональных банковских подразделений, а также рекомендации касательно налаживания деятельности региональных подразделений на стадии трансформации банков.

Ключевые слова: филиал банка, минибанк, центр банковских услуг, офис банковских услуг, бэк офис.

Abstract. This article contains the development of regional branches of banks during the transformation of joint-stock commercial banks with state share in the Republic of Uzbekistan, objective reasons for the creation and ways of effective functioning of regional banking divisions, as well as recommendations regarding the establishment of activities of regional divisions at the stage of banks transformation.

Keywords: bank branch, minibank, banking services center, banking services office, back office.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini islox qilish strategiyasi to'g'risida" gi Farmonida ta'kidlanganidek "Moliyaviy sektorni izchil islox qilish davomida ilg'or bank biznesini yuritish hamda raqobat muhitini kuchaytirish, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhit" yaratilgan.

Bank sektorining bugungi kundagi rivojlanishning tahlili davlat mulki ishtirokidagi banklarda davlatning aralashuvining yuqoriligi, boshqaruv mexanizmini va uning sifati, moliyaviy vositachilikning past darajdaligi yangi davr talablariga-yangilanishlar va mijozlar extiyojlariga muvofiq rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Bank xizmatlarining mijozlar talablariaga mosligini (mijozga yo'naltirilganini) oshirish, banklarni xududiy tarmoqlarini rivojlantirish, bank xizmatlarini aholiga yaqinlashtirish maqsadida barcha aholi punktlarida bir xil bank xizmatlarini ko'rsatuvchi bankning chakana xizmatlar ko'rsatish ofislarini rivojlantirish zarur. Ayniqsa Farmonda ko'rsatib berilganidek, erkin raqobat muhitini yaratish, davlat resurslari va kafolatlariga qaramlikni kamaytirish, kreditlashda erkin bozor mexanizmlariga asoslanish, bunda inson omilini kamaytirish transformatsiya qilishning asosiy maqsadlaridan bo'lishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu mavzu iqtisodiy adabiyotlarda ko'proq bank faoliyatlarini tashkil etish, ularni rivojlantirish muammolar nuqtai nazardan yoritilgan. Davlat ulushi mavjud banklarini transformatsiya qilish,

frontofislarni rivojlantirish, ularda sotuvlarni va kross sotuvlarni tashkil etish tomonlari keng yoritilmagan. Shuning uchun ham ushbu maqolada iqtisodiy adabiyotlardagi qarashlarni tahliliga emas, balki hozirgi davrda tijorat banklarni regional filiallarini bozor talablariga muvofiq banklardagi rivojlanish tendensiyasining tahlili asosida qayta tashkil etish shakllanish va rivojlantirish masalalariga kengroq yoritilgan.

Jumladan, transformatsiya qilishda ko'proq mijozlarga xizmat ko'rsatish va bank maxsulotlarini sotishga ixtisoslashgan chakana sotuv ofislari va front ofislarini tashkil etish muammolariga e'tibor qaratilgan.

Bekofis masalalarini markazlashtirish va mahalliy hokimyatlar bilan vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni yechimini topish masalalarini tahliliga ham alohida e'tibor berilgan.

Ko'proq transformatsiya qilinayotgan banklar tajribasi umumlashtirilib yangidan qayta tashkil etilayotgan pilot filiallardagi yechimini kutayotgan jarayonlar tahlili asosida asosiy xulosalarga kelingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada respublikada amalga oshirilayotgan tijorat banklarini transformatsiya jarayonida ilmiy tahlil, regional banklar faoliyatini monografik kuzatuvlar va qiyoslash usullari asosida ilmiy takliflarni asoslashgan harakat qilingan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tijorat banklarni hududiy tarmoqlarini tashkil etish va rivojlantirishning obyektiv va subyektiv asoslari mavjud. Avvalambor hududiy tarmoqlarini vujudga kelishi va rivojlantirish bozor munosabatlarining talablari bilan belgilanadi. Erkin raqobat muhitida tijorat banklari banklar bozoridagi o'z o'rnini topishi va muhimi barqaror rivojlanishi hududiy filiallar, minibanklar,

bank xizmatlari markazlari va ofislarini ochishni obyektiv zaruriyat qilib qo'yadi. Natijada, tijorat banklari viloyat, tuman markazlarida (biznes va moliyaviy markazlarda) o'zining shahobchalarini tashkil etadi.

Davlat tijorat banklariga hukumat tomonidan belgilab berilgan loyihalarni moliyalashtirish vazifalar ijrosini ta'minlash jarayoni ham ularning viloyat, tuman filiallarini, shuningdek ayrim biznesni rivojlantirishni imkoniyatlarini beruvchi aholi punktlarida (qishloqlar, mahallalar va boshqalar) bank xizmatlarini aholiga yaqinlashtiruvchi bank shahobchalarini (minibank, xizmat ko'rsatish ofislari va boshqalar) ochishni zarurat qilib qo'yadi.

Hududiy tarmoqlarni tashkil etish joylarda biznesning barcha turlarini korporativ korxonalar, kichik va o'rta biznes korxonalari, ayniqsa chakana biznesning rivojlanishiga qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Aholining pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish va ularni kreditlarga yo'naltirish bilan birgalikda viloyat va tumanlarga qo'shimcha kredit, investitsiya resurslarini jalb qilish imkoniyatini yaratadi va biznesni rivojlanishga ko'maklashadi. Shuningdek yangi qo'shimcha bank maxsulotlarini va xizmatlarini kirib kelishiga sharoit yaratadi va yangi bozorlarni vujudga kelishining moddiy bazasi bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash lozim, tadbirkorlik subyektlari va aholining arzon, sifatli bank xizmatlariga o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish uchun manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznesga mo'ljallangan yangi masofaviy xizmatlar (kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish) ni keng joriy qilish, xizmat ko'rsatish nuqtalarini rivojlantirish aholida e'tiborga loyiq.

2020-2025yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida belgilanganidek

“banklarning hududlardagi ishtiroki bazaviy bank xizmatlari to'plamini ko'rsatuvchi va ko'p sonli boshqaruv xodimlarini talab qilmaydigan ixcham” bank xizmatlari ofislari tarmog'ini barcha hududlarda kengaytirilgan holda mavjud filiallar tarmog'ini maqbullashtirish, shuningdek, “Mobil banking” xizmatlarini keng joriy qilish hisobiga ta'minlanadi.

2024-yilning birinchi yarim yilligida mavjud 35 ta tijorat banklari, ularning 10 tasi davlat tijorat banklari, 15 ta aksiyadorlik tijorat banklari, 3 ta xususiy va 7 ta chet el kapitali ishtirokida banklari faoliyatining asosiy indikatorlari bo'lgan bank likvidligi, jalb qilingan depozitlar ham dinamikasi, kredit qo'yilmalari hajmining o'sishi kabi ko'rsatkichlar talablar darajasidan kamligini ko'rsatadi.

Bu 600 dan ortiq viloyat va tuman filiallarining, 1600 dan ortiq bank xizmatlari markazlari va minibanklar, 2000 dan ko'proq 24/7 shaklidagi o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish shahobchalarining rivojlantirish bilan bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Shuni alohida takidlash lozimki, 2024-yilning o'tgan davrda o'rta banklar, ya'ni ikkinchi o'ntalik tarkibiga kiruvchi banklarning bank aktivlari ko'payib, bank bozoridagi o'rni barqarorlashganini ko'rish mumkin.

O'rta banklar tarkibiga kiruvchi “Turonbank” aksiyadorlik-tijorat (davlat) bankining ham faoliyat ko'rsatkichlari dinamikasi o'sish suratlari ega bo'ldi.

Bankning yuqori likvidli aktivlari 2023-yilga nisbatan 29% ga 419 mlrd so'm ga oshgan, jumlada xorijiy va maxalliy banklardagi vakillik hisob varag'idagi mablag'lar 263 mlrd so'mga, Hukumat va O'zbekiston Markaziy banki tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar 144 mlrd so'mga oshgan. Natijada, quyida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki likvidli aktivlarni jami aktivlardagi hissasi oshib, o'rnatilgan

normativdan yuqori bo'lgan. Boshqa likvidlik bilan bog'liq normativ ko'rsatkichlar ham o'sishga ega bo'lgan.

Jumladan, keyingi yillarda O'zbekistonning markazdan uzoq aholi punktlarida ipoteka va avto kreditlarni berishni yo'lga qo'yilishi uy joy qurilishini rivojlanishiga, aholiga ipoteka kreditlari asosida xonadonlar va uylar sotib olishi imkoniyatini yaratdi, ikkilamchi avtomobil savdosi bozorlarini paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Bu qo'shimcha ish o'rinlarni yaratilishiga hamda o'zini-o'zi ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini paydo qildi. Hududiy tarmoqlarni rivojlanish samaradorligini oshirish bugungi kun talabi. Keyingi yillarda tijorat banklarining, hatto xususiy va chet el banklarining joylarda filiallarining, bank xizmatlari ofislar va mini banklarini tezlik bilan ko'payib bormoqda. Banklarning ko'plab bank xizmatlari ofislari, 24/7 shaxobchalarining ochilishi bunga misol bo'ladi. Bugungi kunda tijorat banklarining xududiy tarmoqlarni rivojlanishiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirishga berilayotgan e'tibor va ularni xar tomonlama qo'llab quvvatlanishi, raqamli iqtisodiyotga o'tishning obyektiv zaruriyati, banklarning transformatsiyasi qilish davrida bozorga yangi texnologiyalarga asoslangan moliyaviy xizmatlar industriyasining keng kirib kelishi bilan bank filiallari, bank xizmatlari markazlari, ofislari, minibanklari va chakana sotish punktlarining rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki, mijozlar bilan yaqindan aloqa o'rnatuvchi, ularning ehtiyoj va talablarini o'rganuvchi va manfaatlarini ximoya qiluvchi bo'lib xozirgi kunda iqtisodiyotning asosiy tarkibiy bo'g'ini bo'lgan banklar bo'lib qolmoqda. Tijorat banklarining davlat tassarrufidan chiqarish va transformatsiya qilish uchun taklif qilingan chet ellik konsultantlar, hamkorlarning fikricha transformatsiya qilishning asosiy

vositasi banklarning bosh ofisi va joylardagi tarkibiy tuzilmalarini, shu jumladan filiallarda xam tarkibiy bo'linmalarni mijozlarga yo'naltirilgan shaklda o'zgartirish zarur. Mijozlar aksariyat xollarda xizmat ko'rsatish xodimlarini e'tiborli bo'lishi, uzoq muddatli xamkorlikda ishlashga intilishi ularning bankka bo'lgan ishonchini ta'minlaydi. Shuning uchun ham xizmatlar va maxsulot sifati asosiy o'rin tutadi. Shuni ta'kidlash lozim, tadbirkorlik subyektlari va aholining arzon, sifatli bank xizmatlariga o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish uchun manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznesga mo'ljallangan yangi masofaviy xizmatlar (kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish) ni keng joriy qilish, xizmat ko'rsatishni nuqtalarini rivojlantirish aholida e'tiborga loyiq.

2020-2025 yillarda mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida belgilanganidek "banklarning hududlardagi ishtiroki bazaviy bank xizmatlari to'plamini ko'rsatuvchi va ko'p sonli boshqaruv xodimlarini talab qilmaydigan ixcham" bank xizmatlari ofislari tarmog'ini barcha xududlarda kengaytirilgan holda mavjud filiallar tarmog'ini maqbullashtirish, shuningdek "Mobil banking" xizmatlarni keng joriy qilish hisobiga ta'minlanadi. Ta'kidlash lozimki, ko'pgina filiallar ochilib qisqa muddatda yopilib ketish holatlari ham amaliyotda mavjud. Tijorat banklari filiallarining ochilib, qisqa muddatlarda bozorda o'z o'rnini topolmay yopilib ketishiga asosiy sabab ish hajmini to'liq aniqlamasdan katta hajmdagi binolarni egallab olishi va shu davrda zarurat bo'lmagan holda ko'plab ish o'rinlarni ochilishidir (bank filiallarida asosan ish o'rinlari 50+ni tashkil etadi). Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimining isloh qilish strategiyasida bank xizmatlarini yo'nalishini ko'rsatuvchi va

ko'p sonli boshqaruv xodimlarini talab qilmaydigan ixcham bank xizmatlari ofislari tarmog'ini rivojlantirish vazifasini belgilab berilgan.

Eng asosiy sabab bank filiallari tomonidan bozorga bir xil maxsulot va xizmatlarni bahodagi kichik farq bilan taklif qilinishidir. Yangi xizmatlar va maxsulotlar juda ham kam, xamda past rentabelli, bozor talablariga javob bermaydi. Masalan, yuqori foizli kredit maxsulotlariga, jumladan chakana kredit maxsulotlariga talabni o'rganib chiqmasdan, yuqori foizli omonatlarga mablag'larni jalb qilinishi. Ba'zida naqd pulga bo'lgan talablarni qondirish uchun ham yuqori foizli omonatlar taklif qilinadi. Bularning xammasi bank xarajatlarini, maxsulot tannarxini asossiz oshiradi, foydani kamayishi yoki zarar bilan ishlashiga olib keladi.

Bank bo'limlari faoliyat samaradorligi joylardagi bozorni to'liq, xar tomonlama tahlil qilish, rivojlanish yo'nalishlarini aniq belgilab olishiga bevosita bog'liq. Jumladan, tijorat banki biznesni qaysi yo'nalishlariga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashishi aholining qaysi qatlamlariga xizmat ko'rsatishni belgilab olish muhim. Masalan "Turonbank" ATB universal bank bo'lishi va korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatishi uchun yetarli resurs bazasiga ega emas. Shuning uchun xam ko'proq kichik va o'rta biznes korxonalari hamda chakana xizmatlar (aholiga) ko'rsatishga ixtisoslashib bormoqda. Bu yo'nalishdagi korxonalar bank bo'linmasi tashkil etilayotgan tumanda mavjudligini, ularning moliyaviy holatini tahlil qilish zarur. Ya'ni joylardagi mijozlarni sigmentlarga ajratib tahlil qilib olish lozim. "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankida xizmat ko'rsatilayotgan mijozlarni 3 turdagi sigmentlarga ajratib olingan, ya'ni yillik pul aylanmasi 100 mlrd so'mdan va kreditga bo'lgan extiyojlari 70 mlrd so'mdan ko'p bo'lgan mijozlar korporativ mijozlardir.

Kichik va o'rta biznes korxonalari-yillik pul aylanmasi 100 mlrd so'mdan kam bo'lgan va kredit extiyojlari 5 mlrd so'mdan 70 mlrd so'mgacha bo'lgan 3 turdagi korxonalar-mikrokorxonalar, o'rta korxonalar va kichik korxonalarga bo'linadi. Keyingi yo'nalish bu axoliga bank xizmatlarini ko'rsatish-chakana xizmatlar yo'nalishidan iborat.

Bozorni o'rganish, mijozlarni moliyaviy holatini taxlil qilish bank bo'linmasini qanday shaklda, qaysi yo'nalishlarga moslashgan holda ochishni belgilab olish imkoniyatini beradi. Masalan, Shaxrisabz shaxrida joylashgan bank xizmatlari markazini Kitob, Yakka bog', Chiroqchi va Shaxrisabz tumanlarida bankni xizmat ofislarini tashkil etgan xolda rivojlantirish bizning nazarimizda, ko'proq samarali bo'ladi. Avvalambor ma'muriy xarajatlarni kamaytiradi. Jumladan xizmat ko'rsatish ofislarining nisbatan yaqin masofada bo'lishi inkassatsiya va boshqa xarajatlarni kamaytiradi, shuningdek ular faoliyatni nazoratni kuchaytirish imkonini beradi. Bank xizmatlar markazi ham, xizmatlar ofislari ham barcha xizmat turlarini ko'rsatish imkoniga ega bo'lishi, yani 24/7 shaxobchalari, universal kassalar, kichik biznes subyektlariga kreditlar ajratish, to'lovlarni o'tkazish imkoniyatlari bilan ochilishi lozim. "Tijoratda ikki asosiy unsur--niyat va amal bor. Niyat foyda ko'rishni maqsad qilish. Amal-oldi-sotdidir. Bular birga bo'lganda tijorat bo'ladi" deb islomda ta'rif beriladi. Tijorat banklarining asosiy maqsadi foyda olishdan iborat. Tijorat banklari aksiyadorlarni, mijozlarni va xodimlarni manfaatlarini ximoya qilmog'i uchun doimo daromadlarni, foydasini ko'paytirib borishi lozim.

Xalqaro eksportlar, shu jumladan O'zbekistonda davlat tijorat banklarining transformatsiya qilishda ishtirok etayotgan chet el konsultantlari, Xalqaro auditorlik kompaniyalari mutaxassislari, Jahon

banki guruxiga kiruvchi Xalqaro moliya korporatsiya eksportlarining fikricha hozirgi raqamli iqtisodiyotga o'tish davrida banklarni davlat tasarrufidan chiqarib, chet el investorlariga sotish uchun tijorat banklari har tomonlama barqaror rivojlanishi, foyda, bank kapitali rentabelligi, kredit portfelining sifati, kadrlar tarkibi va sifati hamda boshqa ko'rsatkichlari doimiy o'sishga ega bo'lishi lozim.

Davr talabidan kelib chiqib, tijorat banklar bank xizmatlari markazlari, xizmat ko'rsatish ofislari, minibanklar va boshqa bo'linmalar faqat mijozlarga xizmat ko'rsatish, bank maxsulotlarini sotish bilan shug'ullanuvchi front ofislar shaklida tashkil etilishi lozim. Ularning asosiy vazifasi ko'proq mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish, bank maxsulotlarini sotish, axoliga, o'rta va kichik biznes vakillariga sotuvlarni jumladan kros sotuvlarni, sifatli va samarali tashkil etish.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar taxlili asosida quyudan umumiy xulosalar qilindi:

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi PF-5992-son, 2020- yil 12 may son "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini islox qilish strategiyasi to'g'risida" Farmoni.
2. "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini islox qilish strategiyasi".
3. O.Aliqoriyev "Tijorat banklarida moliyaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'nalishlari" "Akademnashr" nashriyoti, 2012 yil.
4. Raxmatov T.C. Bank tizimida an'anaviy operatsiyalar orqali tijorat banklari raqobat bardoshligini oshirish . "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar 212022 mart-aprel (№00058)"
5. Р.Т Баланино Проблемы развития финальной сети коммерческого банка. Вестник Омского университета . Серия "Экономика" 2008. №4
6. Дмитриева И.В. Стратегия развития филиальной сети комерчесеого банка. "Экономика и социум" №5(36) 2017.

Birinchidan, bank filiallarini qanday shaklda tashkil etilishidan qat'iy nazar mavjud bozorni tahlil qilish bankning asosiy yo'nalishlariga muvofiq (biznes yo'nalishlari va aholi qatlamliklarining) mijozlarning mavjudligi, ularning moliyaviy holati va kredit resurslari bo'lgan extiyojlari tahlil qilishi lozim, chunki bankdagi resurslar va qo'yilmalar ko'proq shu yo'nalishlarga yo'naltiriladi.

Ikkinchidan, yangi tashkil etilayotgan filiallarda samaradorlikka erishish uchun ham xarajatli, ixcham bank ofislarini barcha xizmat ko'rsatish va sotuvni tashkil etishni yo'lga qo'ygan holda ochishni tashkil etish.

Uchinchidan, front ofislarni samarali ishlashi uchun maxalliy xokimyat organlari bilan ishlashni tashkil etuvchi bek ofisni ishni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratish. Chunki, maxalliy xokimyat organlarining talablari o'z vaqtida yechimini topmasa, yangidan tashkil etilgan ofislar faoliyatig aralashuv va bosimlar kuchayadi.

UDK: 657.1

Muhammadiyev Zarrux Umarovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instiuti
doktorant, PhD
mukhammadiev90@mail.ru

**RAQAMLI VA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KAPITAL
INVESTITSIYALARGA DOIR PUL MABLAG‘LARI HARAKATINI
MOLIYAVIY HISOBOTDA OCHIQLASH MASALALARI**

Мухаммадиев Заррух Умарович
Самаркандский институт экономика и сервис
докторант, PhD

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ РАСКРЫТИЯ КАПИТАЛЬНЫХ
ВЛОЖЕНИЙ В ОТЧЕТЕ О ДВИЖЕНИИ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ**

Mukhammadiev Zarrukh Umarovich
Samarkand Institute of Economics and Service
doctorant, PhD

**IMPROVING THE METHODOLOGY OF DISCLOSURE OF CAPITAL
INVESTMENTS IN THE STATEMENT OF CASH FLOWS**

Annotatsiya. Maqolada raqamli va yashil iqtisodiyot sharoitida ro‘y berayotgan iqtisodiy islohotlar sharoitida pul oqimlari haqidagi hisobotning amaldagi holati, ushbu moliyaviy hisobot shaklida yoritiladigan axborotlar, jumladan kapital investitsiyalarga oid axborotlarni aks ettirishga mo‘ljallangan moddalarning holati tadqiq qilingan. Shuningdek, mazkur tadqiqot ishida kapital investitsiyalarga doir axborotlarni pul oqimlari haqidagi hisobotda aks ettirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar hamda ularni pul oqimlari haqidagi hisobotda yoritish masalalari ochib berilgan.

Tayanch so‘zlar: pul oqimlari haqidagi hisobot, operatsion faoliyat, investitsiya faoliyati, moliyaviy faoliyat, kapital investitsiyalar hisobi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

Аннотация. В статье рассматривается текущее состояние отчета о движении денежных средств в условиях экономических реформ, происходящих в условиях цифровой и зеленой экономики, информация, которая должна быть отражена в форме данного финансового отчета, в том числе состояние статей, предназначенных для отражают информацию о капитальных вложениях. Также в данной исследовательской работе раскрыты разработанные рекомендации по отражению информации о капитальных

вложениях в отчете о движении денежных средств и вопросы их отражения в отчете о движении денежных средств.

Ключевые слова: отчет о движении денежных средств, операционная деятельность, инвестиционная деятельность, финансовая деятельность, учет капитальных вложений, бухгалтерский учет, международные стандарты финансовой отчетности.

Abstract. The article examines the current state of the cash flow statement in the context of the economic reforms taking place in the context of the digital and green economy, the information to be covered in the form of this financial statement, including the state of items intended to reflect information on capital investments. Also, in this research work, the developed recommendations for reflecting information on capital investments in the cash flow statement and the issues of their coverage in the cash flow statement are disclosed.

Keywords: statement of cash flows, operating activities, investment activities, financial activities, capital investment accounting, accounting, international standards of financial reporting.

KIRISH

Respublikamizda bugungi kungacha ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlarda korxonalarda moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishdan asosiy maqsad “investitsiya va kreditorlar berish bo'yicha qarorlarni qabul qilish; tashkilotning kelgusi pul oqimini baholash; tashkilotga ishonib topshirilgan resurslar munosabati bilan uning resurslarini va majburiyatlarini baholash; boshqaruv organlarining ishini baholash”[1], deb keltirilgan. Demak, raqamli va yashil iqtisodiyot sharoitida pul oqimlari harakati bo'yicha axborotlar, xossatan kapital investitsiyalarga oid pul mablag'lari kirimi va chiqimi bo'yicha zaruriy axborotlarning moliyaviy hisobotda yorqin yoritilishi kabi masalalarning dolzarb vazifalardan ekanligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'rsa, mamlakatimizda 2023 yilda asosiy kapitalga yo'naltirilgan jami investitsiyalar hajmi 2022 yilga nisbatan 122,1 foizga oshib, 352 064,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda, xorijiy investitsiyalar va kreditlarning ulushi qariyb yarmini, ya'ni 47,4 %ni, korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan kiritilgan investitsiyalarning ulushi esa, 24,1 %ni tashkil etgan[2].

Ushbu raqamlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatimizda kapital investitsiyalar hajmi tobora oshib bormoqda. Bunday investitsiyalar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, ularning hisobini yuritish ham o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu esa, raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi va hisoboti oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Zotan, bugungi kunda, turli tarmoqlarda faoliyat yuritib kelayotgan har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan amalga oshirilayotgan kapital investitsiyalarga oid axborotlarni ichki va tashqi axborot foydalanuvchilarga oshkora etish, ular to'g'risida real ko'rsatkichlarni o'z vaqtida yetkazib berish kabi dolzarb vazifalar korxonalar tomonidan taqdim etilayotgan pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotda kapital investitsiyalarning aks ettirilishi bo'yicha chuqur tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yuqorida keltirilgan dolzarb vazifalar bo'yicha olimlar tomonidan bajarilgan tadqiqot ishlari o'rganildi hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va milliy standartlarda keltilgan tartib-qoidalar tadqiq etildi.

Mamlakatimiz olimlaridan U.A.Nurmanovning tadqiqot ishida “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning pul oqimlarini quyidagilardan ajratadi: joriy (odatiy) faoliyat, investitsiya va moliyaviy operatsiyalar. Biroq, qaysi xarajatlar va tushumlar operatsion, investitsiya yoki moliyaviy faoliyat sifatida tasniflanishi har doim ham aniq emas. Bu faoliyatning xususiyatidan kelib chiqib aktivni sotib olish yoki sotish maqsadiga bog‘liqdir”[3], deb keltiradi. Olimning bu boradagi fikriga qo‘shilgan holda ushbu fikrni davom ettirib aytishimiz mumkinki, bugungi kunda, pul oqimlari haqidagi hisobotda korxonaning o‘z kuchi bilan amalga oshirgan qurilish ishlari bo‘yicha kapital investitsiyalarga oid pul oqimlarini aks ettirishda ushbu ob’ektlarni qurishdan ko‘zda tutilgan natija muhim sanaladi. Chunki, ko‘chmas mulk ob’ektlari bo‘yicha kapital investitsiyalar ob’ektlarni uzoq muddatda saqlash va ular qiymati oshishi natijasida qayta sotish uchun qurilsa bunday jarayonlar korxonada operatsion faoliyat hisoblanadi.

Mamlakatimizning boshqa bir olimi B.F.Boronov tomonidan yog‘- moy sanoati korxonalari hisobini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishida pul oqimlari haqidagi hisobotda tayyor mahsulotlar bo‘yicha axborotlarni aks ettirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar yog‘- moy korxonalari amaliy misollari asosida ishlab chiqilgan. Shuningdek, olimning tadqiqot ishida yog‘- moy mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda pul oqimlari haqidagi hisobot shakliga ilovalar tavsiya etilgan[4].

SH.Sh.Raxmonov ham korxonalarda pul mablag‘lari hisobini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borgan. Olim pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobotni bevosita va bilvosita usulda tuzish va taqdim etish bo‘yicha ilmiy-amaliy

tavsiyalar ishlab chiqqan bo‘lib, “Qurilish xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarida tovar-moddiy zaxiralar, debitorlik va kreditorlik qarzlari kabi omillar ta‘sirida operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdagi pul oqimlarining 2026 yilgacha mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari”[5] ishlab chiqilgan hamda korxonalar tomonidan amaliyotga joriy qilingan.

Shuningdek, D.M.Matkarimovning ilmiy tadqiqot ishida “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotning amalda bo‘lgan shaklida pul mablag‘lari kirim va chiqimini aks ettirish uchun alohida ustunlar ajratilgan. MHXS asosida ishlab chiqilib, taklif qilinayotgan shaklda pul mablag‘larining kirim va chiqimi alohida ustunlarda emas, balki satrlarda berish takliq qilingan”[6]. Bizining fikrimizcha, ushbu ilmiy tavsiyalar pul oqimlari haqidagi hisobot shaklini tizimlashtirishga xizmat qilsada, biroq pul oqimlari haqidagi hisobot shaklining strukturasi bir oz murakkablashtirib qo‘yadi, deb hisoblaymiz.

A.K.Eshonqulovning fikricha, “Pul mablag‘lari harakati hisoboti moliyaviy hisobotning umumlashgan daromad, moliyaviy holat va kapitaldagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi hisobotlar qatoridagi asosiy hisobotlaridan biri hisoblanadi”[7]. Pul mablag‘lari haqidagi hisobot bo‘yicha keltirilgan ushbu tavsifda hisobotning xususiyatlari torroq yoritilgan.

Xalqaro hisob ta‘limotida “Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot” deb nomlangan moliyaviy hisobot shakli milliy hisob ta‘limotida, xossatan buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi Qonunda “Pul oqimlari haqidagi hisobot”, buxgalteriya hisobi milliy standartida esa, “Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot” deb e‘tirof etilgan. Ushbu hisobot turi korxonalarda hisobot davrida amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha pul kirimi va chiqimini yoritishga mo‘ljallangan bo‘lib, buxgalteriya axborot foydalanuvchilariga

korxonaning davr oraligʻidagi moliyaviy holati, ularni baholash boʻyicha muhim sanalgan axborotlarni ochib beradi.

Moliyaviy hisobotning 4-shakli hisoblangan mazkur hisobot turi 7-son (IAS) “Pul mablagʻlari harakati toʻgʻrisidagi hisobot” BHXSda “Pul oqimlari – pul mablagʻlari va ular ekvivalentlarining kirimi va chiqimi”[8], deb taʼrif berilgan boʻlib, ushbu taʼrifdan bilish mumkinki, mazkur hisobot korxonada amalga oshirilgan pul mablagʻlari harakati, yaʼni pul mablagʻlarining kirimi va chiqimi boʻyicha axborotlarni yoritib berishga moʻljallangan moliyaviy hisobot turi hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Raqamli va yashil iqtisodiyot sharoitida kapital investitsiyalarga doir pul mablagʻlari harakatini moliyaviy hisobotda ochiqlash masalalari boʻyicha olib borilgan tadqiqot ishimizda ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy tahlil, monografik kuzatuv, qiyoslash, induksiya va deduksiya kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Pul oqimlari haqidagi hisobot oʻz ichiga quyidagi yoʻnalishlar boʻyicha pul kirimi va chiqimiga doir axborotlarni yoritib berishga moʻljallangandir:

- * operatsion faoliyat;
- * investitsiya faoliyati;
- * moliyaviy faoliyat;
- * soliqqa tortish;
- * chet el valyutasidagi pul mablagʻlarining harakati toʻgʻrisida maʼlumot.

Ushbu faoliyatlarning bir-biridan farqli jihatlarini aniq bilish maqsadida xalqaro standartlarga ularga oid keltirilgan taʼriflarni oʻrganib chiqamiz: “Operatsion faoliyat – tashkilotning asosiy daromad keltiruvchi faoliyati hamda investitsiya va moliyaviy faoliyatdan tashqari boshqa

faoliyat turlari. Investitsiya faoliyati – uzoq muddatli aktivlarning va pul mablagʻlari ekvivalentlariga kirmaydigan boshqa investitsiyalarning harid qilinishi va hisobdan chiqarilishi. Moliyaviy faoliyat – tashkilot kiritgan kapitali va qarz mablagʻlarining miqdori va tarkibidagi oʻzgarishlarga olib keladigan faoliyat”[8]. Ushbu faoliyat boʻyicha natijalar korxonalarda muhim koʻrsatkichlar hisoblanib, korxonalarda pul oqimlari haqidagi hisobotda oʻz aksini topishi kerak.

Raqamli va yashil iqtisodiyot sharoitida kapital investitsiyalarga doir yuqoridagi axborotlarni moliyaviy hisobotning 4-shakli hisoblangan “Pul oqimlari haqidagi hisobot”da ochib berish dolzarb vazifalardandir. Kapital investitsiyalarga doir bunday axborotlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1-jadval

Raqamli va yashil iqtisodiyot sharoitida korxonalarda amalga oshirilgan kapital investitsiyalarga doir pul mablagʻlari harakati boʻyicha axborotlar¹

Korxonalarda kapital investitsiyalarni amalga oshirishda kelib tushgan pul mablagʻlari	Korxonalarda kapital investitsiyalarni amalga oshirishda sarflangan pul mablagʻlari
Kapital investitsiyalarni amalga oshirishda tashqi moliyalashtirish manbalari hisoblangan bank kreditlari boʻyicha kelib tushgan pul mablagʻlari	Raqamli ishlab chiqarish obʼektlarini harid qilish va qurish boʻyicha pul mablagʻlar sarfi

¹ Muallif ishlanmasi.

Kapital investitsiyalarni amalga oshirishda tashqi moliyalashtirish manbalari hisoblangan uzoq muddatli qarzlar bo'yicha kelib tushgan pul mablag'lari	Yashil ob'ektlarini harid qilish va qurish bo'yicha pul mablag'lari sarfi	Kapital investitsiyalarni amalga oshirishda ichki moliyalashtirish manbalari hisoblangan boshqa maqsadli tushumlar bo'yicha kelib tushgan pul mablag'lari	Innovatsion faoliyatni litsenziyalash bo'yicha pul mablag'lari sarfi
Kapital investitsiyalarni amalga oshirishda tashqi moliyalashtirish manbalari hisoblangan qisqa muddatli qarzlar bo'yicha kelib tushgan pul mablag'lari	Korxonaning mavjud ob'ektlarni kengaytirish va rekonstruksiya qilish bo'yicha pul mablag'lari sarfi	Kapital investitsiyalarni amalga oshirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan qarzlar bo'yicha pul mablag'lari	Biologik aktivlarni harid qilish bo'yicha pul mablag'lari sarfi
Kapital investitsiyalarni amalga oshirishda ichki moliyalashtirish manbalari hisoblangan grantlar bo'yicha kelib tushgan pul mablag'lari	Raqamli innovatsion texnologiyalarni harid qilish bo'yicha pul mablag'lari sarfi	Kapital investitsiyalarni amalga oshirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan ehsonlar bo'yicha pul mablag'lari	Investitsiyaviy mulk ob'ektlarini harid qilish bo'yicha pul mablag'lari sarfi
Kapital investitsiyalarni amalga oshirishda ichki moliyalashtirish manbalari hisoblangan subsidiyalar bo'yicha kelib tushgan pul mablag'lari	Yashil texnologiyalarini harid qilish bo'yicha pul mablag'lari sarfi	Kapital investitsiyalarni amalga oshirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan ta'sis badallari bo'yicha pul mablag'lari	Yashil maydon yerlarini ko'kalamzorlashtirish bo'yicha pul mablag'lari sarfi
		Kapital investitsiyalarni amalga oshirish maqsadida korxonaga kelib tushgan boshqa milliy va xorijiy pul mablag'lari	Kapital investitsiyalarni amalga oshirish maqsadida boshqa pul mablag'lari sarfi

Raqamli va yashil iqtisodiyot sharoitida bu kabi axborotlarni hisobot shakllarida yoritish bugungi hisob oldidagi muhim

vazifalardan hisoblanadi. Shu bois, mazkur tadqiqot ishimizda pul oqimlari haqidagi hisobotda ushbu axborotlarni aks ettirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib bordik.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida pul oqimlari haqidagi hisobotning "Chet el valyutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot" qismidagi korxona tomonidan sarflangan valyuta mablag'lari bo'yicha axborotlar tarkibini ham tadqiq etdik:

2-jadval

Pul oqimlari haqidagi hisobotda "Chet el valyutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot" tarkibi²

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi
Sarflangan valyuta mablag'lari, jami (satr 271+272+273), shu jumladan	270
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lov	271
Moliyaviy faoliyat bo'yicha to'lovlar	272
Boshqa maqsadlar uchun	273

Pul oqimlari haqidagi hisobotda aks ettiriladigan ushbu axborotlar korxonada xorijiy valyutadagi pul mablag'larining chiqimi to'g'risidagi ma'lumotlarni ochib berishga qaratilgan. Shunday bo'lsada, bizning fikrimizcha, ushbu axborotlar korxonaning turli yo'nalishdagi faoliyatlari bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlarini yorqin ifodalab beryabdi, deb bo'lmaydi. Misol uchun, korxonaning investitsion faoliyati bo'yicha sarflangan valyuta mablag'lari hisobot satrlarida, faqatgina moliyaviy faoliyat yo'nalishi bo'yicha aks ettirilgan bo'lib, investitsiya faoliyatining boshqa yo'nalishlari, xossatan kapital investitsiyalarga oid sarflangan to'lovlar bo'yicha axborotlar satrlarni ishlab chiqishda inobatga olinmagan. Bu esa, korxonaning investitsiya faoliyatiga doir sarflangan valyuta mablag'lari bo'yicha axborotlarni

² Muallif ishlanmasi.

xorijiy investorlarga yetkazib berishga imkon bermayabdi. Shu bois, mazkur tadqiqot ishimizda pul oqimlari haqidagi hisobotning "Chet el valyutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot" qismi bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishni lozim, deb topdik.

Pul oqimlari haqidagi hisobotning "Chet el valyutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot" qismi korxonaga kelib tushgan hamda sarflangan valyuta mablag'lari to'g'risida axborot berib, ushbu valyutalarning qiymati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan buxgalteriya hisobida xo'jalik jarayonlari amalga oshirilgan o'sha kundagi milliy vayutadagi kursi bo'yicha hisobda aks ettiriladi.

Tadqiqot ishimiz davomida pul oqimlari haqidagi hisobotda "Chet el valyutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot" bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqdik:

3-jadval

Pul oqimlari haqidagi hisobotda "Chet el valyutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot" bo'yicha tavsiyalar³

Ko'rsatkichlar nomi	Tavsiya etilgan satr kodi
Sarflangan valyuta mablag'lari, jami (satr 271+272+273+274), shu jumladan	270
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lov	271
Moliyaviy faoliyat bo'yicha to'lovlar	272
Kapital investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha to'lovlar	273
Boshqa maqsadlar uchun	274

Biz tomonimizdan tavsiya etilgan

³ Muallif ishlanmasi.

pul oqimlari haqidagi hisobot tarkibidagi ko'rsatkichlar korxonaning kapital investitsiyalarga yo'naltirilgan valyuta mablag'lari harakatini ochib beradi. Ushbu jihatlar korxonaning investitsiya faoliyati bo'yicha axborotlarni tashqi investorlarga batafsil yetkazib berishga imkon beradi, deb hisoblaymiz.

XULOSA

Yuqorida raqamli va yashil iqtisodiyot sharoitida kapital investitsiyalarga doir pul mablag'lari harakatini moliyaviy hisobotda ochiqlash masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida shunday xulosaga kelindiki, raqamli va yashil iqtisodiyot sharoitida pul oqimlari haqidagi hisobot tarkibidagi kapital investitsiyalarga oid moddalarni moliyaviy axborot foydalanuvchilarning talablariga moslashtirilgan holda qayta ishlab chiqish, xalqaro hisobda nazarda tutilgan tartib-qoidalar asosida muvofiqlashtirish va takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Tadqiqotlar davomida biz tomonimizdan pul oqimlari haqidagi hisobot bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda amalga oshirilgan kapital investitsiyalarga oid axborotlarni batafsil yoritib beradi. Misol uchun, "Chet el valyutasidagi pul mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumot" bo'yicha tavsiya etilgan satrlar axborot foydalanuvchilar uchun muhim hisoblanib, foizlari o'z vaqtida to'lanishini aniqlashga imkon beradigan ma'lumotdan manfaatdor kreditorlarning moliyaviy hisobot bo'yicha axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, pul oqimlari haqidagi hisobotda "Kapital investitsiyalarni amalga oshirish bo'yicha to'lovlar" satrining kiritilishi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida ham ta'kidlanganidek, korxonani kapital investitsiyalar bilan ta'minlovchi yuridik va jismoniy shaxslarga ularning kelgusi davrdagi pul oqimlari bo'yicha talablarini prognoz qilishlariga samarali natijalar beradi, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2024 yil 12 iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan. 3530-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy veb-sayti. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>
3. Nurmanov U.A. Joriy aktivlar tahlili metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati. -T.: 2022, 74 b.
4. Boronov B.F. Yog'-moy mahsulotlari hisobi metodologiyasini takomillashtirish. -T.: TMI, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, 2023, 244 b.
5. Raxmonov Sh.Sh. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda pul mablag'lari hisobi va tahlilini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. -T.: 2022, 59 b.
6. Matkarimov D.M. Moliyaviy hisob va hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. -T.: 2019, 58 b.
7. Eshonqulov A.Q. Korxonalarda pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni takomillashtirish. *Ekonomika i sotsium.* №5(120). 2024
8. 7-son BHXS (IAS) "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot".

UO'K:368.91(575.1)

Qiyosov Sherzod Uralovich,
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professor,
iqtisodiyot fanlari doktori
e-mail:k_sherzod@list.ru*

**O'ZBEKISTONDA HAYOT SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI**

Княсов Шерзод Уралович,
*Профессор Ташкентский государственный экономический
университет, доктор экономических наук*

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА СТРАХОВАНИЯ ЖИЗНИ В
УЗБЕКИСТАНЕ**

Kiyasov Sherzod Uralovich,
*Professor of Tashkent State University of Economics,
doctor of Economic Sciences*

**THE PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE LIFE INSURANCE
MARKET IN UZBEKISTAN**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada hayot sug'urtasini ommalashtirish orqali aholining moliyaviy himoyasini ta'minlash va uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada hayot sug'urtasi xizmatlari uchun yangi texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy sotuv instrumentlarini ishlab chiqish bo'yicha takliflar berilgan. Tadqiqotda xorijiy tajribalar o'rganilgan bo'lib, O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mualliflar hayot sug'urtasining ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatiga e'tibor qaratgan holda, sohani rivojlantirish uchun raqamlashtirish va innovatsion yechimlarni joriy etishning dolzarbligini asoslab bergan. Shu bilan birga, maqolada sug'urtaning zamonaviy marketing strategiyalari va mijozlarga xizmat ko'rsatish standartlarini oshirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.*

***Tayanch so'zlar:** sug'urta xizmatlari, hayot sug'urtasi, O'zbekiston sug'urta bozori, innovatsion sug'urta texnologiyalari, raqamlashtirish, zamonaviy sotuv instrumentlari, xalqaro tajriba, investitsiyalar jalb qilish.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются значение и перспективы развития рынка страхования жизни в Узбекистане. В нем проанализированы возможности обеспечения финансовой защиты населения и привлечения долгосрочных инвестиций путем популяризации страхования жизни. Также в статье даны предложения по внедрению новых технологий*

и разработке современных инструментов продаж для услуг страхования жизни. В исследовании изучен зарубежный опыт, проанализированы возможности применения этих опытов в условиях Узбекистана. Авторы, обратив внимание на социальное и экономическое значение страхования жизни, обосновали актуальность цифровизации и внедрения инновационных решений для развития отрасли. Вместе с тем в статье приведены рекомендации по совершенствованию современных маркетинговых стратегий страхования и стандартов обслуживания клиентов.

Ключевые слова: страховые услуги, страхование жизни, страховой рынок Узбекистана, инновационные технологии страхования, цифровизация, современные инструменты продаж, международный опыт, привлечение инвестиций.

Abstract. This article examines the importance and prospects for the development of the life insurance market in Uzbekistan. It analyzes the possibilities of ensuring financial protection of the population and attracting long-term investments through the popularization of life insurance. The article also provides proposals for the introduction of new technologies for life insurance services and the development of modern sales instruments. The study studies foreign experiences and analyzes the possibilities of applying these experiences in the conditions of Uzbekistan. The authors, focusing on the social and economic importance of life insurance, substantiate the relevance of introducing digitalization and innovative solutions for the development of the industry. At the same time, the article provides recommendations for improving modern insurance marketing strategies and customer service standards.

Keywords: insurance services, life insurance, Uzbekistan's insurance market, innovative insurance technologies, digitalization, modern sales instruments, international experience, investment attraction.

KIRISH

Hayot sug'urtasi bugungi kunda nafaqat moliyaviy himoya vositasi, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlash va iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Dunyo bo'ylab ushbu sug'urta turi aholining farovonligini oshirish va uzoq muddatli kapitalni jamlashda asosiy vosita sifatida faol qo'llanilib kelmoqda. Ammo O'zbekistonda hayot sug'urtasi xizmatlarining ommalashuvi hali yetarli darajada emas, bu esa bozor salohiyatidan to'liq foydalanmaslikka olib kelmoqda. Mavjud muammo va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, hayot sug'urtasini ommalashtirish va uning rivojlanishiga xizmat qiluvchi yangi texnologiyalar va zamonaviy sotuv instrumentlarini yaratish muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada hayot sug'urtasining ahamiyati, xorijiy tajribani

o'rganish, zamonaviy texnologiyalarning roli va marketing yondashuvlari orqali ushbu bozorni rivojlantirish bo'yicha strategik takliflar tahlil qilinadi. Mazkur masalaning dolzarbligi sug'urta bozorining iqtisodiyotga ko'rsatadigan ijobiy ta'sirida hamda aholini moliyaviy risklardan himoyalash imkoniyatlarida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, hayot sug'urtasi xizmatlarini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Sug'urta tizimi orqali aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, ularda uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Bu esa nafaqat shaxsiy darajada farovonlikni oshirishga, balki mamlakat iqtisodiyotiga barqarorlik olib kelishga xizmat qiladi. Hayot sug'urtasi jamg'arma shakllarining rivojlanishi uzoq muddatli investitsiya manbalarini shakllantirib, iqtisodiyotning

turli sohalariga kapital oqimini oshirishga yordam beradi.

Biroq, O'zbekistonda hayot sug'urtasini rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Eng asosiy muammolardan biri – aholining sug'urtaga nisbatan yetarli darajada xabardor emasligi va ishonchsizlik darajasining yuqoriligidir. Ko'plab fuqarolar hayot sug'urtasining afzalliklari va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi roli haqida to'liq ma'lumotga ega emas. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlikning pastligi sug'urtaga bo'lgan talabni cheklaydi. Bundan tashqari, sug'urta kompaniyalarining xizmatlari nisbatan cheklangan va ularning takliflari zamonaviy mijozlar ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi.

Ikkinchi muammo esa sug'urta sohasining huquqiy va iqtisodiy bazasini yanada mustahkamlash zaruratidir. Amaldagi qonunchilik hayot sug'urtasining turli shakllarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashda yetarli darajada moslashuvchan emas. Soliq imtiyozlari va rag'batlantiruvchi mexanizmlarning yetishmasligi esa fuqarolar va tadbirkorlarni ushbu xizmatlardan foydalanishga undashni qiyinlashtirmoqda. Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalarining investitsion faoliyatini kengaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etish uchun resurslar cheklangan. Bu muammolarni hal qilish orqali hayot sug'urtasi sohasida sezilarli rivojlanishga erishish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hayot sug'urtasi moliyaviy bozorning muhim segmenti sifatida ko'plab ilmiy va amaliy tadqiqotlarda o'rganilgan. Hayot sug'urtasi bo'yicha asosiy ilmiy manbalar va ulardagi muhim xulosalarning tahlili ilk bor o'tgan asrning ikkinchi yarmida amalga oshirilgan bo'lib, G Mantis, RN Farmer[2] o'z tadqiqotida jamiyatda hayot sug'urtasiga talabni o'rgangan. Frank D. Lewis[3] esa

hayot sug'urtasining iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini muhokama qiladi. Hayotni sug'urtalash bo'yicha xaridlarning hayot sikli modelini esa Stanley Fischer[4] ishlab chiqqan. Mark J. Browne va Kihong Kim[5] hayotni sug'urtalashga bo'lgan talabning xalqaro tahlilini amalga oshirgan. J. Outreville[6] esa rivojlanayotgan mamlakatlarda hayot sug'urtasi bozorining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar: aholining past daromadi, moliyaviy savodxonlikning yetishmasligi va sug'urta kompaniyalariga ishonchsizlik kabilarni ko'rib chiqqan.

Yangi asr olimlaridan Donghui Li va boshqalar[7] OECD mamlakatlarida hayotni sug'urtalash iste'molini belgilovchi omillarni o'rgangan bo'lsa, H.Gerber[8] Klassik (deterministik) hayot sug'urtasi nazariyasi va stokastik jarayonlarning dinamik modellar o'rtasidagi ideal bog'liqligini asoslab bergan.

Xalqaro ilmiy tadqiqot institutlaridan Swiss Re[9] o'z tadqiqotlarida yuqori foiz stavkasi davrida hayot sug'urtasi mavzusida izlanishlar olib borgan bo'lgan bo'lsa, EAG tashkiloti[10] MDH davlatlarida hayot sug'urtasi bozorining bugungi holati o'rganilgan. MDH davlatlari ilmiy tadqiqotchilari va olimlaridan esa, N.Ovanesyan[11], A.Dalke[12], M.Shimkovich[13], N.Guseynov[14] o'z mamlakatlarida hayot sug'urtasining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini ko'rib chiqqan. Mahalliy olimlardan D.Baxriyev[15], O.Abulqosimov[16], D.Baratova[17] va boshqalar hayot sug'urtasiga oid tadqiqotlarni olib borishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasidagi hayot sug'urtasining ommalashishini tahlil qilish uchun, qonun hujjatlari tahlili, empirik tahlil va sohaga oid xalqaro tajribaning ilg'or tajribalar tahlilining metodologik yondashuvlardan foydalaniladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekistonda sug'urta faoliyati mamlakatning iqtisodiy tizimida muhim o'rin tutadi va uning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda 2021-yil 23-noyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi yangi tahrirdagi O'RQ-730-sonli Qonuni mamlakat sug'urta bozorini modernizatsiya qilishda muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu Qonun sug'urta faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va iste'molchilar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Yangi tahrirda sug'urta xizmatlari ko'rsatishning ochiq va shaffof mexanizmlarini yaratish, raqamlashtirish jarayonlarini joriy etish, shuningdek, sohada xalqaro standartlarga mos faoliyat yuritishni ta'minlashga katta e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-730-sonli Qonunida hayot sug'urtasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, hayot sug'urtasi faoliyati mustaqil sug'urta turi sifatida belgilangan va uning asosiy tamoyillari, tartibga solish mexanizmlari aniqlashtirilgan. [1] Xususan, hayot sug'urtasi sug'urta shartnomasining uzoq muddatli xarakteri va moliyaviy jamg'armalarni shakllantirishda ishtirok etishi bilan boshqa sug'urta turlaridan ajralib turadi. Ayniqsa hayot sug'urtasiga oid xizmatlar, shu jumladan, pensiya jamg'armalari va uzoq muddatli sug'urta mahsulotlari orqali aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan choralar ko'zda tutilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, hayot sug'urtasi kompaniyalari uchun zaxiralarni shakllantirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha aniq talablar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-martdagi PQ-108-sonli Qarorida. Sug'urta xizmatlari bozorini

rivojlantirishga oid bir qator yangi chora-tadbirlar belgilangan. Hayot sug'urtasiga aloqador ravishda, qarorda sug'urta faoliyatining elektronlashtirilishiga alohida urg'u berilgan. 2024-yil 1-sentabrdan boshlab, barcha sug'urta turlari, jumladan hayot sug'urtasi, yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali ro'yxatdan o'tkazilishi va sug'urta polislarini faqat elektron shaklda rasmiylashtirish majburiy etib belgilandi.

Aynan ushbu qarorning 2-ilovasida "Sug'urtalovchilarning tabaqalashtirilgan ustav kapitalining eng kam miqdorlari aniq belgilab berilgan. Unga ko'ra, hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urtalovchilar uchun ustav kapitalining eng kam miqdorlari belgilangan bo'lib, u ikki asosiy turga bo'lingan: (1-rasm)

1-jadval

Hayot sug'urtasi sug'urtalovchilarning tabaqalashtirilgan ustav kapitaliga eng kam miqdorlar¹.

HAYOTNI SUG'URTA QILISH SOHASIDA IXTIYORIY SUG'URTA:		
2025-yil - 25 mlrd so'm	2027-yilda - 30 mlrd so'm	2029-yilda - 35 mlrd so'm
HAYOTNI SUG'URTA QILISH SOHASIDA MAJBURIY SUG'URTA:		
2025-yil - 40 mlrd so'm	2027-yilda - 45 mlrd so'm	2029-yilda - 50 mlrd so'm

Bu talablar hayot sug'urtasi xizmatlarining jozibadorligini oshirish, raqamlashtirish jarayonlarini joriy etish va aholining ushbu turdagi sug'urta mahsulotlariga bo'lgan ishonchini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qaror sug'urta kompaniyalarining reytinglarini yuritishni ham ta'minlashni ko'zlaydi, bu esa sug'urta xizmatlarining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bunday

¹ <https://imda.uz/wp-content/uploads/2023/08/2023-1yy-tahlili.pdf>

reytinglar ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilinadi, bu esa isteʼmolchilarga eng sifatli xizmatni tanlashda yordam beradi.

Mamlakatimizda sugʻurta bozori ishtirokchilari sonining oʻsish dinamikasini 2019-2023-yillarda sezilarli deyishimiz mumkin, ammo hayot sugʻurtasi bilan shugʻullanadigan tashkilotlar soni oʻzgarishsiz qolmoqda. (2-jadval)

2-jadval
Oʻzbekiston Respublikasidagi sugʻurta tashkilotlarining soni²

Koʻrsatkichlar	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y
Sugʻurta tashkilotlari soni	36	40	42	41	42
shu jumladan hayot sugʻurtasi boʻyicha	8	8	8	8	8

Hayotni sugʻurta qilish sohasidagi amaliy maʼlumotlarni koʻrib chiqadigan boʻlsak, mamlakatimizda 2023-yil 1 yarim yillik boʻyicha oldingi yilning shu davriga mos ravishda faqatgina sugʻurta majburiyatlarida oʻsish kuzatilgan. (3-jadval)

3-jadval
Hayotni sugʻurta qilish sohasidagi koʻrsatkichlar (mln soʻmda)³

Koʻrsatkichlar	30.09.2020	30.09.2021	30.09.2022	30.09.2023	30.09.2024
Sugʻurta mukofotlari	244 022	549 715	1 290 750	237 921	167 154
Sugʻurta majburiyatlari	2 772 349	3 854 494	1 235 880	557 599	23 598 256

² <https://imda.uz/wp-content/uploads/2023/08/2023-1yy-tahlili.pdf>

³ <https://imda.uz/wp-content/uploads/2023/08/2023-1yy-tahlili.pdf>

Sugʻurta toʻlovlari	228 579	443 962	1 189 466	349 336	97 637
---------------------	---------	---------	-----------	---------	--------

Yuqoridagi maʼlumotlarni umumlashtiradigan boʻlsak, sugʻurta mukofotlari va sugʻurta majburiyatlari 30.09.2020 yildan 30.09.2024 yilgacha izchil ravishda oshib borgan. Sugʻurta toʻlovlarining hajmi yillar davomida sezilarli darajada pasaygan (2022-yilda 1 189 466 mln soʻm boʻlsa, 2024-yilda 97 637 mln soʻm). Sugʻurta majburiyatlari (23 598 256 mln soʻm) sugʻurta mukofotlaridan (167 154 mln soʻm) ancha yuqori ekanligi koʻrinib turibdi. Sugʻurta majburiyatlarining doimiy oshishi bozorning rivojlanayotganini bildiradi, lekin toʻlovlarning kamayishi mijozlar uchun salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin. Bu kompaniyalarning moliyaviy boshqaruvini va ehtimol, qoplamalar boʻyicha siyosatini qayta koʻrib chiqish zarurligini koʻrsatadi. Oʻzbekistonda hayot sugʻurtasi bozorining rivojlanishi nisbatan sust, bu sektorning umumiy sugʻurta bozorida ulushi atigi 10-12% ni tashkil etadi. Qiyoslash uchun, rivojlangan davlatlarda ushbu koʻrsatkich 50-60% ga yetadi. Ushbu davlatlarning hayot sugʻurtasini rivojlantirishdagi muvaffaqiyatli yondashuvlarni tahlil qiladigan boʻlsak, unda bir nechta davlatlarning yaqqol tashabbuslari alohida namoyon boʻladi. AQShda hayot sugʻurtasi aholining moliyaviy xavfsizligini taʼminlash vositasi sifatida keng ommalashgan. Bunga sabab – hayot sugʻurtasi uchun toʻlangan mukofotlarni soliqqa tortishdan ozod qilish tizimi. Sugʻurta mukofotlari daromad soligʻidan chiqariladi, bu esa aholining sugʻurtaga boʻlgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, kompaniyalar oʻz xodimlariga guruhli hayot sugʻurtasini taklif qilish orqali soliqqa yengillik olish imkoniyatiga ega. Natijada, AQShning sugʻurta bozori global bozorning 40% ini tashkil etadi.[18]

Yaponiyada esa hayot sug'urtasi bozori iqtisodiy rivojlanish bilan birga rivojlangan. Bu yerda sug'urta mahsulotlari nafaqat hayot yo'qotilishi bilan bog'liq xavflarni, balki qariyalik davridagi ehtiyojlarni ham qoplashga yo'naltirilgan. Pensiya sug'urtasi va uzoq muddatli jamg'arma mahsulotlari orqali aholi moliyaviy xavfsizligini ta'minlashga katta e'tibor qaratiladi.[19] Yaponiya sug'urta kompaniyalari texnologiyalarni joriy qilish orqali xizmatlarni qulaylashtirgan: mijozlar o'z sug'urta shartnomalarini to'liq onlayn boshqarish imkoniga ega.

Xitoyda hayot sug'urtasi aholining ijtimoiy ta'minot tizimini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida rivojlanmoqda. Davlat qishloq joylarida sug'urtaga bo'lgan qiziqishni oshirish uchun subsidiyalar ajratadi va minimal to'lovli sug'urta mahsulotlarini taklif qiladi. Shu bilan birga, moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun davlat tomonidan yirik kompaniyalar o'tkaziladi. 2023-yil holatiga ko'ra, Xitoyda hayot sug'urtasi bozorining hajmi 500 milliard AQSh dollaridan oshdi.[20]

Germaniyada hayot sug'urtasi uzoq muddatli jamg'arma va pensiya rejalariga asoslangan. Davlat tomonidan subsidiyalangan "Riester" sug'urtasi orqali aholi o'z pensiya jamg'armalarini oshirishi mumkin.[21] Ushbu dastur orqali aholi nafaqat jamg'arma yig'adi, balki soliqqa yengillik oladi. Bundan tashqari, sug'urta kompaniyalari yuqori darajada shaffoflikka ega va mijozlar uchun moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida qat'iy nazorat qilinadi.

Buyuk Britaniyada hayot sug'urtasi kompaniyalari banklar va investitsiya fondlari bilan faol hamkorlik qiladi. Bu mijozlarga sug'urta, jamg'arma va investitsiya xizmatlarini bir joyda olish imkonini beradi. Shuningdek, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatiga katta e'tibor qaratiladi: har bir mijozga shaxsiy maslahatchi biriktiriladi va ularga maxsus yondashuv taklif etiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda tizimli iqtisodiy islohotlar bevosita boshqa sohalarga ham ta'sir o'tkazganligi sababli, mamlakatimizda ham kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

1. Moliyaviy va sug'urta savodxonligini oshirish hayot sug'urtasini ommalashtirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Aksariyat hollarda aholi sug'urta xizmatlarini majburiy xarajat deb qabul qiladi va uning uzoq muddatli foydasini to'g'ri tushunmaydi. Shu sababli maktab va oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik bo'yicha maxsus dasturlarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot ishlari kuchaytirilishi kerak.

2. Raqamli texnologiyalar hayot sug'urtasini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Masalan, onlayn sug'urta platformalarining paydo bo'lishi orqali mijozlar sug'urta xizmatlarini masofadan turib olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Fintech kompaniyalar bilan integratsiya qilish orqali onlayn to'lov tizimlarini kengaytirish va xizmatlarni soddalashtirish mumkin. Shu bilan birga, blockchain texnologiyasi sug'urta shartnomalarining shaffofligini ta'minlash va fribgarlik holatlarining oldini olishga xizmat qiladi. Sun'iy intellekt asosida mijozlarning xavflarini baholash va ularning ehtiyojlariga mos mahsulotlarni taklif etish sug'urta kompaniyalarining samaradorligini oshiradi.

3. Blokcheyn texnologiyasi sug'urta sohasiga yangi darajada shaffoflik olib kiradi, bu esa mijozlar ishonchini mustahkamlaydi. IoT (Internet of Things) orqali sog'liq va xavfsizlik ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish va tariflarni shaxsga moslashtirish imkonini beradi.

Masalan, mijozlarning sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlovchi dasturlar orqali sug'urta mukofotlarida chegirmalar berilishi mumkin. Bu nafaqat aholi o'rtasida qiziqish uyg'otadi, balki kompaniyalar uchun daromadni oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, texnologiyalarni joriy etish sug'urta jarayonlarini avtomatlashtirish orqali operatsion xarajatlarni kamaytiradi.

4. Hayot sug'urtasi xizmatlarini sotishda mijozlarga yanada yaqin bo'lish va ularning ehtiyojlarini tushunishga asoslangan sotuv usullarini qo'llash talab etiladi. Masalan, "cross-selling" texnikasi orqali mijozlarga qo'shimcha mahsulotlar taklif qilish yoki "up-selling" orqali ularga yanada yuqori sifatli xizmatlarni sotish mumkin. Bundan tashqari, mijozlar bilan doimiy aloqada bo'lish uchun mobil ilovalar va chatbotlar joriy etilishi samarali bo'lishi mumkin. O'zbekiston sug'urta bozorida hali bunday yondashuvlar keng qo'llanilmagan, bu esa yangi imkoniyatlarni anglatadi.

5. Hayot sug'urtasiga bo'lgan talabni oshirish uchun mahsulotlar turini kengaytirish zarur. Masalan, nafaqat oddiy hayot sug'urtasi, balki pensiya sug'urtasi, bolalar ta'limi uchun sug'urta va sog'liq sug'urtasi kabi mahsulotlarni taklif qilish mumkin. Diversifikatsiya orqali aholi turli qatlamlarining ehtiyojlariga mos keladigan xizmatlar yaratiladi. Shu bilan birga, yangi mahsulotlarni ishlab chiqishda xalqaro tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. Mahsulotlar turlarining ko'pligi bozorga yangi mijozlarni jalb qilish imkonini beradi va raqobatbardoshlikni oshiradi.

6. Guruhli hayot sug'urtasi dasturlarini rivojlantirish korxonalar uchun katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Masalan, yirik kompaniyalar o'z xodimlari uchun hayot sug'urtasini ish haqi paketiga qo'shimcha tarzda kiritishlari mumkin. Bu nafaqat xodimlarning sodiqligini oshiradi, balki

ularning moliyaviy xavfsizligini ta'minlaydi. Korporativ sug'urta dasturlari orqali mijoz bazasini kengaytirish sug'urta kompaniyalari uchun samarali strategiya bo'ladi. Shu bilan birga, davlat korxonalari va xususiy sektor o'rtasida sheriklikni rivojlantirish orqali sug'urta bozorini ommalashtirishga erishish mumkin. Ayni paytda, maxsus biznes forumlar va seminarlar tashkil etish orqali korxonalarni ushbu xizmatlardan foydalanishga undash lozim.

7. Sug'urta bozorini rivojlantirishda moliyaviy texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Fintech kompaniyalari bilan hamkorlik qilish sug'urta xizmatlarini kengroq auditoriyaga yetkazish imkonini beradi. Masalan, mikro-sug'urta xizmatlari orqali kam daromadli aholi qatlamlariga kirib borish mumkin. Mobil ilovalar orqali sug'urta shartnomalarini tuzish va boshqarish xizmatlarni yanada qulay va tezkor qiladi. Shu bilan birga, sug'urta mahsulotlarini kredit va boshqa moliyaviy xizmatlar bilan birlashtirish orqali mijozlar uchun kompleks yechimlar taklif etilishi mumkin. Bu nafaqat sug'urta xizmatlarini ommalashtiradi, balki moliyaviy sektorga ishonchni oshiradi.

8. Hayot sug'urtasini targ'ib qilishda marketingning roli juda katta. Interaktiv platformalar va ommaviy axborot vositalarida faol reklama kampaniyalarini o'tkazish mijozlarni jalb qilishning samarali usulidir. Sug'urta kompaniyalari ijtimoiy tarmoqlar orqali mijozlar bilan muloqotda bo'lishlari va ularning ehtiyojlarini tushunishlari lozim. Bundan tashqari, mijozlarga bepul maslahatlar berish yoki qiziqarli aksiyalar o'tkazish orqali ularning e'tiborini qozonish mumkin. Sug'urta bozorini rivojlantirish uchun maxsus targ'ibot dasturlarini yo'lga qo'yish, shu jumladan, bozorni yangi mijozlar uchun ochish orqali uzoq muddatli o'sishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 23 noyabrda "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-730-son Qarori. <https://www.lex.uz/docs/-5739117>
2. Mantis G., Farmer R. N. Demand for life insurance //Journal of Risk and Insurance. – 1968. – C. 247-256.
3. Lewis F. D. Dependents and the demand for life insurance //The American economic review. – 1989. – T. 79. – №. 3. – C. 452-467.
4. Fischer S. A life cycle model of life insurance purchases //International Economic Review. – 1973. – C. 132-152.
5. Browne M. J., Kim K. An international analysis of life insurance demand //Journal of Risk and insurance. – 1993. – C. 616-634.
6. Outreville J. F. Life insurance markets in developing countries //Journal of risk and insurance. – 1996. – C. 263-278.
7. Li D. et al. The demand for life insurance in OECD countries //Journal of Risk and Insurance. – 2007. – T. 74. – №. 3. – C. 637-652.
8. Gerber H. U. Life insurance mathematics. – Springer Science & Business Media, 2013.
9. Swiss re sigma 5/2021: global economic and insurance market outlook 2022/23 | Swiss Re <https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/sigma-2024-02-life-annuity-insurance.html>
10. ЕАГ (2021). Финансовая стабильность и рынок страхования в странах СНГ <https://eurasiangroup.org/ru>
11. Ованесян Наталья Матвеевна, Сопельник Екатерина Юрьевна Рынки страхования жизни в РФ: особенности и перспективы // Kant. 2018. №1 (26). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rynki-strahovaniya-zhizni-v-rf-osobennosti-i-perspektivy>.
12. Дальке Алена Юрьевна Рынок страхования жизни в Казахстане: проблемы и перспективы // Проблемы Науки. 2017. №18 (100). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rynok-strahovaniya-zhizni-v-kazahstane-problemy-i-perspektivy>.
13. Шимкович, М. Н. Страхование жизни: социально-экономическое значение для инвестиционного и страхового рынков Республики Беларусь 2022 – Минск : БГУ, 2022. – С. 372-379. <https://elib.bsu.by/handle/123456789/291984>
14. Гусейнов Н. Г. Текущее состояние страхования жизни в азербайджане // Инновационные подходы в современной науке. – 2020. – С. 112-116.
15. Бахриев Д. Ўзбекистонда суғурта бозорини ривожлантириш йўналишлари //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – T. 1. – №. 6. – С. 137-141.
16. Абулкосимов Отабек Абдусаттор ўгли. Суғурта хизматлари бозорини ривожлантиришнинг объектив зарурлиги ва назарий асослари // SAI. 2024. №Special Issue 33. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/su-urta-hizmatlari-bozorini-rivozhlantirishning-obektiv-zarurligi-va-nazariy-asoslari>.
17. Baratova D. Ўзбекистонда ҳаёт суғуртасининг ривожланиш муаммолари ва уни баргараф этиш йўллари //Архив научных исследований. – 2022. – T. 2. – №. 1. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%AD%D0%BA%D0%BE%D0%BD%D0%BE%D0%BC%D0%B8%D0%BA%D0%B0_%D0%A1%D0%A8%D0%90
19. https://raexpert.ru/researches/insurance/ins_market_2023/
20. https://www.bafin.de/EN/Verbraucher/Altersvorsorge/Riester/riester_node_en.html
21. https://www.bafin.de/EN/Verbraucher/Altersvorsorge/Riester/riester_node_en.html.

УДК: 330.322:368(575.1)

Гулираъно Носирова Абдулазизовна
Банковская-Финансовая академия Республики Узбекистан
PhD., доц., кафедры «Финансы»—

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАХОВАНИЯ РИСКОВ В УПРАВЛЕНИИ
ПРОЕКТАМИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Gulirano Nosirova Abdulazizovna
PhD., doc., of the “Finance” Department at
The Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan

IMPROVING RISK INSURANCE IN PROJECT MANAGEMENT IN THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Gulira'no Nosirova Abdulazizovna
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Moliya” kafedrası dot., PhD

O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LOYIHALARNI BOSHQARISHDA
RISKLARNI SUG’URTA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация: В статье особое внимание уделяется роли страхования в обеспечении финансовой безопасности и успешности проекта, а также важности выбора правильных страховых инструментов для защиты интересов всех участников проекта. Анализируются современные подходы к управлению рисками в различных отраслях, подчеркивая значимость интеграции страхования в систему управления проектами. а также проблемы и вызовы, с которыми сталкиваются организации при внедрении эффективных механизмов страхования рисков. Приводятся рекомендации по совершенствованию существующих методов управления рисками с использованием страховых продуктов для повышения устойчивости проектов к внешним и внутренним угрозам.

Ключевые слова: проект, риск, страхование, управление, финансы, капитал, эффективность, реализация, минимизация, оценка, планирование, мониторинг.

Abstract: The article emphasizes the role of insurance in ensuring the financial security and success of a project, as well as the importance of selecting the right insurance tools to protect the interests of all project participants. It analyzes modern approaches to risk management in various industries, highlighting the significance of integrating insurance into project management systems. The article also discusses the challenges and issues organizations face when implementing effective risk insurance mechanisms. Recommendations are provided for improving existing risk management methods through the use of insurance products to enhance the resilience of projects to both external and internal threats.

Keywords: project, risk, insurance, management, finance, capital, efficiency, implementation, minimization, assessment, planning, monitoring.

Annotatsiya: Maqolada sug'urta roliga, loyiha moliyaviy xavfsizligini va muvaffaqiyatini ta'minlashdagi ahamiyatiga, shuningdek, loyiha barcha ishtirokchilarining manfaatlarini himoya qilish uchun to'g'ri sug'urta vositalarini tanlashning muhimligiga alohida e'tibor qaratilgan. Turli sohalarida risklarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi, sug'urtani loyiha boshqaruvi tizimiga integratsiya qilishning ahamiyati ta'kidlanadi. Shuningdek, tashkilotlar risklarni sug'urta qilishning samarali mexanizmlarini joriy etishda duch keladigan muammolar va qiyinchiliklar muhokama qilinadi. Loyiha tashqi va ichki tahdidlarga nisbatan chidamliligini oshirish uchun sug'urta mahsulotlarini qo'llash orqali mavjud risklarni boshqarish usullarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: loyiha, xavf, sug'urta, boshqaruv, moliya, kapital, samaradorlik, amalga oshirish, minimallashtirish, baholash, rejalashtirish, monitoring.

ВВЕДЕНИЕ

Управление проектами требует комплексного подхода к решению множества задач, одной из которых является эффективное управление рисками. Риски могут быть вызваны внешними и внутренними факторами, и их влияние на успешность проекта может быть значительным. В этой связи страхование рисков становится важным инструментом для минимизации потерь и обеспечения успешной реализации проектов. В Республике Узбекистан, где активно развиваются инфраструктурные и инвестиционные проекты, совершенствование системы страхования рисков в управлении проектами приобретает особую значимость.

В Узбекистане существует несколько постановлений и нормативных актов, касающихся управления проектами, особенно в контексте государственных и инвестиционных проектов. Некоторые из них напрямую регулируют вопросы управления проектами, закупок, финансирования, мониторинга и отчетности. В Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 30 июня 2017 года № 404 «О дополнительных мерах по улучшению управления

проектами в сфере государственного управления» меры направлены на улучшение координации и управления проектами в государственном секторе, а также на внедрение механизмов для повышения эффективности реализации проектов.

Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 17 января 2018 года № 8 «О мерах по улучшению системы управления проектами в сфере государственной и частной собственности» направлено на улучшение механизмов управления проектами в рамках частно-государственного партнерства, создание правовой основы для реализации совместных проектов и повышение эффективности использования ресурсов.[1] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 25 декабря 2020 года № 785 «О мерах по улучшению управления проектами в сфере инфраструктуры» регулирует управление проектами в сфере инфраструктуры, включая транспорт, энергетику и строительство.[2] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 ноября 2022 года № 594 «О порядке разработки и реализации крупных инвестиционных проектов» направлено на упрощение процесса разработки и

реализации крупных инвестиционных проектов, с фокусом на ускорение процедур и улучшение планирования. [3] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 25 декабря 2017 года № 1017 «О мерах по улучшению системы финансирования инвестиционных проектов» касается вопросов финансирования крупных инвестиционных проектов, включая вопросы кредитования, грантов и государственного софинансирования. [4] Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 27 ноября 2020 года № 844 «О мерах по внедрению цифровых технологий в управление проектами» регулирует внедрение цифровых технологий и платформ для управления проектами, что повышает прозрачность и эффективность работы с проектной документацией и отчетностью.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Shmidt S., Rainer T. (2017) — (Study of the specifics of risks and insurance for large infrastructure projects) - Исследуются различные методы и стратегии, которые проектные менеджеры могут использовать для управления рисками, а также роль страхования в этих процессах. [5]

Kuznetsov N. (2018) — (Examination of the role of interaction between insurers, government bodies, and private companies in the context of risk insurance) - Рассмотрение роли взаимодействия между страховщиками, государственными органами и частными компаниями в контексте страхования рисков. [6]

PMBOK Guide (Project Management Body of Knowledge) — Издание Института управления проектами (PMI). Это основное руководство по стандартам управления проектами, которое постоянно обновляется и содержит лучшие практики, методы и инструменты для успешного

управления проектами. PMBOK является основой для сертификации PMP (Project Management Professional). [7]

“Analysis of the role and integration of insurance in risk management in project management. « (Harrison K. 2015) — исследуются различные методы и стратегии, которые проектные менеджеры могут использовать для управления рисками, а также роль страхования в этих процессах. [8]

«The Role of Project Management in Successful Project Delivery» (Aubry, M., Hobbs, B., & Thuillier, D., 2007) — В этой статье обсуждается роль управления проектами в обеспечении успешного завершения проектов и способы улучшения эффективности управления проектами через внедрение новых процессов. [9]

«Project Management and the Agile Transformation» (Cohn, M., 2010) — Статья посвящена применению гибких методов управления проектами (Agile) в различных сферах и анализу того, как Agile может улучшить гибкость и эффективность процессов управления проектами. [10]

«A Framework for Managing Projects in a Multi-Project Environment» (Müller, R., & Turner, R., 2010) — В исследовании рассматриваются методы управления несколькими проектами одновременно и как их интеграция в общую систему управления проектами может улучшить процессы и повысить эффективность. [11]

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методология исследования по теме совершенствования управления проектами представляет собой систему принципов, методов и подходов, с помощью которых можно изучать процессы, проблемы и механизмы, влияющие на эффективность управления проектами. Исследование такого рода включает в себя

теоретические и эмпирические подходы, а также использование различных методов для анализа, улучшения и оптимизации процессов управления проектами. Основной задачей является выработка рекомендаций для повышения успешности проектов, сокращения рисков и улучшения качества.

РЕЗУЛЬТАТ И ОБСУЖДЕНИЕ

Риски в управлении проектами — это неопределенности, которые могут повлиять на сроки, бюджет, качество и другие ключевые параметры проекта. Управление рисками в проектном контексте включает в себя идентификацию, оценку, планирование, мониторинг и контроль рисков, а также применение мер для их минимизации. Важным инструментом в этих процессах является страхование, которое позволяет проектным организациям передать часть рисков страховым компаниям.

Страхование рисков в управлении проектами включает несколько основных видов:

1. Страхование финансовых рисков — защита от финансовых потерь, связанных с изменением валютных курсов, процентных ставок, экономической нестабильностью.

2. Страхование от потерь, связанных с задержкой выполнения проекта — покрытие убытков в случае неисполнения проекта в срок.

3. Страхование ответственности — защита от убытков, связанных с юридическими последствиями за нарушение условий контракта или стандартов качества.

4. Страхование имущества и строительных рисков — защита материальных активов, связанных с проектом, от разрушений, повреждений или потерь.

В последние годы Республика Узбекистан активно развивает экономику, инфраструктуру и привлекает иностранные инвестиции, что требует внедрения современных методов управления рисками, включая страхование. Однако практика страхования рисков в управлении проектами в Узбекистане все еще находится на начальной стадии развития.

1. Структура страхового рынка Узбекистана. На сегодняшний день в Узбекистане функционирует несколько крупных страховых компаний, предлагающих разнообразные продукты, однако страхование рисков в управлении проектами (в том числе строительных и инвестиционных рисков) пока остается ограниченным. Большинство страховых компаний сосредоточены на страховании имущества и автотранспорта, тогда как специализированные страховые продукты для проектных рисков не достаточно развиты.

2. Проблемы и ограничения текущей системы. Одной из проблем является отсутствие четкой законодательной базы для регулирования страхования рисков в проектном управлении. Законодательство, регулирующее страхование в Узбекистане, в основном ориентировано на традиционные виды страхования, и не учитывает специфики крупных инфраструктурных и инвестиционных проектов. Кроме того, недостаток специалистов в области проектного страхования и ограниченный выбор страховых продуктов также сдерживают развитие этого сегмента.

3. Нормативно-правовая база. Нормативно-правовая база в области страхования в Узбекистане постепенно развивается, но еще требует доработки для обеспечения эффективного внедрения страхования рисков в проекты. Требуется

создание нормативных актов, которые будут детально регулировать виды и условия страхования, подходящие для различных типов проектов, в том числе с учетом международной практики.

Для улучшения системы страхования рисков в управлении проектами в Узбекистане необходимо принять ряд мер:

1. Развитие страховых продуктов для проектного управления. Необходимо разработать и внедрить специализированные страховые продукты для защиты от специфических рисков, возникающих в крупных проектах, таких как риски затягивания сроков, изменения стоимости проекта, юридические риски, экологические риски и т.д. Эти продукты должны быть адаптированы под реалии Узбекистана, с учетом особенностей национальной экономики и законодательства.

2. Укрепление нормативно-правовой базы. Для развития страхования рисков в проектном управлении необходимо разработать и внедрить специальные законы и подзаконные акты, регулирующие страхование рисков в проектной деятельности. Эти документы должны обеспечить четкие правила для всех участников, включая страховщиков, проектировщиков, подрядчиков и заказчиков.

3. Обучение специалистов. Одной из важнейших составляющих успешного внедрения страхования рисков в проектное управление является подготовка квалифицированных специалистов, которые будут понимать особенности проектного управления и механизмы страхования рисков. В Узбекистане необходимо развивать образовательные программы и тренинги, направленные на подготовку кадров для работы в сфере страхования рисков в управлении проектами.

4. Привлечение иностранных партнеров и международного опыта. Привлечение международных страховых компаний и консультантов, а также использование международного опыта в области страхования рисков в проектном управлении, может стать важным шагом в совершенствовании этого сегмента. Важными аспектами могут стать заимствование зарубежных моделей страхования, а также создание международных партнерств, которые позволят улучшить инфраструктуру и качество проектного страхования в Узбекистане.

5. Создание системы гарантированного исполнения обязательств. Для минимизации рисков в управлении крупными проектами можно создать систему гарантированных обязательств (например, через страховые облигации), которая будет обеспечивать выполнение условий контрактов и защиты интересов всех сторон проекта в случае возникновения форс-мажорных обстоятельств.

Существуют также различные стратегии рисков, являющиеся эффективными в страховании рисков на проектах.



Рисунок. Стратегии снижения рисков¹

Эта структура может быть адаптирована в зависимости от специфики проекта или отрасли. Визуальный поток

¹ На основе исследований было разработано автором.

помогает понять, когда и как страхование должно быть интегрировано в управление проектами для снижения различных рисков.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Совершенствование системы страхования рисков в управлении проектами в Республике Узбекистан представляет собой важный шаг для повышения стабильности и устойчивости национальной экономики. Развитие специализированных страховых

продуктов, улучшение нормативно-правовой базы, обучение специалистов и заимствование международного опыта позволят значительно повысить качество управления рисками и обеспечить успешную реализацию крупных инвестиционных и инфраструктурных проектов. В конечном итоге это будет способствовать более эффективному привлечению инвестиций, улучшению бизнес-климата и устойчивости к внешним и внутренним экономическим рискам.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 17 января 2018 года № 8 «О мерах по улучшению системы управления проектами в сфере государственной и частной собственности»
2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 25 декабря 2020 года № 785 «О мерах по улучшению управления проектами в сфере инфраструктуры» регулирует управление проектами в сфере инфраструктуры, включая транспорт, энергетику и строительство
3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 ноября 2022 года № 594 «О порядке разработки и реализации крупных инвестиционных проектов».
4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 25 декабря 2017 года № 1017 «О мерах по улучшению системы финансирования инвестиционных проектов».
5. Shmidt S., Rainer T. (2017) — (Study of the specifics of risks and insurance for large infrastructure projects).
6. Kuznetsov N. (2018) — (Examination of the role of interaction between insurers, government bodies, and private companies in the context of risk insurance)
7. PMBOK Guide (Project Management Body of Knowledge) — Издание Института управления проектами (PMI).
8. “Analysis of the role and integration of insurance in risk management in project management. “ (Harrison K. 2015).
9. “The Role of Project Management in Successful Project Delivery” (Aubry, M., Hobbs, B., & Thuillier, D., 2007).
10. “Project Management and the Agile Transformation” (Cohn, M., 2010).
11. “A Framework for Managing Projects in a Multi-Project Environment” (Müller, R., & Turner, R., 2010)

UO‘K:336.2..336.1(575.1)

Shirinov Sabir Erkinovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.n.

SOLIQ TIZIMIDA DAVLAT BUDJETNING SOLIQLI DAROMADLARINI SHAKLLANISH JARAYONI

Ширинов Сабир Эркинович,
*кандидат экономических наук, профессор Ташкентского государственного
экономического университета*

ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ НАЛОГОВЫХ ДОХОДОВ БЮДЖЕТА В НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЕ

Shirinov Sabir Erkinovich,
*candidate of economic sciences, professor of Tashkent
State University of Economics*

THE PROCESS OF FORMATION OF TAX REVENUE OF THE BUDGET IN THE TAX SYSTEM

Annotatsiya. Maqolada soliq tizimi, soliq elementlari, soliq tushumlariga oid qarashlar tahliliy bayon qilingan, davlat budjeti solikli daromadlarini shakllanish jarayonining chizma modellar ishlab chiqilgan, ishlab chiqilgan chizma modellar mazmuni tahlil qilingan, tahlil natijalariga tayangan holda, soliq majburiyatlarini yuzaga kelish asoslari, soliq majburiyatlarini soliq tushumlariga aylanishi ko'rsatib berilgan, soliq majburiyati hamda soliq tushumiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning xususiyatlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: soliq tizimi, soliq elementlari, soliq tushumlari, soliq majburiyati, chizma model, davlat budjeti, soliq predmeti, soliq bazasi, soliq to'lovchi, soliq qarzdorligi, mol-mulk garovi, kafillik, bank kafolati, penyalar.

Аннотация. В статье аналитически описаны содержание понятия налоговой системы, налоговых элементов, налоговых поступлений, разработаны чертежные модели процесса формирования налоговых доходов государственного бюджета, проанализировано содержание разработанных чертежных моделей, изложены основы возникновения налоговых обязательств, трансформация налоговых обязательств в налоговые поступления, факторы, влияющие на размер налоговых обязательств налогоплательщиков.

Ключевые слова: налоговая система, налоговые элементы, налоговые поступления, налоговое обязательство, чертежная модель, государственный бюджет, субъект налога, налоговая база, налогоплательщик, налоговое обязательство, залог имущества, поручительство, банковская гарантия, пени.

Annotation. *The article analytically describes the content of the concept of the tax system, tax elements, tax revenues, develops drawing models of the process of forming tax revenues of the state budget, analyzes the content of the developed drawing models, outlines the basics of the formation of tax obligations, the transformation of tax obligations into tax revenues, factors influencing the amount of tax obligations of taxpayers and tax revenue.*

Key words: *tax system, tax elements, tax revenues, tax liability, drawing model, state budget, tax subject, tax base, taxpayer, tax debt, property pledge, surety, bank guarantee, penalties.*

KIRISH

Boshqa davlatlardagi kabi, respublika-mizda ham solikli daromadlar davlat budjeti daromadlarining asosiy qismini tashkil qiladi. Mamlakat budjetining muvozanatligini, barqarorligini ta'minlash masalasi soliq tushumlarini to'liq va o'z vaqtida yig'ilishiga bog'liq. Soliq tushumlari mamlakat soliq tizimining faoliyat mahsuli hisoblanib, uning shakllanishiga ko'plab omillar ta'sir qiladi. Aksariyat omillar soliq tizimi mexanizmini samarali ishlashini ta'minlovchi, uning elementlari bilan bevosita bog'liq. Soliq elementlaridan foydalangan holda budjetga yeg'iluvchi soliq tushumlarini miqdorini hamda soliqlarning yeg'iluvchanlik darajasini barqaror o'sishiga ega bo'lishimiz mumkin. Ushbu maqsadda budjetning solikli daromadlarini shakllanish, shuningdek soliq majburiyatlarini yuzaga kelishi va ularni bajarilishini ta'minlash jarayonlarini tadqiq qilish - soliq tizimining dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M.R.Pinskayaning fikricha, "soliq tizimi – bu, soliqlar va yig'imlar, ularni joriy qilish, o'zgaritish, bekor qilish, to'lash va to'lashni ta'minlovchi choralarni qo'llash, soliq nazoratini amalga oshirish, javobgarlikka tortish, soliq qonunchiligini buzganligi uchun qo'llaniluvchi javobgarlik choralarni belgilash, tamoyillari, shakllari va usullari yig'indisidir"[1]. Soliq tizimi – "davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchi asosiy

dastaklaridan biri bo'lib, u orqali umumdavlat manfaatlari hamda budjet daromadlari ta'minlanadi, bozor ishtirokchilarining manfaatlari pariteti yaratiladi"[2]. Soliq manbasi "soliq to'lovchining qonunchilikda belgilab qo'yigan iqtisodiy ko'rsatkichi (jamg'armasi) hisoblanadi. U soliq to'lovchi tomonidan mustaqil tanlanmaydi"[3]. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 71-moddasida "soliq bazasi soliq solish obektining qiymat, fizik yoki boshqa xususiyatini ifodalaydi"[4], deb belgilangan. Soliq bazasi "soliq ob'ektini sonli ifodalaydi. U soliq ob'ekti bilan juda yaqindan bog'langan"[5]. I.A.Mayburov va A.M.Sokolovskayalarning takidlashicha, "soliq predmeti mulk, foyda, daromad, xarajat, sotilgan tovarlarning qiymati, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarning tavsiflovchi yordami element hisoblanadi"[6]. Sub'ektning soliq predmetiga huquqiy aloqadorligi mavjud bo'lganda, soliq majburiyati yuzaga keladi. Soliq majburiyati yuzaga kelishga sabab bo'lganda, soliq predmeti soliq ob'ektiga aylanadi"[7]. N.I. Kulikov va boshqalarning fikricha, "soliq majburiyati – bu, soliq to'lovchi tomonidan soliqni hisoblash va to'lash bo'yicha barcha talablarni bajarish jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlardir. Soliq majburiyati mamlakat soliq qonunchiligida belgilangan holat mavjud bo'lganda yuzaga keladi"[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida chet el iqtisodchi olimlari tomonidan bildirilgan soliq va budjet


tizimining iqtisodiy mohiyatiga oid qarashlar tahlil qilingan. O'zbekiston soliq tizimida soliq tushumlarini shakllanish jarayoni hamda soliq majburiyatini yuzaga kelishi va ularni bajarilishini ta'minlash chizma modellari ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan chizma modellar tarkibi tahlil qilinib, soliq tushumiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan, tahlil natijalariga ko'ra asosli xulosalar olingan. Tadqiqotni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi me'yoriy-huquqiy hujjatlariga tayanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Soliq tushumi haqida so'z yuritar ekanmiz, soliq majburiyati va uni bajarilishini ta'minlash mexanizmini bilmasdan, davlat budjetining soliqli daromadlarining mohiyatini to'liq anglay olmaymiz. Chunki, soliq majburiyatlari soliq tushumlarining eng asosiy manbasi hisoblanadi. 1-rasmda davlat budjetining soliqli daromadlarini shakllanish jarayonining chizma ko'rinishidagi modeli tasvirlangan. Mazkur chizma modelda soliq ob'ekti paydo bo'lishidan soliq tushumlari davlat budjetining soliqli daromadlariga aylangunga qadar jarayon mantiqiy ketma-ketlikda aks etgan. Unda soliq majburiyati miqdori soliq tushumiga, soliq tushumi esa davlat budjetining soliqli daromadlariga aylanganligini kuzatamiz.

Davlat budjetining soliqli daromadlarining miqdoriga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Xususan, soliqli daromadlar miqdoriga soliq predmetlarining soliq ob'ekti sifatida tan olinishi, soliq imtiyozlarining hajmi, soliq stavkalarining miqdori, turi, soliq qarzdorligini o'z vaqtida undirishi kabi omillar ta'sir qiladi. Qo'shimcha soliq ob'ektlarini qidirib topish, soliq bazasini kengaytirish orqali mamlakat soliq salohiyatini oshirishga erishishimiz mumkin. Soliq qarzdorligini qisqartirish yo'li bilan soliqlarni yig'iluvchanlik darajasini o'sishini

ta'minlashimiz mumkin. Soliq qarzdorligini qisqartirish qisqartirish uchun, uni chuqur tahlil qilishimiz zarur. Soliq qarzdorligini tahlilini nazarimizda quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq: soliq qarzdorligining dinamik o'zgarishi tahlili; soliq qarzdorligining tarkibi tahlili; soliq qarzdorligi hamda to'langan soliq summalari o'rtasidagi nisbat tahlili; omilli tahlil.




1-rasm. Davlat byudjetining soliqli daromadlarini shakllanish jarayonining chizma ko'rinishidagi modeli¹

Davlat budjetining soliqli daromadlarini shakllanish jarayonining chizma ko'rinishidagi modeli(1-rasm)da soliq majburiyati ham tasvirlangan. Unda aynan soliq majburiyati soliq tushumiga, soliq tushumi esa davlat budjetining soliqli daromadlariga aylanganligini kuzatamiz. Soliq tushumi haqida so'z yuritar ekanmiz, soliq majburiyati va uni bajarilishini ta'minlash mexanizmini bilmasdan, davlat budjetining soliqli daromadlarining mohiyati to'liq anglay olmaymiz. Chunki, soliq majburiyatlari soliq tushumlarining eng asosiy manbasi hisoblanadi.

2-rasmda soliq majburiyatini bajarilishini ta'minlash jarayonining chizma modeli aks etgan. U, davlat budjetining soliqli daromadlarini shakllanish jarayonining

¹ Muallif ishlanmasi.

chizma ko‘rinishidagi modelining mantiqiy davomi hisoblanadi. Soliq majburiyati soliq hisoboti, aniqlashtirilgan hisobotlar, tekshiruv dalolatnomalari, soliq idorasi xodimlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun hisoblangan soliq summalar asosida yuzaga keladi. Hisoblangan soliq majburiyatlari bajarilmasa yoki to‘liq bajarilmasa, soliq qarzdorligi yuzaga keladi. Soliq to‘lovchining moliyaviy holatining yomonlashuvi, soliq yukining me‘yorida oshib ketishi, to‘lov intizomining buzilishi kabi omillar soliq qarzdorligini yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, ayrim noinsof soliq to‘lovchilar, ataylab soliqlarni to‘lamaslik yoki to‘liq to‘lamaslik natijasida ham soliq qarzdorligi yuzaga keladi.



2-rasm. Soliq majburiyatini bajarilishini ta‘minlash jarayonining chizma modeli²

Soliq majburiyati belgilangan muddatlarda soliq to‘lovchi tomonidan bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan hollarda, soliq to‘lovchiga nisbatan uning bajarilishini ta‘minlash choralari qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 106- moddasida soliq majburiyatining bajarilishi mol-mulk garovi, kafillik, bank

kafolati, penyalar, bankdagi hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarning to‘xtatilishi va soliq to‘lovchining mol-mulkini xatlash vositalarida ta‘minlanishi mumkin, deb belgilangan.

Soliq tushumlarini yig‘iluvchanlik darajisini oshirishga soliq majburiyatini to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash orqali erishishimiz mumkin. Bugungi kunda soliq majburiyatini to‘liq bajarilishini ta‘minlash borasida muammolar ko‘p. Shunday muammolardan biri – bu, soliq to‘lovchining bankdagi hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turish to‘g‘risida soliq organining qarori chiqqandan keyin, ayrim qarzdor soliq to‘lovchilar, zimmasidagi soliq majburiyatini bajarmasdan turib, boshqa banklarda yangi hisobvaraqlar, omonatlar va depozitlar ochib, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishidir. Bu esa, soliq qarzdorligi miqdorini oshishiga, natijada soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasini pasayishiga sabab bo‘lmoqda. O‘z navbatida ushbu holat davlat budjetining solikli daromadlarini prognozlash natijasining ob‘ektivlik darajasiga salbiy ta‘sir qilmoqda.

Hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish ob‘ektlarini to‘liq qamrab olishni ta‘minlash, hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari va soliq to‘lash salohiyatini hisobga olgan holda davlat budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlarining holis va asosli baholash, soliq qarzdorligini qisqartirish, soliq risklarini kamaytirish va soliq salohiyatini oshirish orqali budjeti solikli daromadlarini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

XULOSA

Soliq elementlaridagi o‘zgarishlar soliq tushumlarini ko‘payishi yoki kamayishiga olib kelishi mumkin. Soliq stavkalarini

² Muallif ishlanmasi.

oshirish qisqa muddatda davlat budjetini soliqli daromadi bilan ta'minlaydi, soliqlarni undirishda me'yoridan ortiq soliq stavkasini qo'llashi, soliq tushumlarini kamayishiga olib keladi. Soliq imtiyozlari qisqa muddatda soliq tushumlarini kamayishiga olib keladi. Uzoq muddatda soliq imtiyozlari(samarali foydalanganda) soliq tushumlarini ko'payishiga sabab bo'ladi.

Soliq to'lovchilar sonini, soliq ob'ektlari miqdorini ko'paytirish, soliq bazasini kengaytirishi hisobidan, soliq tushumlarini va soliq salohiyatini oshirish mumkin.

Soliq to'lovchilarning soni, soliq ob'ektlari doirasi, soliq stavkalari darajasi, soliq imtiyozlari ko'lamini, soliq bazasining chegarasi davlat budjetining soliqli daromadlarini prognoz natijasiga ta'sir qiladi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, soliq to'lovchilar zimmasiga yuklatilgan soliqlarni va yig'imlarni to'g'ri hisoblab chiqarish hamda o'z vaqtida to'lash majburiyati, ularning soliq majburiyatidir. Soliq majburiyati yuzaga kelishi, o'zgartirilishi va tugatilishi mumkin. Soliqni to'lashni nazarda tutuvchi holatlar yuzaga kelgan paytdan e'tiboran soliq to'lovchiga soliq majburiyati yuklatiladi.

Soliq salohiyati hamda soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish yuzasidan ko'riladigan chora-tadbirlar davlat budjetining soliqli daromadlarini ko'payishiga, prognoz natijasining ob'ektivligini ta'minlashga olib keladi.

Soliq qarzdorligi darajasini oshishi soliq to'lovchilarning soliq majburiyati miqdorini oshishiga, soliq tushumlari summasini kamayishiga olib keladi. Soliq qarzdorligini qisqartirish chora tabirlarini uslubiy jihatdan uch yo'nalishda tashkil qilish, nazarimizda ko'proq samara beradi: nanoiqtisodiyot yo'nalishida; makro yo'nalishda; mezo yo'nalishda; mikro yo'nalishda.

1. Nanoiqtisodiyot yo'nalishidagi chora-tadbirlar individual iqtisodiy agentlarning

ongida soliqlarga bo'lgan munosabatni o'zgartirishga qaratiladi. Fuqarolarni bog'cha yoshidan boshlab soliq saboqlariga o'rgatish, maktablarda soliq saboqlariga alohida e'tibor qaratish, soliq to'lovchilarga qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil qilish, ommaviy axborot vositalarida soliqlarni to'lash sharaflil burch ekanligi, to'langan soliqlar Vatan ravnaqi yo'lida sarflanishini, soliqlar hisobidan mamlakatimizning ijtimoiy sohalarini saqlanishi, ichki tartib, xavfsizlik ta'minlanishini keng targ'ib qilish orqali fuqarolarda soliq majburiyatlarini burch sifatida qabul qilish ruhini singdirish va shu orqali soliqlarni fuqarolar tomonidan ixtiyoriy to'lashiga erishish;

2. Mezo yo'nalishidagi chora-tadbirlar iqtisodiyot tarmoqlarida yuzaga keluvchi soliq qarzdorliklarini qisqartirishga qaratiladi. Iqtisodiyot tarmoqlarga to'g'ri keluvchi soliq yukini optimallashtirish, inflyatsiya darajasini jilovlash, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash yo'li bilan tarmoqlar iqtisodiyotga jalb qilinayotgan tashqi va ichki investitsiyalar hajmini oshirish, tarmoq tarkibiga kiruvchi korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning malakasini oshirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda soliq qarzdorligini keskin qisqartirish;

3. Makro yo'nalishidagi chora-tadbirlar respublika va uning hududlari bo'yicha mavjud bo'lgan soliq qarzdorligini qisqartirishga qaratiladi. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, yuridik va jismoniy shaxslarga, faoliyat turlariga, hududlarga to'g'ri keluvchi soliq yukini optimallashtirish, to'lov intizomini mustahkamlash, vaqtincha moliyaviy qiyinchiliklarga uchragan soliq to'lovchilarga moliyaviy yordam ko'rsatish yo'li bilan ularning moliyaviy barqarorligini oshirish, bankrotlik holatidan chiqarish, respublikamizda moliyaviy maslahat berish, sug'urta, bank xizmatini yanada rivojlantirish

orqali makro darajada soliq qarzdorligini qisqartirish.

Nazarimizda, soliq qarzdorligini kamaytirishga qaratilgan qarorlar har bir soliq turi bo'yicha alohida qabul qilinishi zarur. Budjetning daromad qismi uchun mas'ul bo'lgan respublikamizning barcha darajadagi ijro qiluvchi idoralari soliq qarzdorligini qisqartirishga, soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirishga harakat qilishlari lozim.

Shu o'rinda aytish joizki, soliq idoralarining soliq qarzdorligini qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlari soliq nazoratini kuchaytirishga emas, balkim, yuzaga kelayotgan soliq qarzdorliklarini undirishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. Soliq ma'murchiligi doirasida soliq qarzdorligini undirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar yo'nalishlarini belgilashni talab qiladigan ayrim muammolar mavjud. Nazarimizda ularga quyidagilar kiradi: soliq qarzdorligining bank hisob raqamlari orqali amalga oshiriluvchi operatsiyalarini to'liq nazoratining mavjud emasligi, soliqlarni to'lash muddatini uzaytirish natijasida soliq qarzdorligi miqdorining oshishi, soliq qarzdorligini majburiy undirish mexanizmining samarasiz ishlashi.

Soliq qarzdorligini undirish muammolari, yechimiga qaratilgan quyidagi yo'nalishlarni belgiladik:

1. Soliqlarni to'lash muddatini uzaytirish, tizmini qayta ko'rib chiqish, yuqori soliq xavfiga ega bo'lgan soliq to'lovchilar faoliyatini davriy ravishda tahlil qilib borish,

soliq qarziga ega bo'lgan intizomsiz soliq to'lovchilarni aniqlash va tahlil natijalariga ko'ra bunday soliq to'lovchilarga soliqlarni to'lash muddatini uzaytish, taqdim etmaslik orqali soliq qarzdorligini qisqartirish.

2. Soliq idoralari bilan bank muassasalari o'rtasidagi hamkorlikdagi faoliyat samaradorligini oshirish, ma'lumot almashish tizimining tezkorligini ta'minlash, soliq qarzdorligiga ega bo'lgan soliq to'lovchilarning bankdagi hisob raqamlari bo'yicha operatsiyalar to'xtatilgandan keyin, ularga boshqa hisobraqamlar ochishga ruhsat bermaslik orqali soliq qarzdorligi qisqartirish;

3. Banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha, operatsiyalar to'xtatish, soliq idorasining soliq qarzdorligini undirish haqidagi inkasso topshiriqnomasi bajarilishini ta'minlashda bank muassalarini javobgarligini oshirish orqali soliq qarzdorligini qisqartirish;

4. Soliq to'lovchi soliq to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan soliqlarni to'lash, muddatini buzganligi uchun penyalarni qo'llash tizimi hamda javobgarlik choralari ta'sirchanligini oshirish, javobgarlik choralari qo'llash bo'yicha soliq idoralarining vakolatlarini kengaytirish;

5. Soliq majburiyatlarini kamaytirib ko'rsatish natijasida, yuzaga keluvchi soliq qarzdorliklarini qisqartirishda "Soliq kelishuvi" mexanizmidan samarali foydalanish orqali, qarzdor soliq to'lovchilarni soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarilishini rag'batlantirish.

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Пинская М.Р. Основы теории налогов и налогообложения / Под научн. ред. д.э.н., проф. В.С. Барда: Монография. – М.: Издательство «Палеотип», 2004. – 216 с. [73-77с.]. ISBN 5-94727-086-2
2. Налоги и налогообложение : учебное пособие / Н.И. Куликов, М.А. Куликова, Н.П. Назарчук. – Тамбов : Изд-во ФГБОУ ВПО «ТГТУ», 2013. – 388 с. [10-с.]. ISBN 978-5-8265-1190-9

3. Майбуrow И.А. Соколовская А.М. Теория налогообложения. Продвинутий курс: учебник для магистрантов, обучающихся по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит»/ -М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2011,-591 с.(127с) ISBN 978-5-238-02084-6
4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 70-modda. <https://lex.uz/docs/4674902-O‘zbekiston-Respublikasi-qonunlari-bazasi-sayti>
5. Налоги и налогообложение: Учебное пособие / Под общей редакцией к.э.н., доцента Лазуриной О. М. – Ярославль: МФЮА, 2014. – 220 с. (27 с.)
6. Майбуrow И.А. Соколовская А.М. Теория налогообложения. Продвинутий курс: учебник для магистрантов, обучающихся по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит»/ -М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2011,-591 с. [127-с.]. ISBN 978-5-238-02084-6
7. Майбуrow И.А. Соколовская А.М. Теория налогообложения. Продвинутий курс: учебник для магистрантов, обучающихся по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит»/ -М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2011,-591 с.(123с) ISBN 978-5-238-02084-6
8. Налоги и налогообложение : учебное пособие / Н.И. Куликов, М.А. Куликова, Н.П. Назарчук. – Тамбов : Изд-во ФГБОУ ВПО «ТГТУ», 2013. – 388 с. (27 с). ISBN 978-5-8265-1190-9

УДК: 330.34

Хамдамова Гавхар Абсаматовна,
д.э.н., профессор,
Ташкентский государственный
экономический университет
g.khamdamova@tsue.uz

**СОВРЕМЕННЫЕ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК
ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ
КОМПАНИИ**

Xamdamova Gavhar Absamatovna,
i.f.d., professor,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
g.khamdamova@tsue.uz

**ZAMONAVIY ENERGIYA TEJAYDIGAN TEXNOLOGIYALAR
KOMPANIYANING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VOSITASI
SIFATIDA**

Khamdamova Gavhar Absamatovna,
Doctor of Economics, professor
Tashkent State University of Economics
g.khamdamova@tsue.uz

**MODERN ENERGY-EFFICIENT TECHNOLOGIES AS A TOOL TO
INCREASE THE COMPETITIVENESS OF THE COMPANY**

Аннотация. В статье анализируется использование современных инновационных подходов для сокращения энергопотребления как способа укрепления конкурентных преимуществ предприятий. В условиях растущего спроса на энергоресурсы особое значение приобретает баланс между рациональным использованием топливных запасов и повышением производственной эффективности. Также рассматриваются вопросы экологической и энергетической безопасности, подчеркивающие важность энергоэффективности для достижения значительных результатов в снижении потребления энергии на национальном уровне. В связи с этим подчеркивается необходимость изучения передового зарубежного опыта, разработки и внедрения современных технологий.

Ключевые слова: энергоресурсы, инновации, энергосбережение, энергоэффективность, предприятие, конкурентоспособность, энергетическая безопасность.

Annotatsiya. Maqolada korxonalarning raqobatdosh ustunliklarini mustahkamlash usuli sifatida energiya sarfini kamaytirish uchun zamonaviy innovatsion yondashuvlardan foydalanish

tahlil qilinadi. Energiya manbalariga talab ortib borayotgan sharoitda yoqilg'i zaxiralaridan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish o'rtasidagi muvozanat alohida ahamiyatga ega. Ekologik va energiya xavfsizligi masalalari ham ko'tarilib, milliy darajada energiya sarfini kamaytirishda sezilarli natijalarga erishishda energiya samaradorligining ahamiyati ta'kidlangan. Shu munosabat bilan ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish zarurligi ta'kidlanadi.

Tayanch so'zlar: energiya resurslari, innovatsiyalar, energiya tejash, energiya samaradorligi, korxona, raqobatbardoshlik, energiya xavfsizligi.

Abstract. The article analyzes the use of modern innovative approaches to reduce energy consumption as a way to strengthen the competitive advantages of enterprises. In the context of growing demand for energy resources, the balance between the rational use of fuel reserves and increased production efficiency is of particular importance. Environmental and energy security issues are also raised, highlighting the importance of energy efficiency in achieving significant results in reducing energy consumption at the national level. In this regard, the need to study advanced foreign experience, development and implementation of modern technologies is emphasized.

Keywords: energy resources, innovations, energy conservation, energy efficiency, enterprise, competitiveness, energy security.

ВВЕДЕНИЕ

Сохранение энергоресурсов и повышение их эффективного использования являются важнейшими приоритетами для экономики Узбекистана. От успешного решения этих задач зависят устойчивость экономики, благополучие населения и стабильность государства. Эффективное управление энергоресурсами создает условия для долгосрочного развития и экономического роста республики. В условиях увеличения потребления энергии важно обеспечить баланс между расходом топливных запасов и ростом энергоемкости производства. Кроме того, энергоэффективность играет ключевую роль в обеспечении экологической и энергетической безопасности, что подчеркивает её значимость как стратегической цели. Для снижения энергоемкости производства в Узбекистане необходимо изучать передовой международный опыт, внедрять современные технологии и

реализовывать проекты, поддерживаемые на государственном уровне, направленные на повышение энергоэффективности.

АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Большой вклад в разработку общетеоретических вопросов развития предприятий электроэнергетики внесли такие ученые, как А.Г. Аганбегян, А.Л. Вершинин, М.Г. Делягин, В.В. Ивантер, Н.П. Лаверов, Д.С. Львов, А.А. Макаров, В.Е. Фортов и др. Модернизационные аспекты энергосбережения и повышения энергоэффективности в экономике рассмотрены в трудах Л.Ю. Богачковой, А.И. Громова, И.С. Кожуховского, Т.А. Митровой, Д.Б. Понаровкина, В.В. Труфанова. Комплексные проблемы формирования и реализации государственной энергетической политики рассмотрены в работах таких узбекских ученых, как Н.М. Махмудов, М.А. Икрамов, А.М. Кадыров, Г.А. Саматов, Г.Ж. Аллаева, М. Саиткомолов.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Основу методологии исследования составили работы отечественных и зарубежных ученых, посвященные вопросам применения инновационных подходов к энергосбережению и повышению конкурентоспособности предприятий. Кроме того, в анализе использовались законодательные акты, нормативно-правовые документы, а также материалы научно-практических конференций, рассматривающих данные проблемы. Исследование опиралось на принципы системного подхода, а для решения поставленных задач применялись методы логического, сравнительного и статистического анализа.

РЕЗУЛЬТАТ И ОБСУЖДЕНИЕ

Экономика Узбекистана отличается многоукладностью, что связано с историческим развитием и переходом к рыночным условиям. Быстрое реформирование экономики усугубило технологическое отставание от развитых стран Запада, а влияние директивного подхода в управлении продолжает тормозить развитие современных технологических укладов. В результате Узбекистан использует в производстве разнообразные технологические системы — от примитивных до современных наукоемких, что создает разнородность в организации производства, формах мышления и общественных нормах.

Практика экономических реформ показывает, что многоукладность сохраняется до тех пор, пока существуют производственно-технические и социально-экономические основы, поддерживающие уклады. Товарное производство и рыночные отношения невозможно искоренить насильственным путем. Следование зарубежным технологиям помогает сократить разрыв

в развитии, но этого недостаточно, поскольку такая стратегия оставляет страну в роли догоняющей. Задача состоит в том, чтобы создавать инновации и опережать конкурентов. Однако, успехи на сырьевых рынках отвлекли внимание от развития науки, инновационного предпринимательства, изобретательства и других сфер, направленных на раскрытие творческого потенциала нации. Это привело к снижению конкурентоспособности экономики страны.

В Законе Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в закон Республики Узбекистан «О рациональном использовании энергии» от 14 июля 2020 года № ЗРУ-628 дано определение понятию «энергосбережение». Оно охватывает правовые, организационные, экономические, технологические и технические меры, направленные на снижение потребления энергоресурсов при сохранении их полезного эффекта, включая объем выполненных работ, произведенной продукции или оказанных услуг. [1]

Стратегия перехода Узбекистана к «зеленой» экономике на 2019–2030 годы и Концепция обеспечения электрической энергией на 2020–2030 годы стали важными шагами в государственной политике. Основная цель Стратегии заключается в обеспечении долгосрочного устойчивого экономического роста и выполнении обязательств, взятых Узбекистаном в рамках Парижского соглашения, ратифицированного в 2018 году. Концепция направлена на удовлетворение растущих потребностей в электроэнергии, дефицит которой составлял 9,4 % в период 2012–2019 годов, а прогнозируемый ежегодный рост потребления до 2030 года оценивается в 6–7 %. [2]

Концепция также предполагает сбалансированное развитие

энергетической отрасли. В области энергоэффективности разработаны четыре ключевые национальные программы и дорожные карты, направленные на повышение эффективности промышленного сектора. Государство уделяет приоритетное внимание развитию этого направления, стремясь диверсифицировать экономику за счет увеличения производства продукции с высокой добавленной стоимостью.



Изменение установленной мощности 2019-2030 гг., МВт.¹

К 2030 году планируется достичь следующих показателей:

1. После вывода из эксплуатации устаревшего оборудования общей мощностью 5,9 тыс. МВт, установленная и доступная мощность вырастет до 29,3 тыс. МВт.

В структуре генерации ожидается следующее распределение: теплоэлектростанции на природном газе обеспечат 13,4 тыс. МВт (около 45%), угольные ТЭС — 1,7 тыс. МВт (5,9%), гидроэлектростанции — 3,8 тыс. МВт (13,1%), ветровые электростанции — 3 тыс. МВт (10,4%), солнечные электростанции — 5 тыс. МВт (17,3%). Последние включают 1 тыс. МВт с системами хранения энергии для использования в периоды пиковых нагрузок и отсутствия солнечной энергии.

¹ Составлено автором на основе показателей Концепции обеспечения Республики Узбекистан электрической энергией на 2020-2030 годы

На атомные электростанции будет приходиться 2,4 тыс. МВт (8,3%).

Общий прирост мощностей составит 16,4 тыс. МВт, из которых 4,4 тыс. МВт будет представлять регулируемая мощность для стабилизации нагрузки в пиковые периоды.[2]

2. К установленному сроку прогнозируется, что объем генерации электроэнергии составит 120,8 миллиарда киловатт-часов. Вклад различных источников распределится следующим образом: тепловые электростанции обеспечат 70,7 миллиарда киловатт-часов (58,5%), гидроэлектростанции — 13,1 миллиарда киловатт-часов (10,8%), солнечные станции — 9,9 миллиарда киловатт-часов (8,2%), ветровые станции — 8,6 миллиарда киловатт-часов (7,1%), атомные станции — 18 миллиардов киловатт-часов (14,9%), а блочные электростанции — 0,6 миллиарда киловатт-часов (0,5%).

3. Планируется снизить объем потребления природного газа с 16,5 до 12,1 миллиарда кубометров, при этом использование угля увеличится с 4,1 до 8,5 миллиона тонн.

4. Ключевые энергетические объекты, такие как гидроэлектростанции, атомные электростанции и отдельные тепловые станции, останутся в государственной собственности. Однако значительная доля производства электроэнергии будет передана частным компаниям.

5. К 2025 году потери электроэнергии при ее транспортировке должны снизиться до 2,4%, что в 1,03 раза меньше уровня 2019 года, а потери на этапе распределения сократятся до 7,9%, что представляет собой снижение в 1,51 раза по сравнению с 2019 годом. [2]

Расход топлива при выработке электрической энергии.²

№	Наименование топлива	2019 год	2025 год	2030 год
1	Природный газ (млн. м³)	15,8	12,7	12,1
2	Уголь (млн. тонн.)	3,6	8,5	8,5
3	Мазут (тыс. тонн)	204	50	50

² Составлено автором на основе показателей Концепции обеспечения Республики Узбекистан электрической энергией на 2020-2030 годы

К 2030 году планируется снизить потери при передаче электроэнергии до 2,35%, что на 1,05 раза меньше по сравнению с показателями 2019 года. Потери на этапе распределения должны сократиться до 6,5%, что в 1,85 раза ниже уровня 2019 года.

6. Для развития возобновляемых источников энергии (ВИЭ) будут предприниматься меры, направленные на обеспечение доступа к электроэнергии в энергодефицитных регионах, достижение экологических стандартов, повышение энергоэффективности, развитие местной промышленности и инфраструктуры, а также создание новых рабочих мест. [2]

Таким образом, страна сосредоточена на решении стратегических задач в энергетической сфере, внедрении инновационных технологий, увеличении роли частного сектора и продвижении «зеленой экономики». Обеспечение устойчивого и надежного энергоснабжения является ключевым условием для повышения качества жизни населения и ускорения социально-экономического развития страны.

Когенерационные установки комбинированного цикла способны достигать энергоэффективности до 90 %, что делает их одним из наиболее продуктивных и экологически безопасных способов одновременного производства электроэнергии и тепла. В соответствии с директивой ЕС по энергоэффективности, при планировании строительства или капитальной модернизации объектов необходимо проводить анализ затрат и выгод от внедрения когенерации для следующих случаев:

- тепловые или электрические установки с общей тепловой мощностью свыше 20 МВт;

- промышленные предприятия, генерирующие отходящее тепло общей мощностью более 20 МВт;

- сети централизованного теплоснабжения и охлаждения с тепловой мощностью свыше 20 МВт.

Энергосбережение является ключевым инструментом рационального использования ресурсов, что создает важный резерв для повышения конкурентоспособности отечественной промышленности на международном уровне. Оно представляет собой систему экономических взаимодействий, направленных на оптимизацию использования топливно-энергетических ресурсов (ТЭР).

отечественной экономике потенциал энергосбережения в значительной степени остается не реализованным. Основные экономические барьеры его активного использования связаны как с проблемами энергетической отрасли, так и с недостаточным развитием инновационного сектора национальной экономики.

Энергетика страны развивается в условиях изменений на мировых энергетических рынках, нестабильности цен на нефть, газ и продукты их переработки. Это снижает конкурентоспособность отечественных производителей энергоносителей, усугубляемую высоким уровнем себестоимости и налоговой нагрузки. Кроме того, высокая себестоимость производства энергии передается по всей производственной цепочке, влияя на стоимость сырья и конечных продуктов для потребителей.

Сильно монополизированная отрасль, сталкиваясь с ростом затрат на добычу и производство топливно-энергетических ресурсов (ТЭР), а также с ужесточением экологических требований, сосредотачивается на максимизации прибыли и инвестирует в увеличение объемов производства. При этом финансирование инновационных

разработок в области энергосбережения оказывается недостаточным как со стороны производителей, так и со стороны потребителей.

Таким образом, значительные проблемы в развитии инновационного энергосбережения и его потенциала в повышении конкурентоспособности экономики подчеркивают ключевую роль инноваций в этом процессе. Особое внимание следует уделять региональным аспектам и возможностям для усиления инновационно-энергосберегающего влияния на конкурентные преимущества предприятий.

Проблемы, тормозящие развитие инноваций в сфере энергосбережения в стране:

Отсутствие развитой научно-технической, информационной и финансовой инфраструктуры для реализации энергосберегающих проектов в бизнесе.

Недостаточные объемы инвестиций в современные энергосберегающие технологии, при этом финансирование отраслевых исследований и разработок (НИОКР) преимущественно осуществляется за счет бюджетных средств министерств и оборотного капитала производителей и потребителей энергии.

Ликвидность стимулов к сокращению энергозатрат из-за отсутствия единой системы учета потребления энергоносителей и мониторинга экономии энергоресурсов, что снижает спрос на инновационные технологии и оборудование в данной сфере.

В то же время в мировой энергетической системе происходят масштабные изменения в производственных технологиях и экономике, которые подчеркивают растущую важность энергосбережения в процессах производства и потребления энергии.

Истощение запасов ископаемого топлива. Глобальная экономика вступает в длительный период сокращения доступных ресурсов, что делает энергосбережение ключевым элементом национальной конкурентоспособности. Колебания цен на энергоносители могут достигать кризисных уровней, усиливая значимость эффективного потребления энергии.

Рост промышленных рисков. Волатильность цен на энергоносители становится основным источником нестабильности для крупных предприятий, особенно в странах с доминирующим сырьевым сектором.

Необходимость модернизации промышленности. Для повышения конкурентоспособности отечественных товаров требуется почти полная замена устаревших производственных мощностей, что предполагает снижение энергозатрат и внедрение современных технологий.

Энергосбережение становится важнейшим инструментом для адаптации к новым реалиям мировой экономики и повышения эффективности национальной промышленности.

ВЫВОДЫ

Для устранения препятствий на пути развития энергосбережения в отечественной экономике целесообразно реализовать следующие направления инновационной деятельности:

1. Усовершенствование нормативно-правовой базы. Необходимо обновить правовые основы в области энергосбережения, особенно в части, касающейся НИОКР и инноваций. Это включает разработку стратегических документов, направленных на технологическое обновление процессов производства и потребления энергии.

2. Модернизация технологических процессов. Важно развивать научные исследования, направленные на замену устаревшего оборудования и внедрение энергоэффективных технологий. Это предполагает сокращение потребления топлива и энергии за счет диверсификации источников, использования местных видов топлива и утилизации вторичных энергетических ресурсов (ВЭР). Инновационная деятельность в базовых отраслях экономики станет ключевым инструментом для решения этой задачи.

3. Создание технопарков. Формирование технопарков, специализирующихся на инновациях в энергосбережении, позволит раскрыть потенциал энергосберегающих технологий и повысить конкурентоспособность

отечественных промышленных предприятий.

Энергосбережение и повышение энергоэффективности требуют комплексного подхода, поскольку энергопотребление охватывает все сферы экономики и общества. Европейский опыт демонстрирует, что успех в этой области возможен только при активном участии всех экономических субъектов и широкой вовлеченности населения.

Для решения проблемы необходима реализация эффективной государственной энергетической политики, основанной на сотрудничестве государства, бизнеса и граждан. Такой подход должен включать системные меры экономического, научно-технического и организационного характера.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.

1. Законе Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в закон Республики Узбекистан «о рациональном использовании энергии» от 14.07.2020 г. № ЗРУ-628.
2. Концепция обеспечения Республики Узбекистан электрической энергией на 2020–2030 годы.
3. Секретариат Энергетической хартии (2021 г.) на основе «Дорожной карты» перехода к низко углеродной энергетике для сектора электроэнергетики Узбекистана.
4. Гущина, Е.Г. Мотивация энергосбережения: проблемы формирования и опыт внедрения через образование / Е.Г. Гущина, Н.Ю. Бадрак // Современные проблемы науки и образования. 2012. № 5. С. 233-239.
5. Технологические уклады в инновационной экономике / Воронцова О.В., Седых Ю.А. // Экономика и предпринимательство. 2016. № 11-3 (76-3). С. 309- 311.
6. Khamdamova G.A. Optimization of approaches to improving the energy efficiency in industrial enterprises of the Republic of Uzbekistan. //Monograph. LAP LAMBERT Academic Publishing. Latvia. 2024. -148 p.
7. Gavkhar Khamdamova. Strategies in the field of energy consumption and energy efficiency improvement of the Republic of Uzbekistan. American Journal of Business Management, Economics and Banking. Volume 25, | June – 2024. ISSN (E): 2832-8078.
8. Khamdamova Gavhar Absamatovna. Principles and methods of implementing energy efficiency of industrial enterprises. International Journal of Economy and Innovation Gospodarka i Innowacje. Vol. 46. Apr 23, 2024. ISSN: 2545-0573. Poland.

УДК: 31:338 (575.1)

Xujakulov Xaitmurat Djavlijevich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiy statistika"
kafedrasi faxriy professori. khaitmurat_kh@mail.ru

Jamaldinova Asalxon Saliyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiy statistika"
kafedrasi katta o'qituvchisi. asalzamaldinova@gmail.com

Ro'ziev Alisher Ibroimovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiy statistika"
kafedrasi dotsenti. alisherruziev1986@mail.ru

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DEMOGRAFIK VAZIYATNING HOLATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Хужакулов Хаитмурат Джавлиевич,
Почетный профессор кафедры "Экономическая статистика"
Ташкентский государственный экономический университет
khaitmurat_kh@mail.ru

Джамалдинова Асалхан Салиевна
Старший преподаватель кафедры "Экономическая статистика"
Ташкентского государственного экономического университета
asalzamaldinova@gmail.com

Рузиев Алишер Иброимович,
Доцент кафедры "Экономическая статистика"
Ташкентского государственного экономического университета
alisherruziev1986@mail.ru

СИТУАЦИЯ И ОСОБЕННОСТИ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Xujakulov Xaitmurat Djavlijevich,
Tashkent state university of economics, nonorary professor
of the «Economic Statistics» department. khaitmurat_kh@mail.ru

Jamaldinova Asalkhon Saliyevna
Tashkent state university of economics, senior lecturer
department of «Economic statistics» asalzamaldinova@gmail.com

Ruziyev Alisher Ibroimovich,
Tashkent state university of economics, associate professor,
department of «Economic statistics» alisherruziev1986@mail.ru

STATISTICAL ASSESSMENT OF THE CONDITION AND DEVELOPMENT OF THE SERVICES FIELD IN THE UZBEKISTAN ECONOMY

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda demografik jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, ushbu jarayonlardagi muammolarni hal etish tadbirlarni ishlab chiqish, jamiyatdagi demografik holatiga baho berish va ijtimoiy-iqtisodiy istiqbolni belgilashning asosi ekonometrik modellarini tuzish hamda istiqbollarni prognozlash bo'yicha ilmiy amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tayanch so'zlar: Demografiya, tabiiy harakat, migrasion harakat, indikativ, integral, intensivlik, demografik siyosat, tug'ilish siyosati, migratsiya siyosati, YaIM, YaHM, ekonometrik model, prognoz.

Аннотация: В статье проведен анализ данных о демографических процессах в Узбекистане, разработка мер по решению проблем в этих процессах, разработка научно-практических предложений и рекомендаций по оценке демографической ситуации в обществе и созданию эконометрических моделей как основу для определения социально-экономической перспективы и прогнозирования ее перспектив составляют.

Ключевые слова: Демография, естественное движение, миграционное движение, индикативное, интегральное, интенсивность, демографическая политика, политика рождаемости, миграционная политика, ВВП, ВРП, эконометрическая модель, прогноз.

Annotatsion: The article analyzes data on demographic processes in Uzbekistan, develops measures to solve problems in these processes, develops scientific and practical proposals and recommendations for assessing the demographic situation in society and creating econometric models as a basis for determining the socio-economic prospects and forecasting its prospects.

Keywords: Demography, natural movement, migratory movement, indicative, integral, intensity, demographic policy, fertility policy, migration policy, GDP, GRP, econometric model, forecast.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy barqarorlikning o'sish sur'atlarini ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Albatta, bunda mamlakat demografik rivojlanishining o'rni katta bo'lib, ijtimoiy manfaatlarga yo'naltirilgan iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda aholi, uning o'sishi, joylashishi, demografik tarkibi kabi jihatlarini iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish davri nuqtai nazaridan o'rganish katta ahamiyatga ega. Chunki, aholi ham asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, ham iste'molchi sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Bu borada «O'zbekiston — 2030» Strategiyasida quyidagi asosiy

vazifalarni amalga oshirishni ta'minlash nazarda tutiladi: barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash[1].

Qayd qilingan dalillar aholining muhim sotsial-demografik ko'rsatkichlarining holatini va rivojlanishini statistik tahlil qilish masalalarini o'rganishni taqazo etganligi mavzuning dolzarbligini bildiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunga qadar demograf va iqtisodchi olimlar tomonidan turli davrlarda

olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarning natijalarida “demografiya” tushunchasining iqtisodiy kategoriya sifatida turlicha nazariy qarashlari shakllangan.

Aholi haqidagi ma'lumotlarning to'planishi va tahlili siyosiy arifmetika va davlatshunoslik kabi ikkita fan tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Birinchisi, yangi davr hosilasiga, ikkinchisiga boy tarixiy an'analarga ega bo'lgan. Aholi dinamikasining ijtimoiy-iqtisodiy omillarini o'rganish bo'yicha yondashuvlar siyosiy arifmetika namoyandalari bo'lgan U.Petti, J.Graunt va E.Galley kabi olimlarning asarlarida kuzatiladi[2]. Ular “aholining tabiiy harakati” deb nom olgan yangi bilimlar sohasi chegaralarini aniqlab miqdoriy o'rganish asoslarini yaratganlar, hamda birinchilardan bo'lib “ijtimoiy dalillarni hisoblab chiqish” bo'yicha harakatlarni amalga oshirganlar.

Shuningdek, ilmiy adabiyotda ushbu masaladagi munozaralarga aniq nuqta quyilganicha yuq. Masalan, demografiya fani buyicha umume'tirof etilgan nufuzli darslik mualliflari G.S.Shroyk va J.S.Zigel[3] tor va keng ma'nodagi demografiya o'rtasidagi farqqa urg'u beradi. Ular tor ma'nodagi demografiyani aholi soni, joylashishi, tarkibi va ularning o'zgarishini o'rganadigan fan sifatida talqin qiladilar. Keng ma'nodagi demografiya deganda esa mualliflar, shuningdek, ushbu fanning etnik, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlari tadqiq etilishini tushunadilar.

Jorj Barkley - demografik jarayonlar natijasida aholi sonining o'zgarishi, ya'ni uning ko'payishi ham, kamayishi ham “aholining o'sishi” deb ataydi. U aholi sonining ijobiy yoki salbiy o'sishi faqat uchta manbaga bog'liqligini, ya'ni tug'ilish, o'lim va migratsiya jarayonlariga bog'liq, deb ta'kidlaydi[4].

Demografik jarayonlarni tadqiq qilish albatta, demografik jarayonlar nazariyasiga

bog'liq holda sodir bo'ladi. Rossiyalik olimlar, jumladan Antonov A., Bedniy M., Boyarskiy A., Urlanis B, A.Kvasha fikricha[5]“... demografik jarayonlarning mohiyati - aholining takror barpo qilinishining optimal turini shakllantirish va barqarorlashtirishdan (keng ma'noda aholini rivojlantirishdan) iboratdir”

O'zbekistonda demografik jarayonlar I.Mullajonov, M.Qoraxonov, R.Ubaydullaeva, O.B.Ata-Mirzaev, A.A.Qayumov, A.S.Soliev, H.Salimov, M.Bo'rieva, Z.N.Tojjeva, R.B.Qodirov, V. Karimova, G. Shodieva, F. Komolova, B. Usmonov, X. Xujaqulov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Mazkur tadqiqot ishlaridagi ilmiy g'oyalar e'tiborga olingan[6].

Yuqorda nomlari zikr qilingan olimlarning ilmiy tadqiqotlarida demografik jarayonlar nazariy-uslubiy jihatdan o'rganilgan, ammo O'zbekistonda demografik jarayonlar o'zgarishini statistik tadqiq qilish, ekonometrik modellarini tuzish hamda istiqbollarini prognozlashga doir ilmiy izlanishlarning etarlicha amalga oshirilmaganligi tadqiqot mavzusining tanlanishiga asos bo'ldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez hamda mutlaq, nisbiy va o'rtacha miqdorlardan foydalanilib, statistik ko'rsatkichlar aniqlangan. Maqolada O'zbekistonda demografik jarayonlarni statistik baholashda dinamika qatorlarining statistik tahlili amalga oshirilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekistonning demografik holati nafaqat murakkab ijtimoiy muammolardan biri sifatida qayd etiladi, balki mamlakatning kelgusi rivojlanishidagi asosiy strategik maqsadlari orasida etakchi o'rinlardan

birini egallab turibdi. Mamlakatda sodir bo'layotgan jadal aholi o'sishi (yuqori tug'ilish va o'limning past sur'atlari) sharoitida jamiyat hayoti uchun muhim bo'lgan inson salohiyatini qayta tiklashni ta'minlaydigan barcha demografik tuzilmalar va institutlarning o'zgarishi ro'y bermoqda.

Aholining muhim tavsifnomasi bo'lib, uning jinsiy tarkibi, ya'ni erkak va ayollarga hisoblanadi. Ikkalasi o'rtasidagi solishtirish ma'lumotlari jinslar bo'yicha tarkibi deb ataladi va u 2 xil usul bilan aniqlanadi:

1. Jami aholiga nisbatan ayol va erkaklar miqdorining salmog'i, foizda.

2. Har 1000 nafar ayollarga to'g'ri keldigan erkaklar soni va aksincha (1-jadval).

2024-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni 36 799,8 ming kishini tashkil etib, shundan erkaklar salmog'i 50,3 foizni ayollar salmog'i esa 49,7 foizni, hamda shahar aholisi 51,0 foizni, qishloq aholisi 49,0 foizni tashkil qilgan.

2010-2024 yillar davomida respublika-mizda doimiy aholi soni 8798,4 ming kishiga yoki 31,4 foizga ko'paygan bo'lib, o'rtacha yillik o'sish sur'ati 102,0 foizga teng bo'lgan. Tahlillarni shahar va qishloq aholisi kesimida amalga oshirish uning bir me'yorda kechmaganligini ko'rsatadi. Jumladan, 2024 yilda shahar aholisi soni 2010 yilga nisbatan 38,3 foizga, qishloq aholisi soni 25,0 foizga oshganini kuzatishimiz mumkin.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida doimiy aholi soni dinamikasi tarkibi
(yil boshiga)¹

Yillar	Jami aholi soni, ming kishi	Shu jumladan					
		Ayollar		Erkaklar		Shahar aholisi, %	Qishloq aholisi %
		Ming kishi	%	Ming kishi	%		
A	1	2	3	6	7	10	11
2010	28001,4	13986,4	49,9	14015,0	50,1	51,5	48,5
2011	29123,4	14555,0	50,0	14568,4	50,0	53,4	46,6
2012	29555,4	14762,9	49,9	14792,5	50,1	51,2	48,8
2013	29993,5	14974,8	49,9	15018,7	50,1	51,2	48,8
2014	30492,8	15215,3	49,9	15277,5	50,1	51,0	49,0
2015	31022,5	15470,3	49,9	15552,2	50,1	50,8	49,2
2016	31575,3	15736,4	49,8	15838,9	50,2	50,6	49,4
2017	32120,5	15999,5	49,8	16121,0	50,2	50,6	49,4
2018	32656,7	16258,8	49,8	16397,9	50,2	50,6	49,4
2019	33255,5	16544,9	49,8	16710,6	50,2	50,5	49,5
2020	33905,2	16859,9	49,7	17045,3	50,3	50,6	49,4
2021	34558,9	17180,5	49,7	17378,4	50,3	50,7	49,3
2022	35271,3	17527,1	49,7	17744,2	50,3	50,9	49,1
2023	36024,9	17896,3	49,7	18128,6	50,3	51,0	49,0
2024	36799,8	18274,8	49,7	18525,0	50,3	51,0	49,0
2024 yil 2010 yilga nisbatan, %	131,4	130,7	x	132,2	x	130,1	132,8

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblangan.
www.stat.uz

O‘zbekiston Respublikasida doimiy aholi sonida erkaklar soni 0-2 dan 30-34 yoshgacha bo‘lgan oraliqda ko‘pchilikni tashkil etgan bo‘lsa, 60-64 yoshdan boshlab esa teskari nisbat o‘rinli bo‘lgan.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida aholining jinsi bo‘yicha yosh tarkibi va salmog‘i (yil boshiga)

Aholining yosh tarkibi, yoi	Yosh tarkibi va jinsi bo'yicha jami aholi								2023 yilda 2013 yilga nisbatan aholining yosh tarkibi va jinsi bo'yicha dinamikasi, %		
	Ayollar				Erkaklar				Jami aholi bo'yicha	Shundan	
	2013 y.		2023 y.		2013 y.		2023 y.			Ayol-lar	Er-kak-lar
	Ming kishi	%	Ming kishi	%	Ming kishi	%	Ming kishi	%			
A	1	2	3	4	5	6	7	8	11	12	13
0-2	898,8	48,2	1270,0	48,3	966,3	51,8	1361,6	51,7	141,1	141,3	140,9
3-5	914,0	48,5	1062,7	47,9	969,5	51,5	1157,0	52,1	117,9	116,3	119,3
6-7	520,2	48,6	687,5	48,0	550,7	51,4	744,5	52,0	133,7	132,2	135,2
8-15	2058,0	48,8	2491,4	48,3	2163,3	51,2	2662,8	51,7	122,1	121,1	123,1
16-17	617,0	48,8	519,9	48,6	646,1	51,2	549,7	51,4	84,7	84,3	85,1
18-19	623,2	49,0	499,1	48,7	648,9	51,0	526,8	51,3	80,7	80,1	81,2
20-24	1582,2	49,2	1259,5	48,8	1633,2	50,8	1321,2	51,2	80,3	79,6	80,9
25-29	1454,2	49,7	1506,6	48,9	1473,3	50,3	1574,5	51,1	105,2	103,6	106,9
30-34	1167,8	49,9	1558,4	49,3	1174,3	50,1	1604,8	50,7	135,1	133,4	136,7
35-39	1015,7	50,0	1429,8	49,8	1014,5	50,0	1440,9	50,2	141,4	140,8	142,0
40-49	1759,6	51,2	2135,0	50,2	1680,1	48,8	2118,0	49,8	123,6	121,3	126,1
50-59	1326,9	51,6	1687,2	51,8	1246,5	48,4	1572,4	48,2	126,7	127,2	126,1
60-64	367,5	52,6	715,3	52,7	330,6	47,4	641,2	47,3	194,3	194,6	194,0
65 va undan yuqori	669,6	56,2	1073,9	55,7	521,5	43,8	853,2	44,3	161,8	160,4	163,6
Jami	14974,8	49,9	17896,4	49,7	15018,8	50,1	18128,6	50,3	120,1	119,5	120,7

Mamlakatimizda doimiy aholi soni 2023 yilning 1 yanvar holatiga 36024,9 ming kishini tashkil etib, 2013 yilga nisbatan 20,1 foizga, shu jumladan, ayollar 19,5 va erkaklar 20,7 foizga ko‘paygan.

Jamiyatda ayollarning iqtisodiy-ijtimoiy holati, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda, ayollarning vafot etish darajasiga ta’sir ko‘rsatib, ularning umumaholi sonidagi ulushlarining pasayishiga olib keladi.

- Jinsiy tarkib tuzilishiga ikki xil omil ta’sir qiladi:
- Demografik omil. U qizlar va bolalarning tug‘ilishiga, shu bilan birga erkak va ayollarning o‘lim darajasiga bog‘liqdir. Respublikamizda 2018 yilda 100 ta qiz bolaga 110 ta o‘g‘il bola tug‘ilishi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa. Bu ko‘rsatkich 2022 yilda 107 nafarni tashkil qilgan.
 - Ijtimoiy-iqtisodiy omil. U ishlab chiqarish kuchlarining joylanishiga, ayollarning jamiyatda tutgan o‘rniga hamda urushlar evaziga tarkibda o‘zgarishlar bo‘lishiga bog‘liqdir.
- Demografik resurslar har qanday davlatning qudratini yuzaga keltiruvchi eng katta boyligidir. Shunga ko‘ra iqtisodiyotni rivojlantirish va modernizatsiya qilishda buyumlashgan

kapitaldan tashqari miqdor va sifatdan tashkil topgan inson kapitali muhim omil hisoblanadi.

O'zbekistonda keyingi yillarda barqaror demografik vaziyat paydo bo'lib, doimiy holda aholi sonining tabiiy va umumiy qo'shimcha o'sishi sodir bo'lmoqda. Aholi sonini, tarkibini, tabiiy va mexanik hamda sotsial harakatlarini tavsiflash va miqdoriy baholash davlatni boshqarish organlari va iste'mol bozori talablarini qondirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududlardagi mavjud demografik vaziyat va aholi takror ishlab chiqarishning mavjud turlari demografik jarayonlarni ilmiy asoslangan boshqarish maqsadida ularning ijtimoiy-iqtisodiy shartlilikini eng batafsil o'rganishni taqozo etadi. Hududlarning demografik rivojlanishini o'rganish shuni ko'rsatadiki, tug'ilish va o'lim kabi jarayonlar iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi ta'sirida o'zgaradi va shu bilan birga ularning o'zi ham iqtisodiy o'sishga ta'sir qiladi.

Aholi ko'payishi bilan bir yo'la uning zichligi ham oshib bormoqda: Yil boshida 1940 yilda har kv.km ga 14,6 kishi, 1991 yilda 46,3 kishi, 2001 yilda 55,4 kishi, 2011 yilda 64,9 kishi, 2021 yilda 77,0 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024 yilda bu ko'rsatkich 82,0 kishini tashkil etib 1940 yilga nisbatan 5,6 baravar oshgan. Hozirgi vaqtda O'zbekistonning 14 ta hududiy bo'linmasidan 10 tasi aholi zich bo'lgan hududiy bo'linmalar jumlasiga kiradi, vaholangki, ular O'zbekiston hududining atigi choragini, aholi uncha zich bo'lmagan to'rtta viloyat esa respublika hududining qolgan to'rtidan uch qismini egallagan. Aholining eng zich joylashgan hududlari sifatida Andijon (789,4 kishi), Farg'ona (600,8 kishi), Namangan (412,1), Xorazm (329,9 kishi), Samarqand (251,1 kishi) viloyatlari va Toshkent shahri (6787,5) hisoblanadi. Aholi nihoyatda zich bo'lgan mintaqalarga aholi, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi va ish bilan band aholi, tug'ilgan bolalar va aholi tabiiy ko'payishining beshdan to'rt

qismi, yalpi ichki mahsulotning 74,0 foizi, investitsiyalarning 79,0 foizi va iste'mol xarajatlarining 88,0 foizi to'g'ri kelmoqda².

O'zbekiston aholisi sonini trend va dinamika qatorlarining tebranishlariga asoslanib ekstropolyatsiyalashni amalga oshiramiz. Statistika nazariyasidan trendlarni aniqlash va ular asosida dinamika qatorlari darajalarining kelgusi davrlar uchun ekstropolyatsiyalash orqali prognoz ko'rsatkichlarini belgilash mumkin.

Respublikamizda 01.01.2024 yil holatiga ko'ra doimiy aholi sonining eng ko'p ulushi Samarqand (11,4 %), Farg'ona (11,0 %), Qashqadaryo (9,7 %), Andijon (9,2%) va Namangan (8,3%) viloyatlariga.

Nisbatan kam ulushi Sirdaryo (2,5 %), Navoiy (2,9 %), Jizzax (4,1 %), Xorazm (5,4 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (5,4 %) to'g'ri keladi.

Prognozlash iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarini rejalashtirishning muhim elementlaridan biri bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning miqdor va sifat qonuniyatlarini aniqlash, jarayonlarning kelajakda tashkil topishini, ular evolyusiyasida yuz berishi mumkin bo'lgan tuzilmaviy o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Uzoq muddatli reja tuzishda prognozlash muhim rol o'ynaydi. Umumiy prognozlash tizimida aholi soni va tarkibini prognozlash muhim o'rin tutadi, chunki u jamiyatning mehnat resurslari va uning iste'mol hajmini aniqlash imkonini beradi. Demak, aholini prognozlash ijtimoiy-iqtisodiy rejalar tuzish uchun zaruriy asos hisoblanadi.

Umuman, ko'p hollarda prognozlashning har xil usul va yo'llarini birgalikda qo'llashga to'g'ri keladi. Aholini prognozlashda zamonaviy va kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan demografik siyosatni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

² www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi sayti ma'lumotlari.

3-jadval
Aholi zichligi dinamikasi 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni va prognozi , kishi³

Yil-lar	Aho-li zich-ligi	Prog-noz	Bog'lanish ehtimoli quyi chegarasi	Bog'-lanish ehti-moli yuqori che-garasi
2011	64,9			
2012	65,8			
2013	66,8			
2014	67,9			
2015	69,1			
2016	70,3			
2017	71,5			
2018	72,7			
2019	74,1			
2020	75,5			
2021	77,7			
2022	78,5			
2023	80,2			
2024	82,0	82,0	82,0	82,0
2025		83,8	82,8	84,7
2026		85,6	83,5	87,6
2027		87,3	84,0	90,7
2028		89,1	84,3	93,9

Mintaqalar bo'yicha keyingi 14 yil ichida aholi soninig eng yuqori o'sish sur'ati Surxandaryo viloyatida 138,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, Toshkent viloyatida esapast, yani 118,0 foizga teng bo'lgan.

Mamlakatimizda demografik jarayonlarga tavsifnoma berishda bir qator statistik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ular jumlasidagi ayrim ko'rsatkichlarni hisoblashni takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz.

1. Tug'ilishning umumiy koeffitsenti. Bu ko'rsatkich respublikamizda 2023 yilda

26,4%₀ teng bo'lgan, uning miqdori aholining jins – yosh va nikohlanish tarkibiga bog'liq bo'lganligi tufayli tug'ulishning nikohlanish koeffitsentini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun tug'ulganlar sonini nikohda bo'lgan reproduktiv yosh (15-49)dagi ayollarning o'rtacha yillik soniga bo'lish zarur.

2. Nikohlanishning umumiy koeffitsenti. Bu ko'rsatkichni aniqlashda jami aholining o'rtacha yillik soniga nisbatan emas, balki nikohlanish qobiliyatiga ega bo'lgan yosh (18 va undan katta)lar soniga nisbattan hisoblash lozimdir.

3. Nikohni bekor qilish koeffitsenti. Bu ko'rsatkichni aniqlashda ham nikohlanish qobiliyatiga ega bo'lganlar sonini e'tiborga olib, nikohdan ajralishning maxsus koeffitsentini amaliyotda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Yuqoridagi ijobiy tendensiyalar bilan birga mamlakatda demografik rivojlanishni yanada yuqori sifatli aholini takror barpo qilish sharoitlarini ta'minlash maqsadida demografik rivojlanishning birinchi galdagi vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- tug'ilishni uzoq muddatli istiqbolda ham demografik takror barpo qilishning oddiy rejimini ta'minlash darajasida saqlash;
- aholi sog'lig'ini saqlash tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish, davolash-profilaktika muassasalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash, aholiga yuqori sifatli, zamonaviy talab va standartlarga muvofiq tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash;
- aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;
- aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish shu bilan birga aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

³ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblangan. www.stat.uz

– onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatishni rivojlantirish;

– to'g'ri ovqatlanish va gigiena, sog'lom homiladorlik va bola parvarishi, reproduktiv salomatlik, sog'lom turmush tarzi masalalarida aholining tibbiy savodxonligini oshirish;

– ishlab chiqarishda mehnat qilishning xavfsiz shart-sharoitlarini ta'minlash, baxtsiz hodisalar, zaharlanishlar va jarohatlarning oldini olish.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan demografik siyosatning strategik maqsadiga erishish yo'nalishlarini muntazam amalga oshirish respublikada aholini takror barpo qiluvchi yuksak demografik salohiyatni shakllantirishga va undan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. www.lex.uz.
2. Graunt J. Natural and Political Observation Mentioned in a following Index, and Made upon the Bills of Mortality. By John Graunt? Citizen of London. With Reference to the Government Religion Trade. Growth, Ayre, Difeales, and the fveral Chandes of the faid City London, MDCLXII. Демография: Учеб. Пособ./ Под ред. В.Г.Глушковой, Ю.А. Симагина. – 4-е изд., перераб. и доп. – М.: КНОРУС, 2008. – 288 с
3. Shryock H.S., Sigel J.S. The M ethods and M aterials o f Demography. - N .Y., San Francisco. London. 1973.- P. 1
4. Embergenov N.J. Qoraqolpog'iston Respublikasi aholisi o'sishi va joylanishidagi o'zgarishlar. Geografiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent, 2011. - 11 b
5. Кваша А.Я. Что такое демография? - М.: Мысл, 1985. -126 с
6. Мулладжанов И.Р. Демографическое развитие Ўзбекской ССР. -Т., 1983; Народнонаселение Ўзбекской ССР. - Т., 1967; Убайдуллаева Р.А. Мустақил Ўзбекистан: аёл - оила - жамият. - Т.: Ижтимоий фикр, 2006; Демографическая ситуация Ўзбекистана и перспективы ее развития / Социально-демографические процессы в современном Узбекистане. - Т., 2009; Убайдуллаева Р.А., Ата-Мирзаев О.Б., Умарова Н.О. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги (илмий-укув қўлланма), - Т.: Университет, 2006; Ога-Мирзаев О., Муллажонов И., Каюмов А. Ўзбекистон аҳолиси. - Т.: Қомуслар бош тахриррияти, 1997; Ата-Мирзаев О.Б. Особенности формирования новой демографической ситуация Узбекистана в годы независимости / Население Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы. - Т., 2012; Максакова Л.П. Миграция населения Республики Узбекистан. - Т.; Издательский дом «Элдинур», 2000; Миграция населения: проблемы регулирования. -Т., 2001; Узбекистан в системе международных мигрирующих //Постсоветские трансформация: отражение в миграция. /Под ред, Зайончковской Ж. А и Витковской Г.С. / Центр миграционных исследований, Институт народнохозяйственного прогнозирования РАН.-М.: ИТ «Адамант», 2009; Бобожонова Д. Б. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг хусусияти. - Т.,1995; Ўзбекистонда ижтимоий иқтисодий муносабатлар. - Т., 1999.
7. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (darslik). -Т.: - «Mehnat» - 2009. - 145 b.

UDK: 658.01:338.45

Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**“Savdo ishi” kafedrası dotsenti***KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATI XUSUSIYATLARIDAN
KELIB CHIQIB RISKLARNI BOSHQARISH TAMOYILLARINING
AHAMIYATI****Шодмонкулов Камолиддин Муродиллаевич***Ташкентский государственный экономический университет**доцент кафедры Торгового бизнеса***ЗНАЧЕНИЕ ПРИНЦИПОВ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ, ВЫВОДЯЩИХ
ИЗ ХАРАКТЕРИСТИК ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЗОН МАЛОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ****Shodmonkulov Kamoliddin Murodillayevich***Docent of the “Trade business” Department at Tashkent**State University of Economics***SIGNIFICANCE OF THE PRINCIPLES OF RISK MANAGEMENT DERIVED
FROM THE CHARACTERISTICS OF THE ACTIVITY OF SMALL
INDUSTRY ZONES**

Annotatsiya. Kichik sanoat zonalari faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqib risklarni boshqarish ahamiyati yuqori hisoblanadi. Maqolada kichik sanoat zonalari faoliyatidagi risklar tasnifi va risklar tamoyillari yoritilgan.

Tayanch soʻzlar: kichik sanoat zonalari, risklar, risk tamoyillari, investitsion samara, risklarni boshqarish, raqobat muhiti.

Аннотация. Исходя из особенностей деятельности малых промышленных зон, важность управления рисками высока. В статье описана классификация рисков и принципы возникновения рисков в деятельности малых промышленных зон.

Ключевые слова: малые промышленные зоны, риски, принципы риска, эффективность инвестиций, управление рисками, конкурентная среда.

Abstract. Based on the characteristics of the activities of small industrial zones, the importance of risk management is high. The article describes the classification of risks and principles of risks in the activity of small industrial zones.

Key words: small industrial zones, risks, principles of risk, investment performance, risk

management, competitive environment.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari masalasi ko'p yillar davomida tadqiqotchilarni qiziqtirib kelmoqda. Bu masala bo'yicha ham xorijiy, ham mahalliy iqtisodchilar tomonidan ko'plab nazariy va empirik tadqiqotlar olib borilgan. Bir tomondan kichik sanoat zonalari faoliyati samaradorligi korxonalar o'rtasida raqobat kurashi uchun dolzarbligini ko'rsatsa, boshqa tomondan, aksariyat tadqiqotlarda mualliflar korxonalar raqobatbardoshligining asosiy omillari, raqobatbardoshlik darajasini monitoring qilish va uni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishning iqtisodiy jihatlariga kamroq e'tibor berib strategik tahlil va kompaniyalar raqobotbardoshligining fundamental omillarini aniqlashga e'tibor berishmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon amaliyotida xalqaro tashkilotlar tomonidan kichik sanoat zonalari investitsiya faoliyati natijalarini baholash bo'yicha mezonlar ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu mezon talablari asosida kichik sanoat zonalari taraqqiyotini boshqarish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yevropa Ittifoqi iqtisodchilolari va ekspertlari «инвестициялар иқтисодий инқироз даврида hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayishi yuz berganda iqtisodiy faoliyatni tiklashga eng katta hissa qo'shuvchi omil ekanligini, ushbu omil kichik sanoat zonalari uchun ham birday ahamiyatli ekanligini ta'kidlamogdalar»[2].

O'zbekistonda kichik sanoat zonalari samarali boshqarish biznes yuritish muhitini yaxshilash bilan birga tadbirkorlar manfaatdorligini ham oshirmoqda.

Xususan, BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) tomonidan har yili e'lon qilinadigan «Raqobatbardosh sanoat unumdorligi» indeksining 2020 yilgi hisobotida mamlakatimiz ilk bor aks ettirilib, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 2-o'rinni egallagani qayd etildi. Hozirda «tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiyl sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadida hududlarda yangi sanoat zonalari tashkil etish»[3] muhim vazifa sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifani samarali amalga oshirish kichik sanoat zonalari faoliyati natijadorligini yuksaltirish, ushbu faoliyatning tahlil mexanizmlarini takomillashtirish, uning hududda iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlashdagi o'rnini kuchaytirish hamda uni boshqarish samaradorligi darajasini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruriyatini ko'rsatib beradi.

Zonal siyosat va kichik sanoat zonalari faoliyatini tashkil etish va boshqarishning umumiy iqtisodiy muammolari, kichik sanoat zonalaridagi investitsiya loyihasining optimal investitsiya portfelini shakllantirish masalalari yuzasidan J.J.Buckley, Y.C.Chui, S.P.Chan, D.Kuchta, C.Kahraman[4]lar tadqiqotlar olib borishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida risklar, ular guruhini o'rgangan holda, kuzatish, iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, qiyosiy va tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Kichik sanoat zona(KSZ)lari risklarini boshqarish ikkita jihatni hisobga olgan holda tegishli strategik maqsad va taktik vazifalarni

qamrab olishi hamda quyidagilarni inobatga olishi lozim: bir tomondan, KSZning o'ziga xos xususiyatlari, boshqa tomondan, uni aniqlash uchun xavflarni boshqarish imkoniyati.

KSZlari uchun risklarni boshqarishning yagona nazariyasi, shuningdek, mahalliy iqtisod fanida yaxlit nazariya mavjud emasligi sababli, xorij tajribasi va biznes risklarini boshqarish bo'yicha nazariy ishlanmalarni o'rganish O'zbekiston Respublikasi KSZlari uchun uni kamaytirish yo'llarini izlash imkonini beradi. Ko'rinishidan, KSZlarida tavakkalchiliklarni boshqarishning umumiy konseptual yondashuvi KSZning o'ziga xos xususiyatlariga mos keladigan xavfni baholash va uning namoyon bo'lishini KSZning maqsadli sharoitlariga moslashtirish emas, balki asosiy maqsad xavflarning yuzaga kelmasligi uchun sharoit yaratishga qaratilgan risklarni boshqarish tizimini yaratish bo'lishi kerak.

Kichik sanoat zonalari faoliyatidagi risklar tasnifi qo'yidagi yigirma guruhga bo'ldik:

1. Yuzaga kelish holatiga ko'ra (obyektiv, subyektiv);

2. Boshqarish darajasiga ko'ra (boshqariladigan, boshqarib bo'lmaydigan);

3. Yuzaga kelish sohasiga ko'ra (tashqi boshqariladigan, tashqi boshqarilmaydigan, ichki);

4. Sug'urtalash shakliga ko'ra (sug'urtalanuvchi, sug'urtalanmaydigan);

5. Yuzaga kelish bosqichiga ko'ra (qaror qabul qilish bosqichidagi, qaror ijro etilishi bosqichidagi);

6. Ta'sir etish davomiyligiga ko'ra (uzoq muddatli, qisqa muddatli);

7. Himoyalash darajasiga ko'ra (to'liq himoyalash zarur bo'lgan risk, qisman himoyalash mumkin bo'lgan va himoyalalanish imkoni bo'lmagan risk);

8. Ta'sir ko'rsatish obyektlariga ko'ra (faoliyatning barcha sohasiga ta'sir etuvchi,

ayrim sohalariga ta'sir etuvchi);

9. Moliyaviy oqibatlari ko'lamiga ko'ra (tiklab bo'lmas yo'qotishlarga olib keluvchi, katta moliyaviy yo'qotishlarga olib keluvchi);

10. Yuzaga kelish davriyligiga ko'ra (doimiy, davriy, bir martalik);

11. Risk miqyosiga ko'ra (minimal, yuqori, kritik, yo'l qo'yib bo'lmaydigan);

12. Kutilish xususiyatiga ko'ra (aniq, kam ehtimolli, kutilmagan);

13. Faoliyat xususiyatiga ko'ra (moliyaviy, huquqiy, siyosiy, tijorat, ishlab chiqarish, ekologik, innovatsion, sug'urtaviy);

14. Yo'qotishlar xususiyatiga ko'ra (moddiy, tashkiliy, psixologik, ijtimoiy, moliyaviy);

15. Riskdan himoyalalanishni tashkil etish shakliga ko'ra (himoyalalanish choralari orqali himoyalalanish mumkin bo'lgan, davlat yordami zarur bo'lgan risk, sug'urtaviy himoyalalanish zarur bo'lgan risk);

16. Qaror qabul qiluvchilar soniga ko'ra (individual, guruhli);

17. Makoniga ko'ra (global, hududiy, lokal);

18. Xavf turiga ko'ra (texnogen, tabiiy, aralash);

19. Ta'sir darajasiga ko'ra (korxona va sanoat zona)

20. Inson omili ishtirokiga qarab (motivatsion, boshqaruvga xos, ijtimoiy-psixologik, fiziologik va b.).

Risk menejmentining an'anaviy yondashuvi risklarni «ishlab chiqarish», ularga resurslarni taqsimlash, qobiliyatsizlikni hisobga olish bilan bir xil bo'lganligi sababli, amaldagi amaliyotni tubdan o'zgartirish zarurati tug'iladi. Proaktivlik tamoyiliga qat'iy rioya qilish asosida qurilgan bunday tizim noaniqlik omillarini emas, balki bunday omillarning paydo bo'lish ehtimolini yo'q qilishga mo'ljallangan.

Hozirgi bosqichda kichik sanoat zonalari risklarini umumiy ma'noda boshqarishning

maqsadi belgilangan chegaralar doirasida xavf darajasini saqlab turish orqali Kichik sanoat zonasining strategik va operatsion barqarorligini ta'minlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun kichik sanoat zonalarini uchun ilmiy asoslangan risk menejmenti jarayoni risklarni boshqarishning umumiy tamoyillarini aniqlashtirishga asoslanishi kerak (1-jadval).

1-jadval

KSZ faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqib risklarni boshqarish tamoyillarining aniqlashtirilishi ¹

Risklarni boshqarish tamoyillari	Risklarni boshqarish tamoyilining KSZga moslashtirilishi
KSZ faoliyati maqsadlariga mos kelishi	Boshqaruv jarayonining KSZ maqsadlariga bo'ysundirilganligi; KSZ xulqining vaziyatdan kelib chiqib emas, balki boshqaruv qaroridan kelib chiqib belgilanishi;
Vaqt perimetrlariga binoan barcha jabhalarning qamrab olinganligi	KSZ uchun tavakkalchilik vaziyatining yuzaga kelish sabablarini aniqlash va ushbu sababni bartaraf etish
Mumkin bo'lgan daromad va zararlarni hisobga olgan holda risklarni o'tkazishning maqsadga muvofiqligi	KSZ uchun preventiv tadbirlar uchun xarajatlar va sug'urta shartnomasi orqali risklarni o'tkazish bilan bog'liq potensial xarajatlarni qiyoslash

Yuqoridagi tamoyillarga asoslanib, O'zbekiston Respublikasi KSZlarining risklarini boshqarish yaxlit va ma'lum bir tarzda tartibli bo'lishi kerak.

KSZlarni barpo qilish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi tamoyillarni

¹ Muallif ishlanmasi.

ajratib ko'rsatish mumkin: davlat va xususiy sektor sherikchiligi; davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari; KSZlarni barpo etish va rivojlantirishdagi risklar; maslahat berish "yagona darcha" tamoyili. Yuqorida keltirilgan tamoyillarga rioya qilinishi KSZlarni samarali barpo etishga olib keladi.

KSZlarni ilmiy-tadqiqot institutlari, institut va universitetlar bilan uzaro aloqalarini yo'lga qo'yish. Bunday aloqalar KSZlarni mutaxassis kadrlar bilan ta'minlashni yo'lga qo'yishda, buyurtma asosida yangi texnik ishlanmalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish ishlarini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

KSZ qatnashchilari bilan mahalliy sanoat korxonalari o'rtasida kooperatsiyani rivojlantirish. Bunday kooperatsiya KSZda mahsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va sinergiya samarasiga erishishga olib keladi va hududiy sanoatning multiplikativ rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

KSZlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Bu tamoyil zona qatnashchilarini hudud hokimligining sanoat siyosatini amalga oshirishga yordam beradi. Ilg'or, xorijiy texnologiyalar asosida eksportbop, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni amalga oshirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida KSZlarga zona qatnashchilarini tanlov asosida joylashtirish uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin: ekologik talablar – oqava suvlarning ifloslanish darajasi; shovqinlik darajasi; iqtisodiy mezonlar; loyihani qoplanish muddati; iqtisodiy samaradorligi; loyiha egallaydigan yer maydoni (ga); 1 gektar foydalanuvchi yer maydoniga to'g'ri keluvchi investitsiya hajmi hamda o'rnlari soni va daromad miqdori; biznes rivojlanishining istiqbolliligi; eksport imkoniyati; mahalliy sanoat korxonalari bilan kooperatsiyalashuv

darajasi; o'rtacha ish haqi.

XULOSA

Hududlarning hokimiyat organlari KSZlarni barpo etishdan manfaatdor bo'lishi kerak, chunki KSZlarni barpo etish hududda yangi ish o'rinlarini yaratish, hudud budjetiga tushum tushishi, aholi daromadlarini ortishi va hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi. Hududlarda zarar

ko'rib ishlayotgan, past rentabelli tashkilotlar cheklangan, ayrim tumanlarda bunday tashkilotlar deyarli yo'q desak ham bo'ladi. Masalan, Samarqand viloyatining Oqdaryo, Ishtixon, Pastdarg'om va boshqa tumanlari shunday tumanlar jumlasiga kiradi. Bunga o'xshash tumanlarni boshqa viloyatlarda ham uchratish mumkin. Shu sababli ayrim hududlarda KSZlarning grinfield (hech narsa qurilmagan bo'sh maydonlarda) turini tashkil

etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 06.07.2020 yildagi PF-6019-son Qarori
2. Petrović P., Arsić M., Nojković A. Increasing public investment can be an effective policy in bad times: Evidence from emerging EU economies. *Econ Model.* 2020. doi:10.1016/j.econmod.2020.02.004.
3. Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasini 2022 yilda amalga oshirish bo'yicha Yo'l xaritasi. – www.lex.uz.
4. Buckley, J.J. (1987) The fuzzy mathematics of finance, fuzzy sets and systems, 21, pp. 257-273; Chui, Y.C. and Chan, S.P. (1994) Fuzzy cash flow analysis using present worth criterion, *Engineering economist*.

UDK: 338:6П9.2

Ziyayeva Shahlo Shoakbar qizi
“Savdo ishi” kafedrasida katta o‘qituvchi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARINING BREND JOZIBADORLIGINI
OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARI**

Зияева Шахло Шоакбаровна
Старший преподаватель кафедры «Торговое дело»
Ташкентский государственный экономический университет

**МАРКЕТИНГОВЫЕ СТРАТЕГИИ ПОВЫШЕНИЯ
ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ БРЕНДА ШВЕЙНО-ТРИКОТАЖНЫХ
ПРЕДПРИЯТИЙ**

Ziyayeva Shakhlo Shoakbarovna
Senior Lecturer of the Department of Trading business
Tashkent State University of Economics

**MARKETING STRATEGIES FOR INCREASING THE BRAND
ATTRACTIVENESS OF GARMENT AND KNITTING ENTERPRISES**

Annotatsiya. Bozor iqtisodiyoti sharoitida biron bir tashkilot, kompaniya yoki muassasa samarali marketing faoliyatisiz muvaffaqiyatli ishlay olmaydi. Maqolada tikuv-trikotaj korxonalarining brend jozibadorligini oshirishda marketing strategiyalarini qo‘llash masalalari ko‘rib chiqildi, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar doirasida marketing tadqiqotlari o‘tkazildi, bu esa mavjud muammolarni aniqlash va rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash imkonini berdi. Marketing tadqiqotlari natijalari ushbu faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha bir qator tavsiyalar va takliflarni shakllantirishga imkon berdi.

Tayanch so‘zlar: Brend jozibadorligi, moda industriyasi, brend strategiyalari, marketing strategiyalari, marketing tadqiqotlari, global moda, brend identifikatori elementlari, ijtimoiy media platformalari, raqamli marketing.

Аннотация. В рыночной экономике ни одна организация, компания или учреждение не может успешно работать без эффективной маркетинговой деятельности. В статье рассмотрено применение маркетинговых стратегий для повышения привлекательности брендов швейных и трикотажных предприятий, а также проведены маркетинговые исследования в рамках научных исследований, которые позволили выявить существующие проблемы и определить направления развития. Результаты маркетингового исследования позволили сформулировать ряд рекомендаций и предложений по совершенствованию данной деятельности.

Ключевые слова: Привлекательность бренда, индустрия моды, стратегии бренда, маркетинговые стратегии, маркетинговые исследования, мировая мода, элементы фирменного стиля, платформы социальных сетей, цифровой маркетинг.

Abstract. In a market economy, no organization, company or institution can operate successfully without effective marketing activities. The article examines the use of marketing strategies to increase the attractiveness of brands of sewing and knitwear enterprises, and also conducted marketing research within the framework of scientific research, which allowed identifying existing problems and determining development directions. The results of the marketing research allowed formulating a number of recommendations and proposals for improving this activity.

Keywords: Brand appeal, fashion industry, brand strategies, marketing strategies, marketing research, world fashion, brand identity elements, social media platforms, digital marketing.

KIRISH

Jahon mamlakatlarida tikuv-trikotaj mahsulotlari bozorini rivojlanishi asosiy yoʻnalishi sifatida brending asosiy yoʻnalishga aylanib, korxonalarning global raqobatda ustunligini taʼminlashning asosiy strategik yondashuvi sifatida qaralmoqda. Global kiyim-kechak bozori 2024-2030-yillar davomida yillik oʻrtasi 2,8 foiz oʻsishi prognoz qilinayotgan bir vaqtda 95 foizi isteʼmol hashamatli boʻlmagan ommaviy mahsulotlarga tegishli boʻlishi kutilmoqda. Mazkur oʻsish tendensiyalariga asoslangan xolda global brending strategiyalari asosida jahonning TOP-10 talik yetakchilari hisoblangan Nike, Adidas, Zara, H&M, Shein, UNIQLO, Skechers kabi kiyim brendlarning 2023-yildagi 32 foizlik bozor ulushini 2030-yilgacha 50 foizdan oshirish maqsadlarida harakat qilib mamlakatlarda shakllangan raqobat mahalliy brendlarni globallashtirish imkoniyatlarini cheklab bormoqda.

Jahonning global kiyim-kechak brendlari tez rivojlanayotgan kiyim va moda sanoatida raqobatbardoshlikni va oʻsishni saqlab qolish uchun turli strategik yoʻnalishlardan foydalanmoqda. Jumladan, barqaror moda, eko-brending, kiyim-kechaklarni qayta ishlash va qayta sotishni ragʻbatlantirish, elektron tijoratni kengaytirish, va onlayn

platformalarga yuqori darajada sarmoyalar kiritish, mijozlarni jalb qilish uchun ijtimoiy media va shaxsiylashtirilgan marketingdan foydalanish, rivojlanayotgan bozorlarni kengaytirish, bozorlarning oʻziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun mahalliyashtirilgan mahsulot va xizmatlarni taklif qilish, smart kiyimlar sanoatini rivojlantirish kabilar, mijozlarni saqlab qolish va takroriy xaridlarni ragʻbatlantirish uchun “bir umrlik mijoz” tamoyillarini qoʻllash kabilar tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tikuv-trikotaj va moda sanoati korxonalarining brend yaratish jarayoni va boshqaruvining ilmiy-nazariy va ilmiy-uslubiy jihatlarini koʻplab xorijlik marketolog olimlarning ilmiy ishlanmalarida oʻz aksini topgan. Bu borada Keller K. L., Kotler P., Mrad M., Park H., Lim R. E., Blasi S., Brigato L., Sedita S. R., Mogaji E., Wei X., Jung S., Yin Z., Chen L. va boshqalarning ilmiy ishlari diqqatga sazovordir. Ushbu uzoq xorijlik olimlarning tadqiqotlari korxonalarda brend yaratish amaliyoti va uslubiyoti, savdo markasini brend qilishga boʻlgan yondashuvlar, brend kapitalini shakllantirish va uni oshirib borish, mijozlar ongida brend

jozibadorligini oshirishning ilmiy-nazariy talqinlari, uslubiy yondashuvlari tadqiq etilgan.

Chen L. va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotda moda brendlari uchun yashil innovatsiyalar iste'molchilar tomonidan qanday qabul qilinishini va ularning xarid qilish niyatiga qanday ta'sir qilishini o'rganib chiqilgan. Mazkur tadqiqotda kiyim brendining yashil innovatsiyasi va yashil xarid qilish niyati, ikkinchi tomondan, qabul qilingan yangilik, idrok etilgan foydalilik va idrok etilgan yashillik o'rtasida bog'liqliklarni aniqlashga harakat qilgan.

J.Lin, A.Lobo., C.J.J.Leckie., R.K.Ranjan, hamda R.J.R.Kushwahalar tadqiqotlarida iste'molchilarning brend yashilligi ularning xarid qilish niyatiga ijobiy ta'sir qilishini asoslaganlar. Marketing tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, iste'molchilar brendning yashil qiymatini qancha yuqori baholasa, brendni sotib olish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Yashil innovatsiyalar va ekologik mas'uliyatni targ'ib qiladigan brendlar, iste'molchilarning atrof-muhitga bo'lgan ongini hisobga olgan holda, ularning xarid qilish qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Brendning ekologik jihatdan mas'uliyatli yondashuvi, iste'molchilarning brendga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularga bu mahsulotni sotib olishda qo'shimcha motivatsiya beradi.

O'zbekistonning iqtisodchi olimlaridan A.S.Soliyev, N.Q.Yo'ldoshev, M.A.Ikramov, A.Sh.Bekmurodov, M.R.Boltabayev, A.A.Fattaxov, Sh.J.Ergashxodjayeva, M.S.Qosimova, A.N.Samadov, I.S.Xotamov, S.A.Eshmatov, Z.A.Xakimov, Zufarova N.G., Odilova S.S., Oqboyev A.R. va boshqalar marketing va brending fanlarini rivojlantirish, brend yaratish nazariyalarining ilmiy-metodologik asoslarini yaratish borasida tadqiqotlar olib borishgan. Keltirib o'tilgan olimlarning asosiy tadqiqotlari brend yaratish va uni bozorda samarali joylashtirish

usullari va vositalarini yaratishga harakat qilgan bo'lsalarda, tikuv-trikotaj mahsulotlari brendlari qiymatini oshirish va xalqaro global brendga aylantirish, mahalliy brendlarni xalqaro nufuzini oshirish, yashil brend strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Ushbu holatlarni inobatga olganda, tikuv-trikotaj korxonalarining brend jozibadorligini marketing strategiyalari asosida oshirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotning nazariy va uslubiy asosini mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida asoslab berilgan ta'lim xizmatlari bozorida marketing va marketing kommunikatsiyalari kontseptsiyasini aniqlash yondashuvlari tashkil etadi. Oliy o'quv yurtlari marketing faoliyatining amaliy jihatlarini o'rganish, kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, tasniflash, sotsiologik so'rov kabi bilimlarning empirik va nazariy usullaridan foydalangan holda amalga oshirildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'zbekiston kiyim va trikotaj sanoati qadimdan rivojlangan sanoat tarmog'i bo'lsada haligacha xalqaro darajada shakllangan mahalliy brendlar deyarli yo'q. Biroq, ichki bozorda mijozlar ongida ijobiy imidjni shakllantira olgan bir qator mahalliy brendlar shakllangan bo'lib, ularning faoliyati va strategik yo'nalishlarini tahlil qilish asosida brend qurishga qaratilgan uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyati mavjud.

Moda industriyasi rivojlanishining marketing strategiyasini ishlab chiqish, milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish, korxonalarga konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi bozor subyektlarini ko'paytirish, mavjud infratuzilmani shakllantirish hamda dizayner

va konstruktorlarni innovatsion mahsulotlari uchun ragʻbatlantirish mexanizmlarini qoʻllashda foydalaniladi. Shuningdek, dizayn va moda markazlarini isteʼmol bozori bilan sanoat korxonalarini bogʻlovchi asosiy zanjir sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Oʻzbekistonda faoliyat yuritayotgan korxonalarning milliy brendlarni shakllantirish borasida strategik vazifalari ishlab chiqilgan boʻlsa-da, ularning xalqaro nufuzini oshirishga yoʻnaltirilgan kompleks dasturlar mavjud emas. Milliy brendlarning xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan moliyaviy manbalarni aniqlash va ulardan foydalanish imkoniyatlarini belgilashga qaratish korxonalar uchun murakkablik darajasi yuqori. Milliy brendlarning xalqaro nufuzini oshirishga qaratilgan dasturlarni belgilash boʻyicha faoliyat yuritayotgan korxonalar bilan oʻzaro hamkorlik munosabatlarini shakllantirish ham murakkablik kasb etadi. Ushbu jihatlarni inobatga olganda mahalliy toʻqimachilik brendlarini shakllantirish uchun kiyimlar bozorining oʻziga xos jihatlarni aniqlash eng muhim tadqiqot yoʻnalishlari sifatida qaralishi lozim.

Oʻzbekiston marketing uyushmasi tomonidan, mahalliy brendlar va agentliklar marketing samaradorligi reytingi va agentliklar kreativligi jamlama reytingi eʼlon qilinadi. Marketing samaradorligi reytingi – bu Marketing Uyushmasining har yilgi brendlar va agentliklar reytingi boʻlib, u Oʻzbekistonda keyingi ikki yilda marketing sohasida eng samarali kompaniyalarning professional yutuqlarini, natijalarini aks ettiradi va bozorda oʻz maqomiga ega boʻlish hamda ilgarilashning toʻgʻri strategiyasini holis baholashning yagona umum eʼtirof etilgan vositasi sanaladi.

Oʻzbekiston marketing uyushmasi reyting ishtirokchilari roʻyxatini mustaqil ravishda, ochiq foydalanishda mavjud maʼlumotlar asosida, shuningdek brendlar

va agentliklardan kelib tushgan, ularning Oʻzbekiston va chet eldagi professional tanlovlardagi ishtiroki va gʻalabasi haqidagi arizalari boʻyicha shakllantiradi.

Brend reytinglarini aniqlash 2021-yildan boshlangan boʻlib, 2023-yil natijalariga koʻra bir qator moda brendlari ham yil tanlovlarida ishtirok etgan.

Roʻyxatdagi har bir professional tanlovga uning obroʻli va murakkablik darajasiga qarab, koeffitsient beriladi. Har bir sovrin quyidagi ballar boʻyicha baholanadi: short-list-1, bronza –3, kumush –5, oltin –9, gran-pri –15;

Brendlarni baholash oldingi yilgi natijalarga qarab ham belgilanadi. Bu unga 10 ball beradi. Keyingi yil boshida u reytingda noldan emas, 5 balldan boshlaydi. Yil davomida tanlovlarda qatnashish va gʻalabalar yil boshidagi boshlangʻich ballarga qoʻshiladi. Reyting yangilanishi ishtirokchilar tomonidan arizalar yoki axborotlar taqdim etilishiga yohud reyting tanlovlar roʻyxatiga kiritilgan tanlovlar, festivallar va mukofotlar natijalariga qarab amalga oshiriladi.

2023-yil natijalariga koʻra jami 23 ta moda brendlari tanlovda ishtirok etgan va “Pandora” moda brendi reytingda yuqori oʻrinni egallagan. Biroq, mazkur reyting aynan kiyim va trikotajlar mahalliy korxonalarini qamrab olmaydi. (1-jadval)

1-jadval

2023-yilda Oʻzbekiston brendlar va agentliklarning marketing samaradorligi yakuniy Reytingi (moda yoʻnalishi boʻyicha) ¹

Oʻrin	Brendlar	Reyting	Faoliyat yoʻnalishi
1	PANDORA	63	07774 - Yakka tartibdagi fuqarolar tomonidan tashkil etilgan korxonalar

¹ https://interbrand.com/wp-content/uploads/2022/06/IB-Brand Valuation_220608.pdf

2	Bellstore	41	47750 - Kosmetika va gigiyena vositalarining ixtisoslashtirilgan do'konlarida chakana savdo
3	INDENIM	35.5	47712 - Ixtisoslashgan kiyim do'konlarida chakana savdo (trikotaj va paypoqdan tashqari)
4	AYNIMO	18	47712- Ixtisoslashgan kiyim do'konlarida chakana savdo (trikotaj va paypoqdan tashqari)
5	EXPRESS BEAUTY	18	96020 - Sartaroshlik va go'zallik salonlari xizmatlari
6	HAIRBOSS	18	96020 - Ayollar go'zallik saloni
7	Pink Island	16	Xususiy korxona tovar belgisi
8	7 Saber	13.5	47190 - Ixtisoslashmagan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi
9	Podium Italia	11	Ayollar kiyim kechak do'koni
10	EvoEva	9	47750 - Kosmetika mahsulotlari chakana savdo tarmoqlari
11	Fratelli Casa	5	14140 - Ichki kiyimlar ishlab chiqarish
12	Obid Sobitov Parfum	4.5	Parfumeriya savdo do'konlar tarmog'i
13	Zargarshop	4.5	Onlayn savdo platformasi
14	Eleonce	3.5	14190 - Boshqa kiyimlar va aksessuarlar ishlab chiqarish
15	Inc cosmetic Asia	3.5	20420 - Parfumeriya va pardozi vositalari ishlab chiqarish
16	L'AROMA	3.5	20420 - Parfumeriya va pardozi vositalari ishlab chiqarish
17	Black Quail	3	15120 - Chemodanlar, ayollar so'mkalari va teridan boshqa buyumlar ishlab chiqarish
18	Button	2.5	14140 - Ichki kiyimlar ishlab chiqarish

19	Oriflame	2	47750-Ixtisoslashgan do'konlarda pardozi tovarlari va gigiyena predmetlari chakana savdosi
20	Begim Parfumes	1	47190 - Ixtisoslashmagan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra 2023-yil brendlari uchun tanlovda 3 ta o'z ishlab chiqarish tarmog'iga ega bo'lgan korxonalar ishtirok etgan jumladan: "Fratelli Casa", "Eleonce" hamda "Button" brendlari.

Yuqoridagilar bilan birga, O'zbekiston kiyim sanoatida yuqori darajada mahalliy brend darajasiga ko'tarilgan bir qator savdo markalari mavjud. Ayniqsa tayyor kiyimlar va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi quyidagi korxonalar o'zlarining mahalliy brendlarini shakllantirgan: "SAMO", "Look at me", "MilanaTex", "Ahsan", "TWINS", "Bahmal group", "G.Studio", "Almaz Textile", "Xojaobod fazo", "Nil Grant", "Milana textile", "Khanter Group", "Urban Style", "Yustex", "Twins textile".

O'zbekiston tikuv-trikotaj sanoatida brending strategiyasi mahsulotlarning xalqaro bozorlarda tan olinishi va eksport salohiyatini oshirishda, muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Mahalliy tekstil ishlab chiqaruvchilari o'z mahsulotlarini xalqaro yarmarkalarda namoyish etib, brendlarini mustaxkamlashga harakat qilmoqdalar.


Zamonaviy marketingning asosiy vazifasi esa brendning qiymatini oshirishga yordam beruvchi samarali marketing vositalarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Brend qiymati korxona uchun nomoddiy aktiv sifatida uning brendning moliyaviy qiymatini anglatib, bu uning obro'si, tan olinishi va nafilik tufayli iste'molchilar mahsulot uchun to'lashga tayyor bo'lgan summani anglatadi. Brend qiymati kompaniyaning umumiy bahosining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning rentabelligi va bozordagi mavqeyiga sezilarli ta'sir

ko'rsatadigan nomoddiy aktiv sifatida qaraladi.

Brend kapitali korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari, bozor pozitsiyasi, mijozlarning brend haqidagi tasavvuri, sodiqligi kabi jihatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarni chuqur tahlil qilish orqali korxonalar uzoq muddatli muvaffaqiyati va raqobatbardoshlikni oshiradigan yuqori brend qiymatini shakllantirishi mumkin.

Brend kapitali brendning mahsulot yoki xizmatga u taqdim etadigan funksional afzalliklaridan tashqari qo'shadigan qiymatini anglatadi. Bu orqali iste'molchilarning brendga nisbatan umumiy tasavvurlari va munosabatlarini aks ettiradi. Ushbu omillar ularning xarid qilish qarorlariga va sodiqlik darajasiga ta'sir ko'rsatib, korxonalarning bozor faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Brend kapitali kompaniyalar uchun muhim nomoddiy aktiv bo'lganligi sababli uni oshirish choralarini ko'rish biznes subyektlarining asosiy strategik yo'nalishiga aylangan.



**1-rasm. “Brend jozibadorligi”,
“brend kapitali” va “brend qiymati”
tushunchalari va ularning asosiy
komponentlarining o‘zaro bog‘liqlik
sxemasi²**

Ilmiy nazariy xulosalarga asosida brendni anglatuvchi 3 ta asosiy ilmiy kategoriyalar va komponentlari o‘rtasidagi

bog‘liqliklar o‘zaro to‘ldiruvchilar sifatida qarash maqsadga muvofiq. Xar bir elementning o‘zaro bog‘lanish sxemasi 1-rasmda aks etgan.

Bozorda brendni muvaffaqiyatini saqlab qolish va rivojlantirish uchun brend kapitali va marketing faoliyatidan samarali foydalanish zarur bo‘lib, bu xabardorlikni oshirish, farqlashni ta‘minlash, qiymat yaratish, foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va hissiy aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonlar muvaffaqiyatli brend yaratishning asosiy tarkibiy qismlaridir.

Brend jozibadorligi esa uning xabardorligini oshirish, yuqori sifatni ta‘minlash, ijobiy assotsiatsiyalarni rivojlantirish va iste‘molchilar sodiqligini mustahkamlash orqali kuchli brend aktivlarini shakllantiradi. Natijada, mustahkam brend kapitali yaxshilangan moliyaviy ko‘rsatkichlar, bozor mavqeining mustahkamlanishi, mijozlar tomonidan ijobiy qabul qilinishi va yuqori narx siyosati orqali brend qiymatini oshiradi. Shuningdek, taklif etilgan 1-rasmda “Brend jozibadorligi”, “brend kapitali” va “brend qiymati” tushunchalari va ularning asosiy komponentlarining o‘zaro integratsiyasi orqali mustahkamlanish asoslarini yaratish orqali brendda yangicha ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishni muhim hisoblanadi.

Olib borilgan ilmiy nazariy qarashlardan kelib chiqqanda brendlarni shakllantirish va rivojlantirishda birlamchi asos sifatida brend jozibadorligini oshirishga qaratilgan strategik maqsadlar boshlang‘ich bosqich sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtai nazardan, brend jozibadorligining iqtisodiy mazmuni shundan iboratki, u iste‘molchilarning ta’surotlari asosida shakllangan ratsional va emotsional aloqani ta‘minlaydi. Bu jarayon iste‘molchilarning istaklari, ehtiyojlari va qadriyatlariga mos keladigan tovar va xizmatlarning o‘ziga xos xususiyatlari hamda tasdiqlari bilan bog‘liqdir.

² Muallif ishlanmasi

“Brend kapitali” bir korxona yoki mahsulotni tan olish va unga qiziqishni oshirish uchun amal qiladigan barcha boshqa xususiyatlarning jamiyati hisoblanadi. Brend kapitali, kompaniyalar va mahsulotlar uchun atalgan qadriyatlarining, ma’lumotlarning, hayollar to’plamidir. Bu barcha yo’nalishlardan foydalangan holda, kompaniya xavfsizligini, mavjudlikni, sotishlarni oshirish, mijozlarning e’tiborini jalb qilish, xavfsiz va sodda foydalanishning oshishini ta’minlaydi. Brend kapitali, kompaniya uchun qadriyat yaratadigan, undan foydalanuvchilar tomonidan e’tirozga ega bo’lgan va foydalanishga qodir bo’lgan ma’lumotlar, imkoniyatlar va mavjud bo’lishdir.

Brend kapitali iste’molchilar va korxonalar tomonidan belgilangan qiymat muvofiq ifodalanadi. Brend kapitali uni ajratib turuvchi va maqsadli auditoriyaga yo’naltirilgan turli elementlarning yig’indisidan tashkil topadi. Unga logotip, ranglar nomi va belgilari kabi brendni tavsiflovchi vizual va og’zaki elementlarni o’z ichiga oladi. Shuningdek, brend mijozlarga mahsulot yoki xizmatlardan nimalarni kutish mumkinligini va da qilishi, ular bilan aloqalarni qamrab oladi. Brendning iste’molchilar tomonidan qanday idrok etilishi, ular bilan shakllangan hissiy bog’liqlik, taklif etilayotgan mahsulot yoki xizmatlarning sifati va bozor yangiligi ham bu kapitalning muhim belgilaridir. Bundan tashqari, brendning qadriyatlari turli tadbirlar orqali mijozlar bilan o’zaro aloqasi, hamda raqobatchilardan ajralib turishini ta’minlovchi o’ziga xos xususiyatlar uning brend sifatidagi alohida jihatlarini belgilaydi.

Mijozlarning sodiqligi va ularni ushlab turish raqamli marketingda va takroriy xaridlarni rag’batlantirishda muhim rol o’ynaydi. Sodiqlik dasturlari, shaxsiy elektron pochta kompaniyalari va maqsadli reklama aksiyalari chakana sotuvchilarga

mavjud mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi, sodiqlikni mukofotlaydi va ularni kelajakdagi haridlar uchun qaytishga undaydi.

XULOSA

Tikuv-trikotaj sanoati O’zbekiston iqtisodiyoti uchun o’ta muhim sanoat tarmog’i sifatida aholi bandligi va turmush darajasini oshirish kabi strategik ahamiyatga ega bo’lgan, hukumatining doimiy diqqat markazida bo’lgan tarmoqdir. Shunga ko’ra, mustaqillikdan keyingi yillarda O’zbekiston tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish borasida ko’plab islohotlar amalga oshirildi va bu mazkur sanoatni yanada rivojlanishini ta’minladi.

O’zbekiston tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishdagi asosiy tashabbuslardan biri mahalliy brendlarni targ’ib qilish va xalqaro brendlar bilan keng ko’lamli integratsiyalashuvdir. Mahalliy to’qimachilik brendlarini ilgari surish ichki iste’molni oshirish va milliy g’urur tuyg’usini yaratish uchun ustuvor ahamiyatga ega. Marketing va branding tashabbuslari mahalliy ishlab chiqarilgan to’qimachilik mahsulotlariga bo’lgan talab va aholining xabardorligini oshirishga yordam beradi.

Jahon bozorida talab tobora ortib borayotgan O’zbekistonning tikuv-trikotaj mahsulotlari yuksak sifati va raqobatbardoshligi, xalqaro andozalarga to’la mosligi bilan tobora kengayib bormoqda. Xalqaro ko’rgazmada faol ishtirok etayotgan mahalliy korxonalarning salohiyatini ko’rsatish maqsadida turli dizayn va ekspozitsiyalarni – rang-barang gazlamalar, ip-kalava, trikotaj polotnosi, kattalar va bolalar kiyimlari, paypoq va jinsi mahsulotlar, tayyor tikuvchilik-trikotaj buyumlarini taklif etilmoqda.

Moda industriyasi rivojlanishining marketing strategiyasini ishlab chiqish, milliy ishlab chiqaruvchilarni qo’llab-

quvvatlash tizimini joriy etish, korxonalarga konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi bozor subyektlarini ko'paytirish, mavjud infratuzilmani shakllantirish hamda dizayner va konstruktorlarni innovatsion mahsulotlari uchun rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llashda foydalaniladi. Shuningdek, dizayn va moda markazlarini iste'mol bozori bilan sanoat korxonalarini bog'lovchi asosiy zanjir sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Tikuv-trikotaj bozorida mijozlarning atrof-muhit va ijtimoiy muammolar haqida xabardorligi ortib borayotganligi sababli, ko'plab moda kompaniyalari barqaror va axloqiy amaliyotlarni qabul qilmoqdalar. Bu ekologik toza materiallardan foydalanish, chiqindilar va uglerod izlarini kamaytirish, adolatli mehnat amaliyotini ta'minlash va ta'minot zanjiri haqida shaffoflikni o'z ichiga oladigan yondashuvdir.

Olib borilgan marketing tadqiqotlari natijalari asosida aniqlanadiki, xaridorlarning kiyim brendini tanlash xulq-atvoriga brend obro'si, mahsulot atributlari, narx, imij, mijozlar tajribasi, ijtimoiy va ekologik mas'uliyat va qulaylik bilan bog'liq omillarning kombinatsiyasi kabi turli omillar

ta'sir qiladi. Ushbu omillarni samarali hal qiladigan va mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va afzalliklariga javob beradigan brendlar raqobatbardosh kiyim bozorida muvaffaqiyat qozonish ehtimoli ko'proq.

Marketing tadqiqotlari natijalari asosida tahlil qilingan brendlarga nisbatan iste'molchilarning ishonchi va sodiqligini oshirishga kuchli ta'sirga ega bo'lgan omil bu onlayn mavjudlik va taqsimot kanallarining samarali yo'lga qo'yishidir. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda qanchalik ko'p kontentlarga ega bo'lishlik mijozlarda shu mahsulot boshqalarga nisbatan afzalligini aks ettiradigan xususiyat sifatida qarash lozim. Mijozlarning uzluksiz onlayn xarid qilish tajribasi va raqamli marketing strategiyalariga ega brendlar onlayn xarid tajribasiga ega bo'lgan iste'molchilarda sodiqlikni oshirishni ta'minlaydi. Shuningdek, tikuv-trikotaj mahsulotlari bozorida samarali taqsimot kanallarini yaratish orqali mijozlar sodiqligiga erishish mumkin. Tarqatish kanallari orqali mijozlarning umumiy tajribasi yaxshilanadi va sodiqlik oshib, takroriy xaridlar ko'payib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ergashxodjayeva Sh.Dj., Nematov I, Brendni boshqarish. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. — 146 b.
2. Eshmatov S. Mahalliy brendni shakllantirishning marketing strategiyasi (Sut va sut mahsulotlari misolida). 08.00.11-Marketing. i.f.f.d. (Phd) dissertatsiyasi. TDIU. 2020-yil.
3. Eshmatov S.A. Sut va sut mahsulotlari brendini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish. 08.00.11-Marketing. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSs.) dissertatsiyasi. Toshkent – 2023-yil.
4. Ikramov M.A., Eshmatov S.A, Jalilov Brending J.G.. O'quv qo'llanma. -T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 280 b., 2018-yil. 149 bet.
5. International Organization for Standardization, Brand Evaluation — Principles and Fundamentals.
6. Keller K. L. 2013. Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity. 4th ed. Boston: Pearson Education Limited.
7. Keller K. L., Kotler P. Branding in B2B firms //Handbook of business-to-business marketing. – Edward Elgar Publishing, 2022. – C. 205-224.; Keller K.L. (2003). Strategic

- Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity. PHI. 2nd ed. New Delhi.
8. Chen L. et al. The empirical analysis of green innovation for fashion brands, perceived value and green purchase intention—mediating and moderating effects //Sustainability. – 2021. – T. 13. – №. 8. – S. 4238.
 9. Zhang, F.; Sun, S.; Liu, C.; Chang, V.J.E. Consumer innovativeness, product innovation and smart toys. Electron. Commer. Res. 2020, 41, 100974.
 10. Lin, J.; Lobo, A.; Leckie, C.J.J. The influence of green brand innovativeness and value perception on brand loyalty: The moderating role of green knowledge. J. Strateg. Mark. 2019, 27, 81–95.
 11. Wang, H.-J.J. Determinants of consumers' purchase behaviour towards green brands. Serv. Ind. J. 2017, 37, 896–918.
 12. Ranjan, R.K.; Kushwaha, R.J.R. Impact of Green Marketing Strategies on Consumer Purchase Behaviour. Rev. Manag. Sci. 2017, 7, 9–22.
 13. Murphy J. (ed.). 1991. Brand Valuation: Establishing a True and Fair View. New York: Random House Business Books.
 14. Odilova C.C. Meva-sharbatlari brendini shakllantirishning marketing strategiyalarini ishlab chiqish. 08.00.11-Marketing. i.f.f.d. (Phd) dissertatsiyasi. TDIU. 2021-yil.
 15. Oqboyev A.P. Tikuv-trikotaj korxonalari raqobatbardoshligini boshqarishda brending strategiyasidan foydalanish. 08.00.11-Marketing. i.f.f.d. (Phd) dissertatsiyasi. TDIU. 2021-yil.
 16. Xakimov Z.A. Yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini marketing strategiyalari asosida oshirish. TDIU, i.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi. 2018-yil. 149 bet.
 17. Xotamov И.С. Brending. – Т.: TDIU, 2016.
 18. Аакер Д., Йохимштайлер Э. 2003. Бренд-лидерство: новая концепция брендинга. М.: Издат. дом Гребенникова.
 19. <https://www.statista.com/outlook/cmo/apparel/worldwide>.
 20. <https://www.ama.org/the-definition-of-marketing-what-is-marketing/>.
 21. https://interbrand.com/wp-content/uploads/2022/06/IB-Brand Valuation_220608.pdf
 22. <https://marketing.uz/uz/rejtinglar/rejtinglar-nizomi/>

E'LON !!!

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining qarori bilan "Moliya" ilmiy jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan va jurnal iqtisodiy ilmiy nashr bo'lib, bosma holatda bir yilda 6-marta chop etilib, jurnalning har sonida ilmiy ishlanmalar iqtisodiy fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqot yo'nalishlariga mos holda o'zbek, rus, ingliz tillarida maqolalar chop etib kelindi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot va elektron axborotlar almashinuv davrida ilmiy jurnallarning ham faoliyati raqamlashtirilmoqda. Shu boisdan, ilmiy jurnalni yaqin istiqbolda Xalqaro jurnallar bazasi safidan joy olishini, chop etiladigan maqolalarga qo'yiladigan talablarni IMRAD usuli asosida ishlab chiqilishi, xalqaro bazalarda identifikatsiyalanishini e'tiborga olib, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kengashi majlisining 5-sonli bayonnomasiga asosan "Moliya" ilmiy jurnalini elektron shaklga o'zgartirildi va 2025-yil yanvar oyidan boshlab iqtisodiy fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqot yo'nalishlariga mos holda o'zbek, rus, ingliz tillarida maqolalar elektron chop etiladi.

Maqolalarni yuboorish buyicha quyidagi telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin: +998914536467

Тошкент молия институтининг «Таҳририят ва нашриёт»
бўлимида нашрга тайёрланди.

Материаллар кўчириб босилаётганда «Молия» илмий журналичан
олинганлиги кўрсатилиши шарт.

Журналда эълон қилинаётган материаллардаги далиллар, рақамлар ва
маълумотларнинг тўғрилиги учун уларнинг муаллифлари жавобгар ҳисоб-
ланади.

Таҳририят фикри доим ҳам муаллифлар фикрига мос келавермайди.
Таҳририятга юборилган кўлёзмалар муаллифларга қайтарилмайди.

«Молия» илмий журналича «Матбуот тарқатувчи» АК ҳамда
«INTER PRESS» компаниялари орқали обуна бўлиш мумкин.

Теришга берилди: 20.12.2024 й. Босишга рухсат этилди: 27.12.2024 й.

Бичими 70x100 1/16. Шартли босма табағи 16,25.

Ҳисоб-нашр табағи 16,50. Адади 300 нусха. Буюртма № 05.

Баҳоси келишилган ҳолда.

Босмаҳона гувоҳномаси № 10-24-10
«Ҳумоюнбек истиқлол мўъжизаси» босмаҳонасида
ризография усулида чоп этилди.